

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 930.26:72

**Ergashev Suxrob Muxiddinovich**

**SAMARQAND ME'MORIY YODGORLIKLARI**  
**YOZUVLARI (tarixiy-manbaviy) TAHLILI**

Mutaxassislik: 5A 150204–**Muzeyshunoslik, konservatsiya va badiiy**  
**yodgorliklarni saqlash mutaxassisligi**

**magistr akademik darajasini olish uchun**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYA**

Ish ko'rildi va himoyaga  
ruxsat berildi. “Tarixshunoslik  
va manbashunoslik” kafedrası  
mudiri:

\_\_\_\_\_ dots. Ergashev B. E.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 y.

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_ t.f.n.dots. Rajabova D.

**Samarqand – 2016**

## **MUNDARIJA**

<b>Kirish</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. SAMARQAND QADIMIY ME'MORIY OBIDALARI PESHTOQ YOZUVLARI TAHLILI.</b>	
1.1. Shohi Zinda me'moriy ansambli kirish peshtoq yozuvlari	8.
1.2. Shohi Zinda me'moriy majmuasi temuriylar hamda yuqori qism obidalari yozuvlari	17
<b>II-BOB. SAMARQAND AMIR TEMUR DAVRI TARIXIY OBIDALARI PESHTOQ YOZUVLARI</b>	
2.1. Amir Temur (Go'ri Amir) maqbarasi yozuvlari mazmuni	30
2.2. Amir Temur (Bibixonim) jome' masjidida va maqbarasi peshtoq yozuvlari mohiyati	40
<b>III-BOB. SAMARQAND REGISTON MAYDONI ME'MORIY OBIDALARI PESHTOQ YOZUVLARI</b>	
3.1. Ulug'bek madrasasi	51
3.2. Sherdor madrasasi	61
3.2. Tillokori madrasasi	72
<b>XULOSA</b>	<b>80</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	<b>83</b>
<b>Ilovalar</b>	

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, milliy qadriyatlarimiz, ayniqsa, boy va qadimiy mumtoz adabiyotimizning beqiyos namunalarini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Vatanimiz tarixini o'qitish va o'rganish yurtboshimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, "Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur."<sup>1</sup>

Me'moriy obidalarimizning peshtoq yozuvlari alohida bir soha va u tadqiqotchi mutaxassislar hamda olimlardan juda ko'p izlanish talab qiladi. Bu uchun tadqiqotchi mutaxassislar hamda olimlar bir necha tillarni mukammal bilishi lozim. Keyingi paytlarda jadal rivojlanayotgan tarixiy davrda qator xalqlarning ilmiy va moddiy merosini qiyosan o'rganishga olimlar o'z e'tiborlarini qaratgan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib e'lon qila boshlangan maqola va risolalarida ham peshtoq yozuvlarda jiddiy nazar tashlanganini ko'rishimiz mumkin.

"O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi tomonidan nashr qilingan "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" kitobi (Ijodiy guruh: Baxtiyor Bobojonov, Komiljon Rahimov, Qurbon Hasanov, Behruz Ma'rufiy, Abdujalil Ergashev, Sarvarxoja Boboyev, Alla Sobirova) bu yo'nalishdagi ilmiy asarlari tom ma'nodagi gavhari bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Ushbu asarda Samarqand me'moriy obidalarini peshtoq yozuvlari masalalari aniq dalillar asosida isbot qilingan va ko'p o'rinlarda me'moriy obidalarini qaysi yozuvda berilganligi, mazmuni berilgan.

Tarixchi olimlarimiz tomonidan bugungi kunga qadar me'moriy obidalar peshtoq yozuvlari haqida qator asarlar yozilib ilmiy tahlildan o'tkazilganligi bizga ma'lum. "Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlari" ayrim mavzular turli tadqiqot-chilar tomonidan o'rganilgan bo'lsada, lekin yozuv hali yaxlit holda ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Ushbu yozuvlarni komil inson tarbiyasiga

---

<sup>1</sup> Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz – kejalak yo'q" T-1998. 27-bet.

oid badiiy xattotlik san'ati gultoji deya baholash mumkin hamda bu sabablar yozuv-ning naqadar muhimligi va uning o'rganilishini talab etadi. Demak bu mavzuni o'rganishning dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi.** Sharq me'morchiligi, xattotlik san'ati asosida peshtoq yozuvlarda o'z aksini topgan komil inson tarbiyasi dunyo ahlini qiziktirib kelayotgan mavzulardan biridir. Peshtoq yozuvlarni o'rganishning asosiy manzil-makoni bo'lgan yurtimizda olib borilayotgan va mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilayotgan katta tadqiqotlarni ham aytish joiz. Samarqand me'moriy obidalarida peshtoq yozuvlarini o'rganish ancha oldin boshlangan bo'lsa-da, lekin bu izlanishlar sho'rolar davrida bir yoqlama olib borildi. Ya'ni olimlarimiz bor haqiqatni oshkora ko'rsatib berishdan ojiz edilar. Shunday bo'lsa ham fidoyi olimlarimiz tomonidan ko'plab izlanish va tadqiqotlar yaratildi. Xattotlarimizning Qur'oni karim, hamda Hadislardan olingan ilmiy, diniy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari cheklangan tarzda bo'lsa ham, har holda o'rganildi. Ammo peshtoq yozuvlarining haqiqiy bahosini belgilash, mazmun-mohiyatini ochishda mustaqillik yillaridan alohida katta ahamiyat berila boshlandi. Olimlarimizga erkin fikrlash va o'tmish tariximizni xalqqa xolisona yetkaza olish imkonini berdi.

Me'moriy obidalar peshtoq yozuvlari katta qismi mustaqillikdan keyin arxiv hujjatlari asosida qayta tiklandi. Peshtoq yozuvlar ajdodlarimiz o'tmishi falsafiy olamini yoritishda asosiy manba sifatida ahamiyati benazir. Ajdodlarimizning qurdirgan me'moriy obidalarida peshtoq yozuvlarida axloq-odob, ilm-fan, tartib-intizom, xullas komil inson tarbiyasi alohida o'rin tutgan. "Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlari"ni o'rganishimiz asosida o'tmish davr madaniy merosimizni ilmiy-tarbiyaviy sohada alohida o'rin tutganligi guvohi bo'lamiz. Samarqand me'moriy obidalarida yozuvlari yuzasidan olib borgan tahliliy, ilmiy ishlar va tasavvufiy qarashlari haqida alohida tadqiqot ishi olib borilmagan bo'lsa ham qator ilmiy maqolalar chop etishgan<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> 1. Abu Toxirxoja "Samariya" «Kamalak»T. 1991.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Dissertatsiyaning maqsadi- Sharq me'morchiligida xattotlik san'ati asosidagi peshtoq yozuvlarini tarixiylik tomonidan o'rganish, Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlarini keng tahlil etish, o'tmish tariximizning hozirda barkamol shaxs tarbiyasi yo'lida tutgan mavqe'ini o'rganish hamda ajdodlarimiz amalga oshirgan ishlarni keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy vazifalarni bajarishni maqsadga muvofiq deb bildik:

- me'moriy obidalarini peshtoq yozuvlarining o'rganilganlik darajasini chuqur tahlil etish;
- Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlarining komil insonni tarbiyalash yo'lida o'rnini aniqlash;
- Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlarini o'rganishga bag'ishlangan monografiya va risolalarni ilmiy tahlilini amalga oshirish;

---

2 Sh.S. G'afforov, M.A. Yunusov, S.I. Sharipov, M.M. Saidov "O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi" Samarqand-2011.

3. N. B. Nemsova, Y. Z. Shvab "Ансабл Шах-и Зинда". «G'.Gulom» T. 1979.

4. M. E. Masson "Мавзолей гур-Эмир". Samarqand. 1929.

5. M.E. Masson "Регистан и его медресе" T. 1926.

6. G.A. Pugachenkova "Temurning memoriy me'rosi" T. 1996.

7. A. Berdimurodov «Go'ri Amir maqbarasi» «Meros», T.1996.

8. "Tarixiy Samarqand". T. "Sanat jurnali" nashri 2007.

9. I. Suvonqulov "Samarqand qadamjolari" T. "Fan" 2007.

10. M.M. Abramov. "Samarqand qabristonlari". Samarqand. 1991.

11. A. Berdimurodov "Amir Temur maqbarasi 1941-yilning 16-24 iyun kunlarida" T. "Yangi asr avlodi" 2010.

12. O. Bo'riyev "Sohibqiron Amir Temur". T. «O'zbekiston» 2011.

13. A. Muhammadjonov, Q. Rajabov "Amir Temur" T. "O'zbekiston" 2013.

14. Q. Xasanov "Registon ansambli". Samarqand-2007.

15. Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi. "Bibixonim jome' masjidi" «Zarafshon» nashri, Samarqand -2008. "O'zbekiston islom obidalari" T.2012.

16. A. Muhammadjonov "Samarqand -jahon jamoli" //Moziydan sado. 4-son.

17. Ibn Arabsho "Ajoyib al maqdur fi tarixi Temur" T-1992.

18. «O'rta Osiyoning muqaddas qadamjolari tarixi» maxsus kursidan- O'quv uslubiy majmuasi(3- kurs talabalari uchun). Samarqand – 2010.

19. Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma". T-1996.

20. Qur'oni Karim, (o'zbekcha izohli tarjima) Alouddin Mansur, T. Cho'lpon, 1992.

21. Sh. Jo'rayeva "O'zbekistonninigi tarixiy obidalari" Samarqand – 2011.

22. O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand registon me'moriy majmuasi" I kitob Toshkent — 2011. 400 b.

23. O'zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar"/albom/ O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi. T-2011.

24. O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" III kitob Toshkent — 2012. 296 b.

25. "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 552 b.

26. Полупанов С.Н. «Архитектурный памятники Самарканда» Москва. 1948.

- Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlarini jamlash va ularni yangi-cha usulda talqin etish;
- Peshtoq yozuvlarning ommalashtirish masalalari.

**Tadqiqot obekti va predmeti.** Tadqiqotni yozishda O'zbekiston obidalaridagi bitiklarni o'rganishda quyidagi kitoblar asosiy manba qilib tanlandi:

- O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Registon me'moriy majmuasi" I kitob Toshkent — 2011. 400 b.
- O'zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar"/albom/ O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi. T-2011.
- O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" III kitob Toshkent — 2012. 296 b.
- "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 552 b.

Bundan tashqari mavzuga bevosita aloqasi bo'lgan Qur'oni Karim (o'zbekcha izohli tarjima Alouddin Mansur), kitoblari va "Hadis"lardan keng miqyosda qo'shimcha manba sifatida foydalanildi.

**Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari.** Dissertatsiya ishining ilmiy-nazariy hamda metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning boy merosimiz haqidagi qarashlari, Q. Xasanov, Sh.S. G'afforov, M.A. Yunusov, S.I. Sharipov, M.M. Saidov kabi olimlarning tadqiqotlaridagi fikrlariga suyardik.

Tadqiqot obektining xarakteriga ko'ra ishga tarixiy-manbaviy tahlili metodlari asos qilib olindi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Dissertatsiyada Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlarida axloqiy-tarbiyaviy, ilmiy o'rganganligi ilk marta yaxlit monografik yo'nalishda maxsus tadqiq qilindi. Ishda Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlari xolisona ilmiy tahlil etildi. Ushbu tadqiqot, Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga peshtoq yozuvlar yaxlit holda tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:

- Shohi Zinda ansambilidagi yodgorliklarda insoniyatni iymon-etiqodli bo'lishga chorlash.
- Amir Temur (Go'ri amir) maqbarasi peshtoq yozuvlarida turmush-tarz, hayot falsafasi talqin etganligida yorqin namoyon etilgani;
- Amir Temur (Bibixonim) jome' masjidi va maqbarasi peshtoq yozuvlari mazmuniga asl mohiyati oydinlashtirildi;
- Ulug'bek, Sherdor va Tillokori madrasalarida komil inson tarbiyasi masalasi ilk bor tahlilga tortildi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, me'moriy obidalar peshtoq yozuvlarida axloqiy-tarbiyaviy, ilmiy aloqalarini tadqiq etishda o'ziga xos yo'lining birma-bir ko'rib chiqilishi va bu ishning keng jamoatchilikka taqdim etilishi bilan belgilash mumkin. Natijada, Samarqand me'moriy yodgorliklari yozuvlarida ilmiylik, falsafiy aloqalarini o'rganishda yangicha uslub shakllanuvi va rivojining umumiy holatiga nazar solish imkoniyati vujudga keladi. Tadqiqot natijalaridan muzey ishida, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tizimida ma'ro'za va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, ilmiy risolalar yozishda foydalanish mumkin.

**Magistrlik dissertatsiyaning natijalari e'lon qilinganligi.** Magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlarning samarasi sifatida to'rtta maqola, shu jumladan, bitta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plamida va uchta ilmiy konferentsiyalarda maqolalar e'lon qilingan. Mazkur tadqiqot ishi kirish, yettita paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan tashkil topgan.

**Magistrlik dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi va tili.** Tadqiqot kirish, yettita paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat. Tadqiqot ishi o'zbek tilida yozilgan bo'lib 84 betni tashkil etadi.

## **I-BOB. SAMARQAND QADIMIY ME'MORIY OBIDALARI PESHTOQ YOZUVLARI TAHLILI.**

### **1.1. SHOHI ZINDA ME'MORIY ANSAMBILI KIRISH PESHTOQ YOZUVLARI**

Madaniyatimizning bir jumrog'ini o'zida aks ettirgan yodgorliklaridan biri Shohi Zinda ansamblidir. Shohi Zinda Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora va madrasadan iborat ansambl. Ularning eng qadimgisi Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, xalq orasida Shohi Zinda (tirik shoh) nomi bilan mashhur. Dastavval bu yerda faqatgina XI asrning 2-yarmida Samarqanddagi ilk qoraxoniylar davrida qurilgan «tirik shoh»ning maqbarasi bor edi. Bu joyga ilgari ham, tub aholi ziyoratlar uyushtirishgan. Keyinchalik xuddi shu yerga 1066 yili Tamg'ach Bo'g'ro'xon madrasasi qurilgan va unga tutash bir qator turkum majmua yuzaga kelgan. XI-XII asrlarda serhasham bezatilgan boshqa maqbaralar vujudga kela boshlagan. Arxeologlar ulardan bir nechtasini XIV asr inshootlarining g'arb tomonidagi yo'lakdan qazib topganlar. Ular bezaklari bilan Temur davri maqbaralaridan farq qilgan. O'sha davrda ham, Qusam ibn Abbos maqbarasi «muqqadas» hisoblanib ziyorat qilingan. Ba'zi dahmalar, XI-XII asrlarga oid maqbaralarning xarobalari ustiga quriladi. XV asr boshlarida binolar Xo'ja Ahmad maqbarasidan Hazrati Xizr masjidiga boradigan yo'l bo'ylab quriladi. Temur davri me'morchiligi, bezak berishning yangi texnikalari bilan ya'ni, qirqma koshinlar bilan yanada boyitilgan. Maqbaralar ikkitadan, tashqi va ichki gumbazli, baland silindr barabanli kilib quriladigan bo'ldi.

Ansambl bir-biri bilan yo'lak orqali bog'langan 3 guruh binolardan iborat. Quyi guruhdagi inshootlar Ulug'bek o'g'li nomidan qurdirgan Abdulaziz chortog'i (1434—35), unga shimolidan Davlat qushbegi madrasasi (1812-1813) tutash, uning qarshisidagi ayvonli masjid naqshlar bilan nafis bezatilgan. XV asrda tik zinapoya (37 ta) o'rtalig'ining chap tomonida ziyoratxona va go'rxonadan iborat qo'shgumbazli maqbara joylashgan.



Shohi Zinda me'moriy majmuasiga Asosiy kirish eshigining tepasida suls xatida tarix bitilgan. V. A. Shishkin maqolasi asosida aksariyat yozuvlari qisman tiklangan bu xatda: Binolarning xayrlisi va ziynatlisi bo'lgan (bu bino) tartibli holda va diqqat bilan asl ma'no ko'rinishini jamlab “ ... Abdulaziz Bahodir Sul(ton ibn) Sulton ... Ulug'bek Ko'ragon tomonidan 838/1434-1435 yili qurildi.”<sup>3</sup>

Ulug'bek norasida o'g'li Abdulaziz nomidan qurdirgan bu peshtoq Shohi Zindaning qariyb to'rt asr davomidagi shakllanish tarixiga xotima bo'ldi. Peshtoq nafis ishlangan. Sayqal berilgan oddiy g'isht fonida terma rangli g'ishtlar jilvalanadi. Yozuvlar koshin-burunj (mozaika) texnikasi asosida ishlangan. Harflar oq, havorang fon ustida yoxud havorang harflar sarg'ish rang ustida bitilgan.

Peshtoqda kufiy va suls xatlarida tiklangan yozuvda Qur'oni karimdagi “Oli Imron” surasining 3:169-oyati aks etgan. Tepasida kufiy xatida sariq harflar bilan – “Allohni poklab yod qilaman”, “Allohgga maqtovlar bo'lsin”, “Alloh – buyuk”, – kalimalari takroriy tarzda bitilgan. Bunday kalimalar barcha islomiy madaniyat ta'sirida bo'lgan davlatlar mafkuraviy qarashlari asosi bo'lib kelgan. Temuriylar davridagi barcha me'moriy inshootlarda bunday yozuvlarni kao'plab uchratamiz. Peshtoq frizida ham kufiy bannoiiy xatida “Boqiylik Allohga xos”, “Allohgga maqtovlar bo'lsin”, –kalimalari takroriy tarzda bitilgan. Kitobaning ikki yon tomonida kvadrat ichida kufiy xatida “Ey, karamli zot”, “Ey juda rahmli zot”, – kalimalari keltirilgan va Allohning go'zal ismlari (Al-Asma al-husna) bitilgan<sup>4</sup>.

Eshik ustidagi kitobada suls xatida hadis bitilgan. Ushbu hadis Qusam ibn Abbos go'rxonasi majmuasidagi ziyoratxona darvozasi ustida va go'rxona panjarasida ham uchraydi. Ammo Qusam ibn Abbos vafoti sanasida xatoga yo'l qo'yilgan. Payg'ambar alayhissalom: “Insonlardan tuzilishi va xulqi jihatidan menga eng o'xshashi – Qusam ibn Abbos”<sup>5</sup>, – dedilar. Hammaga ma'lumki,

---

<sup>3</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 35-bet

<sup>4</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 37-bet

<sup>5</sup> Hadislarda Qusam ibn Abbosning payg'ambarimizga o'xshashi to'g'risida kam rivoyat qilingan. Biroq Abu Abdulloh al-Hokim “Tarixi Nishopur” kitobida: “U (Qusam ibn Abbos) payg'ambar(s. a. v.)ga o'xshar edi. U payg'ambarimizga kichik zamondosh ham edi”, – deyiladi. Ummu Fazl rivoyat qilgan hadisda ham juda ko'p sanadlar bilan bu haqda aytilgan (Qarang: Az-Zahabiy. Siyar a'lam an-nubalo). Shuningdek, mana bu zotlar ham payg'ambarimiz(s. a. v.)ga o'xshash bo'lishgan: Ja'far ibn Abu Tolib, Hasan ibn Ali ibn Abu Tolib, Qusam ibn Abbos ibn Abdulmutallib, Abu Sufyon ibn Horis ibn Abdulmutallib va Soib ibn Ubayd ibn Abduyazid ibn Hoshim ibn Mutallib ibn Abdumannof.

arablardan bo'lgan Qusam – payg'ambar alayhissalomning amakivachchalari. U kishi Samarqandda bo'lgani uchun Samarqanddagi bu mahalla uning ismi bilan yuritilgan. U sarkarda va fotih edi. Islom dinini yoyish maqsadida bizning hududlarda targ'ibot ishlari bilan ham shug'ullangan. Hijriy ellik oltinchi (56/675)<sup>6</sup> yili vafot etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va tavsiyasi bilan 2007 yil 25 avgustida Shohi Zinda majmuasiga ziyorat tashrifi asnosida bosh ravoq kirish eshigi ustiga “Bismillahir rohmanir rohim”, – kalimasi yozdirilgan. Xattot – Habibulloh Solih.<sup>7</sup> Bu yozuvni aynan kirish eshigida qayd etilishi sababi, har bir boshlanajak ish Bismillo bilan amalga oshirilsa xayrli bo'lishi va oldimizga qo'yilgan maqsadimiz amalga oshishi uchun Alloh madadkor bo'lishiga ishonch namunasidir.

O'ymakor eshik XX asr boshida qurilgan. Unda 1329/1911 yil sanasi yozib qo'yilgan. Asosiy kirish eshigi ikki dilagida Rasululloh (s. a. v.) ning hadislari bitilgan. Payg'ambar (s. a. v.): “Vaqti o'tmasdan oldin namozni o'qishga, o'lmasdan oldin tavba qilishga shoshiling”<sup>8</sup>, – deb aytdilar. Bu so'zlardan har bir kishi o'zi uchun xulosa chiqarsa asosli bo'lardi. Chunki namozga shama qilib to'g'ri amallarni bajarishni, tavbani esa ertagi o'zidan qanday nom qolishini eslatmoqda.

Asosiy darvozadan kirilgach, o'ng tomondagi hujra eshigi ustida qo'yilgan marmar lavhada Buxoroda mang'itlar sulolasi vakili Amir Ma'sum Shohmurod (1785 – 1800) nomidan Allohga iltijo sifatidagi munojot bitilgan. Uni “taxt ustidagi darvish” deb atashar edi. Arxiv fotosuratlariga qaraganda, mazkur marmar lavha XIX asr oxirlarigacha Xoja Ahmad ad-Daylamiy maqbarasi eshigi devorida turgan, so'ng esa bu yerga ko'chirilgan. Rus olimlarining ta'riflashicha, Shohi Zinda kirish peshtoqining o'ng tomonida so'fiylar uchun xonaqoh qurilgan edi. U chap tomondagi masjidga o'xshash “ko'sh” tarhda bino qilingan edi. Unda har

---

<sup>6</sup> Qusam ibn Abbosning qabrida hijriy 57/melodiy 676 yil bitilgan. Islom tarixi, sahobalar va tobeinlar tarjimai hollariga bag'ishlangan barcha tabaqot kitoblarida ham 57/676 yil zikr etilgan (Qarang: Az-Zahabiy. Siyaru a'lom an-nubalo. 3-jild. – B. 440; Ibn al-Asir. Usud ul-g'oba fi ma'rifat as-sahoba. 4-jild. – B. 392; Ibn al-Asir. Al-Kamil fit-ta'rix. – B. 644; Ibn Hajar al-Asqaloni. Al-Isoba fi tamyiz as-sahoba. 3-jild. – B. 245; Ibn Abdulbarr. Al-Isti'ob fi ma'rifat al-as'hob. 3-jild. – B. 1304; Ibn Sa'd. At-Tabaqot al-kubro. – B. 1337).

<sup>7</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 45-bet

<sup>8</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 47-bet

payshanba kuni zikr marosimi o'tkazib turilar ekan. Bu xonaqoh buzilib, o'rniga kichik hujralar qurilgan. Unda: "Alloh elchisi amakisining o'g'li eshigi (oldida) (Turgan) mendek zolim kishi bu dunyoda yo'q. Mendek xo'rlangan va har kuni sharman-daroq (Sen) karam (saxovat) borasida meni hidoyat yo'liga boshla. Senga yetish umidida yuzim qora bo'ldi, Jazo (qiyomat) kuni meni qahringdan asra. Agar fisqu zulmimni lutfing bilan yopsang Iloho, hashr (qiyomat) kuni fazlu karamingdan darig' tutma. Men bandangdurman, fisqu isyon qilurman, Qiyomatda fazlingdan judo qilma. Meni karaming bilan kiyintir, Jannatingdan menga joy ato ayla. Ismim – Amir Ma'sum, Shu ism (hurmati) samodan menga manzil ato et."<sup>9</sup> – deb so'zlar bitilgan. Tarixdan ma'lumki Samarqand yeti yil o'zaro urushlar va dasht bosqinchilari maydoniga aylanib qolgan edi. Bu urushlarga Amir Shohmurod chek qo'yib shaharni qayta tikladi. Tartib o'rnatgach o'z nomini qilgan ishlari va yuritgan adolatli siyosati asosida qoldirdi.

Peshtoqdan o'n ikki qirrali ajoyib gumbazi bo'lgan to'rt ravoqli chortoqqa o'tiladi. Chortoqning g'arbiy ravog'idan chap tomonda XV asrda qurilgan masjidga kiriladigan yo'l bor. Keyinchalik sharqiy ravoqqa tutashtirib, bir necha mulozimxona qurilgan. Mehrob yuqori qismining ikki tarafida suls xatida: – "Alloh ulug'ligi ulug' bo'lsin", "Muhammad, unga Allohning salavoti va salomi bo'lsin", – kalimalari bitilgan. Mehrob kitobasida nasta'liq xatida Kalimayi tayyiba (Allohdan boshqa iloh yo'q, Muhammad Allohning rasuli) bitilgan. 2005 yil.<sup>10</sup>

Mehrobning yuqori qismida kufiy xatida Qur'oni karimning "Ixlos" surasi bitilgan. (112; 1-4) (Ey, Muhammad!) ayting: "U Alloh – yagona. Alloh – Samad (ehtiyosiz, hojatbaror). U tug'magan va tug'ilmagan ham. Shuningdek, Uning hech bir tengi yo'q".

Qur'onning "Ixlos" surasi inshootning boshqa joylarida ham takror yozilgan. Misol uchun Amirzoda maqbarasi peshtoq yozuvida. Allohni ulug'lab aytilgan so'zlar Shohi Zinda majmuasining turli tomonlarda ham uchratamiz. Bu kalimalar islom mafkurasining asosiy tayanchi ham hisoblanadi.

---

<sup>9</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 50-bet

<sup>10</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 55-bet

Shohi Zinda majmuasi yo'lagining chap tomonidagi yozgi masjid ayvoni XIX asrning boshida qurilgan. Uni 1910 yili usta Siddiq, usta Abduzohid va usta Mahmud degan samarqandlik naqqoshlar bezatgan. Samarqandning an'anaviy nafis o'ymakor ganch naqshlari solingan devorlar XIX–XX asr xalq ustalari ijodining yuksak namunasi hisoblanadi.

Sharq tomondan ayvonga taqalgan peshtoqda kufiy va suls xatlarida tiklangan yozuvda Qur'oni karimdagi "Oli Imron" surasining 3:170-oyati bitilgan. Tepasida: "Allohnı poklab yod qilaman", "Allohga maqtovlar bo'lsin", "Alloh – buyuk", – kalimalari kufiy xatida takroriy tarzda yozilgan. "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman). (Qatl etilgan shahidlar) Alloh o'z fazli bilan ato etgan narsa (ne'matlar) dan xushnud, ortlarida (tirik) qolib, hali ularga qo'shilmagan (g'oziylar)ga (qiyomatda) xavf va tashvish bo'lmasligi haqida bashorat bergan hollarida (yashaydilar)."<sup>11</sup> Ushbu yozuvda islom haq din ekanligi va unga ergashishga da'vat etilgan.

Ayvonning shiftida nasta'liq xatida baxshida she'rlar bitilgan. "Allohdan boshqa Iloh yo'q va Muhammad – Allohning elchisi. Bahor faslida oliy masjid qurildi, U shiori fazilat bo'lgan ibodatchilarning ibodatxonasi, Payg'ambar (s. a. v.) amakivachchasining ravzayi poki, Jannat fayzlaridan bir nishona. Yo Alloh, O'zingning rahmatingdan Ushbu binoni qurganlarni darig' tutma. O'z lutfing ila farovon qil, Gunohlarimizni kechir, ey G'affor (Kechiruvchi)! Garchi biz sharmanda bandalar bo'lsak ham, Ertayu kech gunohlarga botgan bo'lsak ham, Lekin karamingdan umidvormiz, Sening lutfing – barchaga, Sening afving – bisyor. Tanimizga taqvo libosini tikib, Ayblarimizni yop, ey Sattor (ayblarni yopguvchi). Oxirda aql zorlanib: "Noumid qilma, ey G'affor"<sup>12</sup>, – deydi. Usto Siddiq naqqoshning amali. 1328/1910-1911 yil."<sup>13</sup> Har bir mo'min ibodatga kelib qilgan yoki qilinajak gunohlarini eslab tavgaga bosh qo'yadi. Xalq orasida boy yoki kambag'al bo'lsang ham mozorga boq mazmunida maqol mavjud. Bu so'zlarga chuqur mazmun mavjud. Chunki insoniyat qay holatda yashamasin borar

---

<sup>11</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 65-bet

<sup>12</sup> Abjad hisobida bu so'zlardan 1328 raqami, ya'ni qurilish sanasi, kelib chiqadi.

<sup>13</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 71-bet

joyi bir, lekin unga bu joy qay holatda nasib etishi faqat yaratganga ayon. Shuning uchun tavba qilib to'g'ri amallarda yashash kerak. Musibatlardan qutilishning yagona yo'li nafs balosidan xalos bo'lish va gunohga botmaslik shartidir.

Shohi Zindadagi ikki gumbazli maqbara ayvonli masjid shimoliy tomonida Afrosiyob qal'asining devor etagidan boshlanib qurilgan ulkan zina yonida. Ba'zi olimlarning taxminiga ko'ra, Mirzo Ulug'bekning ustози va safdoshi, taniqli munajjim Qozizoda Rumiylar mozori ustiga XV asrda qurilgan. Mahalliy aholi o'rtasida tarqalgan rivoyatlarga ko'ra, bu yerda Amir Temurni o'z suti bilan boqqan enagasi O'ljaxotun va uning qizi Bibi Senab dafn etilgan. Maqbara ikki xonadan, ya'ni ziyoratxona va go'rxonadan iborat. Unga janub tomondagi peshtoqdan kirilgan. Ziyoratxona binosining devorlari –ravoqli. Ular baland gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz toqi darchalaridan yorug' tushib turadigan devorlarda oq fonga ishlangan ko'k rangli naqshlar qisman saqlanib qolgan. Sirli bezaklar bilan yo'l-yo'l qilib ishlangan olti qirrali sopol plitalardan iborat panellar qadimgi qoldiqlarga qarab ta'mirlandi. Ziyoratxona bilan bir qatorda bo'lgan kichkina go'rxona ichida sag'ana mavjud. Go'rxonaning g'oyat baland gumbazi murakkab naqshli muqarnaslar bilan bezatilgan. Bu maqbara shakli va bezalishi jihatidan Shohi Zindaning kichik shinam maqbaralaridangina emas, balki boshqa mashhur me'moriy yodgorliklaridan ham alohida ajralib turadi. Bu maqbara Samarqandda Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasining ulug'vor gumbazlari qad ko'targanidan keyin qurilgan. Lekin bu inshootlarning hech birida Qozizoda Rumiylar maqbarasidagidek baland gumbaz yo'q. Bu yodgorlik tepalikning yon bag'rida qad rostlagan. Biroq u shunday tarh bilan bunyod etilganki, ziyoratxonaning yuksak gumbazi shahar devorining eng baland yeridagi maqbaralar gumbazlari bilan bir chiziqda turadi.

V. A. Shishkin arxiv fotosuratiga tayanib, o'z maqolasida o'sha davrda qisman saqlangan arab tilida bitilgan tarixiy yozuvni keltiradi. Yozuv hozirgacha saqlanmagan janubiy peshtoqning ravog'ida temuriylar davriga xos bo'lgan suls

xatida bitilgan edi. "... Shariat va imon himoyachisi, sultonning peshqadami<sup>14</sup> ... Haqiqiy ... do'st ..." <sup>15</sup> Ushbu bitikdan xulosa shuki bu joyda huquqiy tartiblar himoyachisi, maslahat bobida ulug' inson ko'milgan.

Kirish peshtoqining kitobasida suls xatida Qur'oni karimdagi "Isro" surasining 17:23-oyati bitilgan. Tepasida— "Allohni poklab yod qilaman", "Allohga maqtoqlar bo'lsin", "Alloh – buyuk", –kalimalari bitilgan. Kitoba 2004 yili yozilgan. "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman). Rabbingiz, Uning O'zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik ko'rsatishni amr etdi. (Ey, inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsa, ularga: "uf!..." –dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so'z ayt! Buyuk Alloh rost so'zladi."<sup>16</sup> Qur'oni karimda ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-onalar kiritiladi va ota-ona haqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23—24-oyatlarida ota-onaga yaxshilik Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-ona qanday bo'lishidan qafi nazar, farzand ularga nisbatan hurmat saqlashi, ularning so'zlarini qay-tarmasligi, ota-ona bolani dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, ularning haqqini ado etishga doimo tayyor turishi lozimligi ta'kidlanadi. Mazkur oyatlarda eng oliy insoniy muomala qoidalari sifatida quyidagilar belgilangan:

— ota-onaga ehtirom bajo keltirish; ota-onaga rahm-shafqat qilish; ularning haqiga duo qilish. Hadislarda ham Til bilan xizmatda bo'lish bobida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Ota-onangiz bilan so'zlashganda yumshoqlik va odob bilan gaplashing.
2. So'zlashgan paytda ovozni baland ko'tarmang.
3. Ota-ona huzurida zaruriyatdan ortiqcha gaplarni gapirmang.
4. Gaplashayotganda so'zlarni bo'lib tashlab yoki so'z qistirib ketmang.
5. Ularni so'zlarini also rad qilmang.

---

<sup>14</sup> V. A. Shishkin قدام – kalimasini "oldingi sulton" deb tarjima qiladi va shunga asoslanib, bu maqbara Qozizoda Rumiya tegishli, degan M.Massonning xulosasini tasdiqlaydi (maqolaning 13-beti). Ammo, nazarimizda, bu dalil mazkur fikrni tasdiqlash uchun yetarli emas.

<sup>15</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 81-bet

<sup>16</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 83-bet

6. Ular bilan buyruq yoki ta'na ohangida gaplashmang.
7. Ota-onaga qahr ohangida gapirib, norozi qilmang.
8. Tanbeh bilan gapirmang.

Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafat – ul qulub" ("Qalblar kashfiyoti" I kitobidan) kitobida "Ota – onaga yaxshilik va farzandlik burchi" bobida quyidagi rivoyat keltirilgan: Qarindoshlar orasida eng yaqini ota – ona va farzandlar bo'lganligi uchun boshqa qon – qarindoshlarga nisbatan bularning haqlari va burchlariga oid fikrlar ko'proqdir.

Rasululoh            sallallohu            alayhi            vasallam            buyuradilar:

- Farzand otasining qarzini hech qanaqsiga uzolmaydi. Faqat uni qullikga tushgan holda topsa va sotib olib ozod qilsagina uning haqqini uzgan bo'ladi.
- Ota – onaga ehson bermoq va izzat ikrom qilmoq, namoz o'qish, zakot berish, ro'za tutish, hajga – umraga borish va Alloh yo'lida jihod qilishdan fazilatliroqdir.
- Kimki, ota – onasini ma'mnun etgan holda erta bilan o'rnidan tursa, ularga jannatning ikki eshigi ochiladi. Kimki, ota – onasini ma'mnun qilgan holda shomga kirsa ham shunday bo'ladi. Agar birini ma'mnun etsa jannatning bir eshigi ochiladi. Aslo ota – onaga qarshi bormang – zulm o'tkazgan bo'lsalar ham, o'tkazmagan bo'lsalar ham...Kimki ota – onasini ranjitgan holda tong ottirsa, uning uchun jahannamning ikki eshigi ochiladi. Kimki ota – onasini ranjitgan holda kunni kech qilsa ham shunday bo'ladi. Agar birini ranjitsa, do'zaxning bir eshigi ochiladi. Aslo ularga qarshi bormang – zulm o'tkazgan bo'lsalar ham, o'tkazmagan bo'lsalar ham...

- Jannatning hidi besh yuz yillik masofadan seziladi. ota – onasini ranjitgan va silai rahm qilmagan (ya'ni bir – birlari bilan qarindoshchilik aloqlarini uzgan) kimsa uning hidini sezmaydi.
- Onangga, otangga, opangga, singlingga, akangga, ukangga, so'ngra boshqa yaqin qarindoshlaringning hammasiga yaxshilik qil.-deyilgan. Bu rivoyat asosida peshtoqdagi nidoning qanchalik mazmuni keng ekanligini tushuntirishda bir debocha desak bo'lsa kerak.

Peshtoq ichki ravog'ida musamman (sakkizburchak) ichida محمد يا – “Ey Muhammad”, – deb yozilgan. Peshtoqning ikki yon tomonida to'rtburchak ichida kufiy banno'iy xatida هلا – “Alloh” lafzi bitilgan. Peshtoq ravog'ining tepa qismida to'rtburchak ichida kufiy banno'iy xatida محمد – “Muhammad” ismi bitilgan.

Birinchi gumbaz toqining tepa qismida kufiy banno'iy xatida hadis bitilgan. Tepasida – هل الملك “Mulk<sup>17</sup> – Allohnik”, – kalimasi takroriy tarzda keltirilgan.<sup>18</sup> Darhaqiqat har qancha inson tomonidan boylik yig'ilmasin, u ortda qolib ketadi. Bu bilan men uni yig'ganga nasib etishi yoki yo'qligini nazarga tutmoqdaman. Qilgan qilmishiga yarasha bu mulk unga baxt yoki musibat keltiradi.

Shu yozuvning pastida yirik kufiy banno'iy xatida hadis bitilgan. “Payg'ambar alayhissalotu vassalom: “Albatta, qabr – oxirat manzillarining avvalgisi<sup>19</sup>, dunyo manzillarining yaxshisi”<sup>20</sup>, – dedilar. Ikkinchi gumbazning atrofida yirik kufiy banno'iy xatida Allohning go'zal ismlaridan biri حي يا – “Ey, tirik zot”, – kalimasi simmetriya qoidasiga rioya qilgan holda mohirona san'at bilan takroriy tarzda bitilgan.

Xulosa qilib quyi guruhdagi inshootlar peshtoq yozuvlarida insoniyatni bu o'tkinchi dunyoda Alloh bergan risqidan shukrona qilib, tavba qilishga chorlagan. Farzandlarga o'z ota-onalariga hurmat bajo keltirishga da'vat qilinib oxiratdan ogoh etilgan. Ko'plab yozuvlarda “Mulk” surasi keltirilishidan bu olamda nafs balosidan asranishga, boylikga hirs qo'ymaslikga da'vat etilgan. Qabrni oxirat manzilining avvalgisi deb, har bir tirik kishini oxirat azobidan asranishga chorlangan.

---

<sup>17</sup> Arab tilida “mulk” so'zining “boylik”, “bisot” degan ma'nolari bilan birga, “davlat”, “mamlakat”, “hokimiyat” degan ma'nolari ham bor. Bu jumla qayerda uchrasa, uni shunday keng ma'nolarda tushunish kerak. keyingisi – undan ko'ra shiddatli”, – deb yakunlangan. Bu hadis barcha hadis to'plamlarida ana shunday to'la holda zikr etilgan.

<sup>18</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012 92-bet

<sup>19</sup> Mazkur hadis Termiziyning “Sunani Termiziy” kitobida keltirilgan. Usmon raziyallohu anhunging quli Honi'dan rivoyat qilingan.

<sup>20</sup> Gumbazda hadisning davomi sifatida bitilgan: “dunyo manzillarining yaxshisi”, – degan so'zlar hadis to'plamlarining birortasida keltirilmagan. Chamasi, matnga buni xattot qo'shgan. Aslida hadis: “Undan najot topsa, undan keyingilari – undan oson, agar undan najot topmasa, undan keyingisi – undan ko'ra shiddatli”, – deb yakunlangan. Bu hadis barcha hadis to'plamlarida ana shunday to'la holda zikr etilgan.



## **1.2. SHOHI ZINDA ME'MORIY MAJMUASI TEMURIYLAR HAMDA YUQORI QISM OBIDALARI YOZUVLARI**

Temuriylar davriga oid yodgorliklar sirasiga Shohi Zinda ansambli O'rta guruhdagi binolar:

1. Amirzoda maqbarasi (XIV asr); 2. Tug'lu Tekin maqbarasi (XIV asr); 3. Shodi mulk (Uljay) oqo maqbarasi; 4. Shirinbeka oqo maqbarasi; 5. Usta Ali Nasafiy qurgan maqbara (XIV asr) lari kiradi.

Shohi Zinda ansambilidagi Amirzoda maqbarasi (XIV asr) Tug'lu Tekin maqbarasining ro'parasida joylashgan. U maqbaralarning o'rta majmuasini boshlab beradi. Bu maqbarada dafn etilgan shaxsning asl ismi ma'lum emas. Binoning peshtoqida faqat: -Ushbu binosi baland, qo'rg'oni mustahkam imoratni barpo qilishga ulug' va muhtaram amir ko'rsatma berdi. ... hijriy 788/1386 yilning Alloh muborak etgan shavvol oyi (2 – 30 noyabr).” -vafot etgani qayd qilingan. Peshtoq ravoqlarida ko'k fonda oq harflar bilan tarixiy matnlar bitilgan. Ammo ularning bir qismigina chap ustunning pastida saqlanib qolgan.

Shu yozuvning tepasida هـلـ لـمـكـا – “Mulk – Allohniki”, – kalimasi kufiy xatida takroriy tarzda keltirilgan. Harflar sariq rangda aks ettirilgan. Ko'rinib turganidek barch peshtoq yozuvlarning faqat tepa qismida Alloh nomi tilga olingan. Bu yerda yuqorida tilga olganimizdek nafaqat mulk balki, hokimiyat, mol-davlat nazarga tutilmoqda.

Peshtoqning pastki qismida ikkita o'ziga xos kitoba mavjud. Katta xat bilan yozilgan bitik taglarida to'rtburchak kitoba ichiga nasxi suls xatida och yashil fonda oq harflar bilan Qur'oni karimdagi “G'ofir” surasining 16-oyati bitilgan. Bunda Qur'oni karimdagi “Baqara” surasining 137-oyati keltirilgan. Ikkala yozuv peshtoq ustunlarining pastki qismlarida takrorlanadi. “Bugun podshohlik kimniki?” (deb so'rab, O'zi aytur:) “Vohid (yagona) va Qahhor (g'olib) Allohniki”. Sizni ulardan (himoya etishga) Allohning o'zi kifoya qilur. U Eshituvchi va Dono (zot).<sup>21</sup> Bu matnlarda insoniyatni tartibga va ogohlikga da'vat etmoqda. Chunki

---

<sup>21</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 107-bet.

hokimiyat uchun qancha hirs solsang ham u sendan ham qoladi deb ogohlantirilmoqda.

Shohi Zinda me'moriy majmuasining yo'lagidagi chortoqning sharq tomonida bu yerdagi inshootlarning o'rta guruhiga oid Tug'lu Tekin maqbarasi mavjud. Bu yerda Amir Temur sarkardalaridan biri Amir Husaynning onasi Tug'lu Tekin dafn etilgan.

V. A. Shishkin maqolasi asosida peshtoqdagi yozuv bino 1376 (hijriy 777) yili qurilganligi tiklangan. Unda: "Uning uyi, Amir Xojamning qizi Tug'lu Tekin. U (Tug'lu Tekin)ning o'g'li va ko'zining qorachig'i, saodatli shahid Amir Husayn ibn Qaroqutlug'. Alloh uning jannatdagi joyini (Kavsar) suvidan serob aylasin. U (Amir Husayn) yetti yuz yetmish yettinchi yilning zulqa'da (1376 yil, mart-aprel) oyida shahid bo'ldi."<sup>22</sup> Bu yozuv nafaqat bu yerda dafn etilgan kishi haqida, balkim shu davrda bo'lib o'tgan tarixiy voqeadan ham darak bermoqda. Shahid (arab. — guvoh) — 1) islomda din yo'lida halok bo'lgan shaxs. Hadislarda aytilishicha, o'z obro'si yo mol-mulki yoki joni yoxud dini, shuningdek, axdu oilasining himoyasi yo'lida qurbon bo'lganlar ham shahiddir. Boshqa bir hadisda vabodan, ichki xastalik bilan, g'arq bo'lib, tom bosib o'lganlarni shahid hukmida o'lganlar deyiladi. Shahidlar dafn etilishidan oldin yuvilmaydi. O'zini o'zi portlatish, o'ziga o'zi o't qo'yish, o'zini o'zi boshqa usullarda o'ldirish shahid hukmida bo'lmaydi. Qur'onda «o'zlaringizni (bir-biringizni) o'ldirmang!» (Niso surasi, 29-oyat) deb, o'zini o'zi o'ldirish shariatda yo'q ekanligi bildirilgan. Shu bilan birga Vatan urushi uchun yoki haqqoniyat yo'lida qurbon bo'lgan, jonini fido qilgan odam ham shahid hisoblanadi.

Yozuvning oxirida kitoba ichida hadis bitilgan: "Dunyo – oxirat ko'prigi". Ya'ni bu yerda qilgan qilmishga qarab insoniyatning hisobi olinishiga sha'ma bo'lsa kerak.

Maqbara ravoqining ichida fors-tojik tilida Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sidan: "Garchi ulug'ligim osmon qadar bo'lsa ham, Baribir, o'lim sharbatini totishdan boshqa iloj yo'q. Garchi umr ming ikki yuz yil bo'lsa ham,

---

<sup>22</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 121-bet.

Qora tuproqqa bosh qo'yishdan o'zga chora yo'q. O'sha do'stsiz va kimsasiz qorong'u qabrda Faqatgina Sening rahmatingdan umid qilaman".<sup>23</sup> –deb matn keltirilgan.

Ravoqning ikki ustuni tepasida kufiy xatida هـلـ الملك – “Mulk –Allohniki”, – kalimasi bitilgan. Peshtoqning pastki qismi o'ng va chap tomonlarida g'ubor xatida hadis parchasi bitilgan. “Dunyo – o'tkinchi makon<sup>24</sup>.” Shningdek Ichki ravoqning ikki yon tomoniga g'ubor xatida ham shunga o'xshash hadisning yana bir parchasi bitilgan. “Dunyo – bir soat” Bu so'zlar turli xalqlarda turlicha maqol bo'lib shakllangan. Misol, lotinlar erta-erta deb umr o'tadi deb ta'kidlaganlar. Darhaqiqat insoniyat qanchalik intilmasin bu yorug' olamda barcha maqsadlariga erisholmagandey bir zumda vaqtning o'tganini sezmay qoladi. Yuqorida tilga olingan g'oyaviy qarashlarda o'tkinchi zamon va makonda aniq maqsad qo'yib intilmoq zarurligi, nafs balosidan tiyilish darkorligiga da'vat etilmoqda.

Shohi Zinda ansambli Shodi Mulk Oqo maqbarasi 1371 – 1372 yili qurilgan. Bu maqbara Shohi Zindadagina emas, balki butun Samarqandda Temur zamonida shu tipda qurilgan birinchi inshoot hisoblanadi. Maqbara peshtoqining ikki yonida g'ubor xatida (devoniy uslubdan foydalangan holda) katta harflar bilan yozilgan arab tilidagi tarixiy bitik mavjud. Undan bir qismgina saqlanib qolgan. Yozuv o'yma naqsh usulida ishlangan, harflari oq havorang fonda bitilgan.

Peshtoqning arksimon eshiklarini hoshiyalovchi bitiklar belbog'i ostida to'g'ri burchakli parchin lavhalarda hadis keltirilgan. Unda: “Payg'ambar alayhissalom: “O'lim – mo'min uchun rohat”, – dedilar. Payg'ambar alayhissalom: “O'lim – mo'minga tuhfa, g'animat”, – dedilar.<sup>25</sup> Bu Hadis matnini peshtoqda aks ettirishda yana ortida qolib o'lgan kishiga achinib yig'layotgan onasining dil so'zlarini ifodalangani ajab emas. O'lim insonga xohlagan vaqtda kelishi mumkinligi, bu dunyo esa g'animat, o'tkinchi ekanligi qayg'u bilan aytilmoqda.

---

<sup>23</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 129-bet.

<sup>24</sup> Hadisning davomi بقاء دار والاخرة , ya'ni “Oxirat – abadiy makon”. Biroq ushbu hadis Hazrat Aliga ham nisbat beriladi. Qarang: Ali ibn Abu Tolib. Nahj ul-balog'a. 11-xutba

<sup>25</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 155-bet.

Peshtoqning bosh ravoqi atrofidagi yozuvning pastgi qismida to'rtburchak kitobalarda g'ubor xatida hadis bitilgan. "Payg'ambar alayhissalom: "Dunyo – o'tkinchi makon", – dedilar."<sup>26</sup> Yuqorida bu hadisni Tug'lu Tekin maqbarasida ham bitilgani ta'kidlangan edi.

Muqarnaslar orasida ustalarning: "Ustod Shamsiddin... ning amali; Ustod Birruddinning amali" . O'ng tarafdagi ustunpoyaning ostida yana bir ustaning ismi bitilgan-"Zayniddin Shamsi Tabriz faxxor (sopolchi, kulol) amali."<sup>27</sup>- nomlari bitilgan.

Shodi Mulk Oqo maqbarasining ro'parasida Temurning singlisi Shirinbeka Oqo maqbarasi joylashgan. Peshtoq ravog'i ichidagi yozuvda uning vafot etgan yili (787/ 1385 – 1386) ko'rsatilgan. Shirinbeka Oqo maqbarasi – Shohi Zindada birinchi marta o'yma koshin ishlatilgan inshoot. Maqbaraning boshqa fasadlariga g'isht terilganicha qolgan. Ularning fonida maqbaraning koshinkor gumbazi va uning o'n olti qirrali asosi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Shirinbeka Oqo maqbarasida suls xatida faylasuf Suqrotning hikmati va to'rtinchi xalifayi roshid Hazrat Ali (k. v.)ning "g'amlarni ketkazuvchi" duolari bitilgan. Matnning aksariyat qismi yemrilgan, uning o'rniga 2004 – 2006 yillar amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari chog'ida tarixiy asossiz yangi matn bitilgan (xattot – buxorolik Abdulhakim Razzoqov). Bu matn ko'zga tashlanib turadi, biroq asl matndan ancha farqlari mavjud. Asl matn suls xatining lo'nda (sarohat) uslubida, oq harflar qora fonda bitilgan bo'lsa, yangisi ochiq havorang fonda ishlangan. Xat bitishda esa eski asl matn uslubidan chekinishga yo'l qo'yilgan. Bundan tashqari, ta'mirchilar eski naqsh va matn ranglariga rioya qilishmagan. Oxirgi ta'mirlash jarayonida yozilgan qismlari to'rtburchak qavslarga [...] olinib berilgan.

Arab tilidagi asl matn ishoralarida Suqrot nomidan e'lon qilingan hikmatlar islom dini tarqalgandan oldin aytilgani va Payg'ambar (s. a. v.)ning to'rtinchi xalifasi hazrat Ali bu hikmatli gaplarni islom g'oyalariga moslashtirgani ta'kidlangan: Suqrot dedi: "Insonning bu dunyodagi hayoti go'yoki o'z uyasida

---

<sup>26</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 159-bet.

<sup>27</sup> Ko'rsatilgan adaboyot. 189-191 betlar.

ko'payib, [undan uchib chiqqan va qopqonga qo'yilgan achchiq bir xo'rak atrofida aylangan qush ga o'xshaydi]. Oqil inson bu qabih yo'ldan yurmaydi, ammo nodon esa g'ururlanib, bu yo'lga kiradi va oxir-oqibat kamon o'qiga duchor bo'ladi. Ba'zi hukamolarning aytishiga ko'ra: ..."[Alloh taoloning qanchadan-qancha pinhona hadyalari borki, ularni anglab olish donolarga ham mushkul. Qanchadan-qancha yengilliklar borki, og'irliklar ortidan kelib, jarohat yetgan qalbga malham bo'ladi. Tongda yoqimsiz tuyulgan qancha narsa borki, kechga borib mamnun qiladi. Ahvoling tang bo'lgan kun mushkulingni faqat yolg'iz oliy Zotga topshir". Ali, Alloh undan rozi bo'lsin, aytadiki: "Sizlarga o'limni ko'p eslashni va undan ozgina bo'lsa-da, g'aflatda qolmaslikni vasiyat qilaman. Sizlarni hech qachon unutmaydigan Zotdan yuz o'girib, o'zga bir ma'budni orzu qilasizlar. O'lim – sizlar uchun yetarli nasihat. Qabrlariga ulovsiz (tobut bilan) olib borilgan va istamagan joyi(qabr)ga tushirilgan kimsalarni ko'rib, ibrat olmadingizlarmi? Ular bu dunyoda go'yoki o'zlari yashamagandek xis qildi, ammo oxirat esa – qo'nim topadigan abadiy manzil. Ular yashayotgan joylarida begonaga] va begona joyda muqimga aylandi. Endi ular bu foniyl dunyoda yuz o'girgan narsaga u dunyoda zor bo'ldi". Alloh undan rozi bo'lsin, to'g'ri gapni aytgan."<sup>28</sup>

Shirinbeka Oqo maqbarasi peshtoqning ichki perimetridagi matnining aksariyat qismi 2005 yil ta'mirlash jarayonida yangidan yozilgan. Biroq, Suqrot gaplarining davomi o'rniga hadislardan namunalar bitilgan. "Suqrot: "Inson dunyoda o'zining barcha holatlarida ham azoblanuvchi va u dunyo orqali ega bo'lgan narsalari ustida abadiy qolmaydi. Qalbing – o'zi topgan narsalar bilan mashg'ul ...", – dedi. "[Kim ota-onasini hurmat qilib, ularning qabrini ziyorat etsa, Alloh uning barcha gunohlarini kechiradi. Kim, ularning ikkisiga rahm qil, desa, Parvardigor huzurida ularga itoat qilganning darajasida bo'ladi. "O'lim quvib kelayotgan bo'lishiga qaramay, dunyo talabida bo'lgan kimsadan hayratlandim"<sup>29</sup>. (Bu matndan insoniyat o'z ehtiyojini jilovlay olishi zarurligi o'qtirib, mol

---

<sup>28</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 206-bet.

<sup>29</sup> Abu Dardo(r. a.)ga ham nisbat beriladi. U shunday deb aytadi: "Uch toifa kishilardan ajablandim: manzili qabr bo'la turib, qasr qurgan kimsaga; Allohdan g'aflatda yurgan kimsaga, vaholonki, U undan g'ofil emas; og'zini to'ldirib kuladigan kimsaga. Bilmaydiki, Alloh undan rozimi yoki unga darg'azabmi". (Qarang: Ibn Adiy al-Jurjoniyl. Zaif roviylar haqida mukammal kitob. 2797 hadis. Z-jild. 76-bet.)

vasvasasida tushib qolmasin.) Manzili qabr bo'la turib, qasr qurgan kimsaga hayronman<sup>30</sup>". (Inson vafotidan so'ng ayrim kishilar qabr ustida turli-tuman tosh va himoya to'siqlari bino qiladilar. Bu an'ana islom an'analari noto'g'ri ekanligiga da'vatdir.) "Qabr – har bir kishi kiradigan eshik".(Bu joyda oxiratidan hech kim qocholmasligi o'qtirilmoqda.) "Ey, dunyo bilan mashg'ul kishi, uzun orzularga aldanib, dunyoga mashg'ul bo'lma". (Bu joyda mol-mulk talvasasiga tushgan insonga, nafsini tiyishiga sha'ma qilinmoqda.) "Ey dunyoda halovat topib, o'lim sabab uni tark etganda yomon amali uchun xor bo'lgan va ey qilgan solih amallari uchun o'lim bilan xursand bo'lgan..."]<sup>31</sup> (Bu joyda barcha bandalarga murojaat o'z aksani topgan. Yuqoridagi o'gitlarda kishilarga bu dunyoning o'tginchiligiga iqror bo'lib, faqat to'g'ri amallarda bo'lishliklari da'vat etilmoqda. Biz insonlardan bu dunyoda faqat qilgan yaxshi ishimiz va unga munosib nomimiz abadiy qoladi.)

Peshtoqning katta ravog'i kitobasining kamarida koshinburush uslubida tarix bitilgan. Matn – arab tilidagi harflari – sariq, ortidagi islimiy naqsh zangori va feruzarang. Xati – nasxi-sulsda yozilgan bo'lib, diakritik belgi (zeru zabar)lari doimiy ravishda qo'yilgan. Matn o'n tomondagi yon devordan boshlanib, chap tomondagi yon devorda yakunlanadi. Matn qismlari "slesh"/( )lar bilan o'lingan. "Bu – buyuk va ulug' malika Tarag'ayning<sup>32</sup> qizi Shirinbeka Oqoning maqbarasi. Alloh uning ruhini munavvar qilsin! 787/1385-1386 yil."<sup>33</sup>

2005 yili maqbara ichida gumbaz aylanasi bo'ylab va devorlarida Qur'oni karimning "Fath" surasi to'laligicha yozilgan. Eskiz muallifi va bajaruvchi – "Umar" (Abdualil Ergashev). "Fath" arabchadan ochish ma'nosida ishlatilgan. Maqbarada bu surani keltilib o'tilishiga sabab, menimcha bu olamdan

<sup>30</sup> Bu hadis – sanad jihatidan juda zaif va g'arib. Lekin bu ibratomuz hikmat. Bu, aslida, Ali ibn Abu Tolib aytgan hikmat. Qarang: Ibn al-Kasir. Al-Bidaya va-n-nihaya. 2-jild. Iso(a. s.)ning dengizga yo'nalishi zikri.

<sup>31</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 211-bet.

<sup>32</sup> Tarag'oy, Amir Tarag'oy, Tarag'oybek (? – 1360) – Amir Temurning otasi, barlos qabilasi oqsoqollari va Chig'atoy ulusiniig nufuzli beklaridan biri bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Tarag'oy beklar xonadoniga mansub bo'lsada, otasi Amir Bargul kabi harbiy ishga mayli bo'lmagan. U ko'p vaqtini darveshlar bilan o'tkazgan. Shamsuddin Kulol(Kulor)ni o'ziga pir tutgan. Tarag'oy Kesh(Shahrisabz)dagi oilaviy xilxonaga dafn etilgan. Sohibqiron keyinchalik jome masjid yaqinida, shayx Shamsuddin Kulol maqbarasi yonida yangi maqbara qurdirib, otasining xokini o'sha yerga ko'chirgan.

<sup>33</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 213-bet.

o'tganlarning gunohini Alloh kechirishini va u dunyoda oxirati xayrli bo'lishini ko'zlangandir.

Shohi Zindadagi o'rta qism maqbaralari qatorining g'arb tomondagi inshoot, shartli ravishda, "Usta Ali maqbarasi" deb ataladi. Ammo unda dafn etilgan shaxsning ismi – noma'lum. "Ali" esa –uni qurgan ustalardan birining nomi. Uni ko'pincha "Guldor maqbara" deb ham atashadi, chunki tashqi va bosh fasadlari, ichki devorlari rang-barang sirli koshinlar bilan bezatilgan.

Peshtoqning shohustunlari va toqchalari, shuningdek, ichida arab tilidagi matnga ega parchinlar bilan bezatilgan. Unda: "Sabrdan ustunroq tinchlik, Allohga yaqinlikdan boshqa yaqinlik, kechirimli bo'lishdan go'zalroq xulq, vafodan ortiqroq do'stlik yo'q."<sup>34</sup> Bu matnga nazar tashlasak chuqur falsafiy mazmuniga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Besabr inson doimo "qovun tushiradi", insonlarning xatosini gina sifatida saqlab yurish faqat kishining o'ziga ruhan ziyon keltirishi psixologlar tomonidan isbotlangan. Inson birovga bergan va'dasini bajarib, xiyonatga o'tmasa chin insoniyligini ko'rsata oladi.

Peshtoqning qolgan sakkiz qirrali parchinlari ichida (shohustunlarning quyi qismida, toqcha burchaklari bo'ylab va markazida) matn yozilgan doirachalar mavjud. Unda: "Alloh – Undan o'zga Iloh yo'q. (U) hamisha Barhayot va abadiy Turuvchidir. Uni na mudroq tutar va na uyqu. Osmonlar va Yerdagi (barcha) narsalar Unikidir. (Qiyomat kuni) Uning huzurida kim ham (gunohkorlarni) Uning ruxsatisiz shafolat qila olardi?! (U) ulardan (odamlardan) oldingi va keyingi narsalarni bilur. (Odamlar) Uning ilmidan faqat (U) istagan miqdoricha o'zlashtirurlar. Uning Kursiysi osmonlar va Yerni (ham) o'z ichiga sig'dira olur. U ikkisini muhofaza etish Uni toliqtirmas. U Oliy va Buyukdir"<sup>35</sup>.

Peshtoq ko'ngiralarining pastki qismlarida ustalarning ismlari: Usta Olim Nasafiyning amali. Ustod Ali Tukiko'p<sup>36</sup> amali-deb bitilgan.

---

<sup>34</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 271-bet

<sup>35</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 276-bet

<sup>36</sup> Ya'ni "Tukli inson". Bu yozuv ilk bor B. Babadjanov tomonidan to'la o'qilib, chop etilgan (Babadjanov. Архитектурные памятники, 14-bet.)

Kirish eshigi tepasida to'g'ri burchakli parchinda ham turli uslublarda yozilgan bitiklar mavjud. Parchin markazida Qur'oni karimdan olingan parcha ("Oli Imron" surasi, 3:19-oyat) oq rangdagi kufiy husnixatida harflar bilan bitilgan.

Sakkiz qirrali va kichik doiralar ichida kufiy xatida محمد – "Muhammad" va علي – "Ali" ismlari takroriy tarzda bitilgan.

Shohi Zinda majmuasining **Yuqori guruhdagi** binolariga: Ziyoratxona, uch qismdan iborat masjid, Xoja Ahmad maqbarasi, 1360-1361 ylarda qurilgan maqbara, Tuman og'o majmuasi (1405-1406), 2 ta nomsiz maqbara (14-asr oxiri) ning kiraverish devori kiradi. Shuningdek, Tamg'och Bug'roxon madrasasi (11-asr), Amir Burundiq maqbarasi (14-asr oxiri) kabilar ham Yuqori guruhdagi binolar qatoridan o'rin olgan. Ansambl tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. 19-20-asrlarda ansamblning yana bir necha binolari barpo etilgan. 18-asrda vayron bo'lgan zina o'rnida 40 pog'onali g'ishtin yangi zina qurilgan.

O'rta yo'lakdan shimol tarafga qarab ketaverishda chap tomonda, Usta Ali Nasafiy maqbarasining narirog'ida yana bir maqbaraning faqat peshtoqi saqlanib qolgan. Maqbaraning hozir mavjud yozuvlarida bu binoni qurgan ustaning va unga dafn qilingan shaxsning nomi bitilgan parchalar yo'q. Shu sababli u "Noma'lum shaxs maqbarasi" deb ataladi. Maqbara peshtoqining ichki perimetridagi aksariyat bitiklar o'chib ketgan. Faqatgina ikki yon tomonidagi eski yozuvlarning bir qismigina saqlanib qolgan. Tepasida oq harflar bilan kufiy xatida: الله الملك – "Mulk – Allohnik", – kalimasi takroriy tarzda keltirilgan. Shu yozuvning pastki qismida nasx xatida ko'k rangli katta harflar bilan fors-tojik tilidagi she'riy parcha bitilgan. O'ng tomondagi yozuv parchasi ancha jarohatlangani sababli o'qib bo'lmagan. Chap tarafdagi she'rning bir qismi saqlangan. O'ng tarafdagi yozuvda: "...Yana bir bor tuproq. Mehnat xalq uchun va xalq tuproq uchun..."<sup>37</sup> Bu iboradan bobomiz Bahovuddin Naqshbandning "Qalbing Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin"-degan o'git bilan aoslasak yanada aniqroq bo'ladi.

---

<sup>37</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 315 bat



Kirish eshigining ustida Hazrat Alining o'lim to'g'risidagi hikmati bitilgan. Bu matn 2005 yili quyidagi xat bitilgan: "O'lim to'satdan keladi. Qabr esa – amallar sandig'i"<sup>38</sup>. Bobolarimizning "och bo'lsang bozorga bor, boy bo'lsang mozorga"-degan hikmatlarida axloqiy tarbiya debochasi mavjud. Qilmish-qidirmish deganidek, vafot etgan kishi uchun u dunyoga o'tish uchun qabri boshlang'ich eshik vazifasini o'taydi.

Shohi Zinda majmuasidagi Tuman Oqo maqbarasi hozirgi paytda masjidning asosiy binosi bilan tutashgan, maqbaradan masjid zaliga kiradigan eshik va old (sharqiy) qismida nafis naqshlar bilan bezatilgan peshtoq o'rnatilgan. Maqbara devorida, muqarnaslarda va gumbazning o'zida ham yashil, qora rang va zarhal berib ishlangan nafis naqsh saqlangan. 2005 yili amalga oshirilgan ta'mirlash jarayonida ba'zi naqshlar qayta ishlangan. Ayni paytda saqlangan yozuvlar asosida ayrim bitiklar boshqatdan yozilgan. Eskizlar muallifi – Abdulhakim Razzoqov.

Peshtoqning ichki ravog'ida muqarnaslar tagida suls xatida sariq rangda arab tilida: "Bu munavvar maqbara binosi, ulug' va karamli malika Tuman Oqoning ko'rsatmasiga binoan, sakkiz yuz sakkizinchi (808/1405-1406) yili qurildi. ...."-deb tarix bitilgan. Tepasida kufiy xatida oq harflar bilan istig'for duosi bitilgan. "Ey Allohim, Sen salom (tinchlik) san, salom Sendan va salom Sen tomon qaytadi. Parvardigoro, bizni yana salom bilan tiriltir. Ey ulug' va hurmatli zot, Sen barakotlisan!"<sup>39</sup> Ushbu sahih hadisni Imom Muslim rivoyat qilgan.

Peshtoqning tashqi perimetri bo'ylab bitiklardan faqatgina chap shohustun quyi qismidagi matnning bir qismi saqlanib qolgan. Bu bitikning devoniy unsurlariga ham ega bo'lgan nasxi suls husnixati bilan yozilgan. Harflar – oq rangda. Bitik fonida feruza rang bilan hallangan nabotiy nozik naqshlar mavjud. Peshtoq shohustunlarining quyi qismlarida to'g'ri burchakli parchin lavhalar – kitobalarda suls xatida ikkita hadis bitilgan. Har ikkala matn ham 2005 yilgi so'nggi ta'mirlash

---

<sup>38</sup> Bu hikmat Imom Ali ibn Abu Tolibning devonidan keltirilgan iqtibos. Uning to'liq matni quyidagicha: "Ey dunyoga mashg'ul bo'lgan kimsa! Seni tashvishlar ko'pligi mag'rur qilib qo'ydi. O'lim to'satdan keladi. Qabr esa – amallar sandig'i. Sen bo'lsang ajal kelgunicha g'aflatda qolib yuraverding". Qarang: Imom Ali devoni. – B. 312.

<sup>39</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 395-bet

jarayonida yozilgan: “Payg’ambar (s. a. v.): “Albatta, qabr – oxirat manzillarining avvalgisi, – dedilar. Allohning elchisi to’g’ri gapirdi. Payg’ambarlarning ulug’i Muhammad (asrs.): “Qabr – eshik. Barcha insonlar unga kiradi”, – dedilar<sup>40</sup>.

Peshtoq ravog’ining o’ng tomonidagi kitobada kufiy xatida sariq rangda Hazrat Alining dunyo to’g’risida aytgan hikmati bitilgan. “Dunyo – mag’rurlik hovlisi” “Umr – uzun, bas, uning ostidagi narsa – foydali.” Chap tomondagi kitobada ham kufiy xatida dunyo to’g’risidagi mazkur hikmat takrorlangan (“Dunyo – mag’rurlik hovlisi”). Ostida go’zal suls xatida yana bir hikmat bitilgan. “Shukronasi bo’lmagan har bir ne’mat – zavol.”<sup>41</sup> Bu hikmatlarda 2005 yili yangitdan o’rnatilgan maqbara eshigi ustida nasx xatida “Bismilloh” kalimasi bitilgan.

Shohi Zinda majmuasining shimoliy tomonidagi eng qadimgi maqbara Xoja Ahmad maqbarasi (XIV asr)dir. Xoja Ahmad maqbarasining saqlanib qolgan ravoqlarida suls xatida arab tilida yozuvlar bitilgan. Aksariyat qismi (bosh qismi va oxiri) o’chib ketgan. “ ... Alloh u ikkalasini boqiy aylasin. Qabrlari nurga to’lishi uchun (ularga) iqbol yor bo’lsin. Xoja Ahmadga biror kishi teng kela olmas edi.. .”

Maqbaraning kichik ravoqlari bo’ylab kufiy xatida: لَمَلِكْ هَلَلْ، الْحَكْمْ هَلَلْ – “Mulk – Allohnik”, “Hukm – Allohnik”, – kalimalari takroriy tarzda bitilgan. Ravoqning ikki qoshi atrofida gulli nasx xatida fors-tojik tilida she’r bitilgan. Matnning bir qismi o’chib ketgan edi, ammo 2005 yili ta’mirlash jarayonida qayta tiklangan. Bunda: “Sen Iroqda shoh bo’l, yo Xitoyda xon, Qaro yerda oxir topgaysan makon! Bu foniyl dunyoga ko’ngil bog’lama, Navbating yetganda bo’lgaysan chunon!”<sup>42</sup>

Maqbara ichida Amir Sayyidning qabr toshi topilgan. Toshni 2005 yili Xoja Ahmad maqbarasi ichiga olib kirishgan. Undagi yozuv suls xatida :“Ulug’ amir – Amir Sayyid Abu Sa’ad ibn ulug’ amir Sayyid Mahdiy ibn ulug’ amir Sayyid

<sup>40</sup> Bu jumla hadis emas, balki (“Ey o’limni unutgan kimsa”) deb nomlangan qasidaning birinchi misrasi. (Qarang: Qasidaning to’liq matni arab tilidagi havolada keltirildi.) Qasida matni الْقَبْرُ – al-qabr deb emas, balki الموت – al-mavt deb boshlanadi. Qasida muallifi – Abu Is’hoq Ismoil ibn Qosim ibn Suvayd al-Ayniy (747 – 826). U– Abul Atohiya kunyasi bilan tanilgan Abbosiylar asridagi taniqli shoirlardan. Devondan arab adabiy tilida bitilgan diniy-tasavvufiy mazmundagi 780 dan ortiq ajoyib qasida o’rin olgan.

<sup>41</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me’moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 401-403 betlar

<sup>42</sup> Ko’rsatilgan adabiyot. 419-423 betlar

Haydarning vafoti tarixi muborak jumod ul-oxir oyining [8]33 yilida edi (1478 yilning sentyabr – oktyabr oylari).<sup>43</sup>-deb yozilgan.

Shohi Zinda majmuasidagi “Shimoliy hovli”ning maydonchasi sharq tarafida Xoja Ahmad maqbarasi yonida XIV asrga oid yana bitta maqbara saqlangan. Peshtoqda: “... (?) uni (bu ayol)ning pokligini ... ! Bu imorat yetti yuz oltmish ikkinchi yil safar oyining o’n uchinchi kuni (762/1360–1361 yil) qurib bitkazildi”-deb yozilgan. 2005 yili ravoqning pastki qismi ikki yon tomonida suls xatida Rasululloh (s. a. v.)ning ikkita hadislari bitilgan. O’ng tomonda: “Payg’ambar alayhissalom: “Duo – ibodatning mag’zi”, – deb aytdilar.”

Chap tomonda: “Payg’ambar alayhissalom: “Dunyo – o’tkinchi hovli”, – deb aytdilar.”<sup>44</sup> Ali ibn Abu Tolibning „Nahj ul-balog’a“ 11-xutbasida Hadisning davomi: والآخرة دار بقاء – “Oxirat – abadiy hovli” deb yozilgan. Biroq ushbu hadis Hazrat Aliga ham nisbat beriladi. Bu Hadis mazmuni ham juda keng. Inson faqat yaxshi tilak va niyatlar bilan Oliy Zotga erishadi. Kimga qancha umr bergani faqat Undagina ayon. Hech kim bu dunyoda ustun bo’lolmasligi yana bir bor eslatilmoqda.

Shohi Zindaning asosiy inshooti – Qusam ibn Abbos maqbarasiga olib boruvchi imoratlar kirish yo’lagining o’ng tomonida minora mutaxassislarning fikricha, butun Samarqandda yaxshi saqlangan XI asrga oid yakka-yu yagona inshoot hisoblanadi.

Chortoqning sharq tarafiga ikki tabaqali o’ymakor qayrag’ochdan yasalgan eshik o’rnatilgan. Eshikning yuqori dilaklarida suls xatida fil suyagini ishlatgan holda hadis bitilgan. Suyaklardan faqat oz qismigina saqlangan. 2005 yili bu qadimiy yozuv qayta tiklangan. Tepasida kufiy xatida Allohning go’zal ismlaridan ikkitasi: الحنان – “Mehribon” va الوهاب – “O’z ne’matlarini ato etuvchi”, kalimalari yozilgan. “Jannat eshiklari – faqirlar uchun ochiq. Allohning rahmati rahmdillarga tushadi<sup>45</sup>.” Eshikning pastki va yuqori qismida uning yasalgan sanasi hamda

<sup>43</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me’moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 433 bet

<sup>44</sup> Ko’rsatilgan adabiyot. 443-445 betlar

<sup>45</sup> Bu hadis matnini faqat Imom G’azzoliyning “Mishkot ul-anvor” va “Ravzat ul-voizin” kitoblaridagina uchratdik. Imom Muslim shunga yaqin bir hadis matnini keltiradi: “Hijrat qilgan faqirlar Qiyomat kunida boylardan oldin jannatga qirq xarif (yil) oldin kiradi”. Imom Ahmad va Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda ham shunday

ustaning nomi yozilgan. “Ustod Yusuf Sheroziyning amali. 807/1404-1405 yil.”<sup>46</sup> Tasavvuf sohasi vakillari uchun, ya’ni o’z hayotlarini Alloh uchun baxshida etganlar uchun jannatda joy sovg’a etilajagiga urg’u berilmoqda.

Ziyoratxona kirish eshigining yuqorisidagi matnlar ikki qatorda yozilgan. Unda: “Arab, hoshimiy sulola, qurayshiy qabiladan, makkalik, madinalik bo’lmish Payg’ambar alayhissalom: “Insonlardan Qusam ibn Abbos tuzilishi va xulqi jihatidan menga eng ko’p o’xshaydi”, – dedilar.”<sup>47</sup> Muhammad payg’ambar tanlagan yo’lni davom ettirganlar ichida eng sadoqatlilar qatorida Qusam ibn Abbos turishlariga qaratilmoqda.

Qusam ibn Abbos maqbarasi yaqinidagi eng keyingi davrda qurilgan inshootlardan biri bu masjid binosidir. Mutaxassislarning fikriga ko’ra, masjid mehrobi buxorolik ustalar va xattotlar tomonidan yasalgan. Mehrob kitobasida suls xatida Qur’oni karimdagi “Jin” surasining 18-oyati bitilgan. Tepasida mayda harflar bilan kufiy xatida:– “Allohn hamd aytish va ulug’lash bilan poklayman”, – kalimalari takroriy tarzda yozilgan. “Albatta, (barcha) masjidlar – Allohniki. Bas, (masjidlarda) Alloh bilan qo’shib yana biror kimsaga duo (ibodat) qilmangiz!”<sup>48</sup> Bu bitiklar Shohi Zinda ansambilining Tuman Oqo masjidida ham bitilgan edi.

Qusam ibn Abbos yodgorlik majmuasi – go’rxona va ziyoratxonadan iborat. Bundan tashqari go’rxonaga g’arb tomondan kichik bir tug’xona tutashgan. Ziyoratxonaning pastida bir necha katta-kichik xonali chillaxona qurilgan. Ziyoratxona XI asrdagi binoning o’rniga yangidan bunyod etilgan. Yangi bino XIV asrning 30-yillarida qurilgan. Gumbazning ichki qismi va devorlarning tepalari o’ymakor sirli koshin qoplangan. Devorning gumbaz qo’yilgan sakkiz yoqli qismi janubi-g’arbiy tomonida o’simlik nusxa naqsh orasida 735 /1334 – 1335 yil yozib qo’yilgan.

Ziyoratxona ichki gumbazining atrofida g’ubor xatida Qur’oni karimdagi “Tavba” surasining 18 – 22-oyatlari bitilgan. Matnda zeru zabarlar qo’yilmagan.

---

deyladi: “Musulmonlardan bo’lgan faqirlar yarim kun oldin boylarga nisbatan jannatga kiradi. Yarim kun – bu besh yuz yil” (tegishli asarlarga aniq ishoralar arab tilidagi matnga qilingan ishorada berilgan).

<sup>46</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Shohi Zinda me’moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 475-477 betlar

<sup>47</sup> Ko’rsatilgan adabiyot. 481-bet

<sup>48</sup> “Qur’oni Karim” ning o’zbekcha izohli tarjimasidan. “Jin” surasi. T.: Cho’lpon, 1992.

Oyatning oxirida 735/1334–1335 yil tarixiy sanasi bitib qo'yilgan. "Allohning masjidlarini faqat Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan, namozni barkamol o'qigan, zakot bergan va faqat Allohdingina qo'rqqan kishilar obod qilurlar. .... Tarixning 735/1334–1335 yil sanasida bitkazildi."<sup>49</sup>

Go'rxonaning asosiy binosi maqbara bilan bir vaqtda (XI asrda) qurilgan. Shohi Zinda ziyoratxonasinig devorlaridagi yozuvlar hozirgi paytda saqlanmagan. Oxirgi ta'mirlash paytida suvab tashlangan. Bu yozuvlarni qayd qilishda marhum arxitektor V. M. Filimonov tomonidan olingan fotosuratga tayangan.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, Shohi Zinda ansambilidagi bitiklarda insoniyatni iymonini poklashga va komillikga da'vat etmoqda. Birgina Shirinbeka Oqo maqbarasi peshtoqidagi Suqrotning: "Inson dunyoda o'zining barcha holatlarida ham azoblanuvchi va u dunyo orqali ega bo'lgan narsalari ustida abadiy qolmaydi" deb bitilgan iborasida kishilarni insofga chaqirib, nafs balosidan ogohlikga da'vat etilganini ko'ramiz. Yozuvda bu makon o'tkinchi dunyo ekanligi, undan barcha o'tishi, hech kim ustun bo'lmasligi qayd etilib, yolg'iz Alloh boqiyliqi qayd etilgan.

Bitiklardagi vaqti o'tmasdan oldin namozni o'qishga, o'lmasdan oldin tavba qilishga barchani chorlashi, ota-onaga yaxshilik Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanganligi alohida diqqatga sazovor. Davlatimiz qomusida ham ota-onaga nisbatan farzandning burchi alohida ta'kidlanganligi o'tmishimiz an'anasi holi ham davom etayotib borilayotgani kishini mamnun etadi.

---

<sup>49</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Shohi Zinda me'moriy majmuasi" 3-kitob. T-2012. 513 bet

## **II-BOB. SAMARQAND AMIR TEMUR DAVRI TARIXIY OBIDALARI PESHTOQ YOZUVLARI**

### **2.1. Amir Temur maqbarasi (Go'ri Amir)**

Tarixiy yodgorliklar haqidagi ma'lumotlarning mazmunini ochish asosida bizning xotiramiz charxlanib-irodamiz mustahkamlanadi. Biz o'z o'tmishini yaxshi bilsak, o'z yo'limizni to'g'ri tanlasak, har xil aqidalar ta'siriga tushmaymiz. O'tmish avlodlarimizning tarixiy yodgorliklarda yozdirib qoldirgan matnlari bizni hushyorlikka o'rgatadi.

Xalqimiz orasida Go'ri Amir yoki Go'ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinayotgan me'moriy yodgorlik hisoblanadi. Dunyo ahli biladiki, bu maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka, o'g'illari Umarshayx, Mironshoh va Shohrux, nabiralari Muhammad Sulton, Ulugbek Mirzo dafn etilgan. Amir Temur maqbarasi O'rta Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etiladi. Bu bino, dastlab 1401 yili Amir Temurning nevarasi va vorisi Muhammad Sultonning buyrug'i bilan madrasa sifatida asos topgan edi. Ammo tarixiy adabiyotlardan ma'lumki 1403 yili Muhammad Sulton Kichik Osiyo sohillariga qilgan uzoq safaridan qaytib kelayotganda to'satdan kasal bo'lib, vafot etadi. Shu munosabat bilan madrasa qayta qurilib, uning jasadi shu yerga qo'yilgan. Amir Temur tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiy bu binoni: "Osmon kabi baland gumbaz, devorlarining pastki qismi zarhal va lojuvard bilan bezatilgan marmar toshdan qilingan", - deb ta'riflaydi. 1405 yilda Amir Temurning o'zi ham shu yerga dafn etilgan. Shohrux Mirzo buyrug'i bilan Mirzo Ulug'bek davrida go'rxona binosi tugallangan hamda Amir Temur va temuriylar xilxonasiga aylantirilgan. Dastlab maqbaraga shimoliy eshikdan kirilgan. Mirzo Ulug'bek tomonidan sharqiy eshik 1425 yilda ochilgan, chunki Mir Sayyid Barakaning bosh tomonlaridan kirishni Mirzo Ulug'bek hurmatsizlik deb hisoblagan.

1868 yilda Chor Rossiyasi istilosi yillarida maqbara darvozalari o'g'irlab ketilgan. Sohibqiron Amir Temur saroyi darvozalaridan biri Londonda, yana biri

Ermitajda va uchinchi eshik esa O'zbekiston madaniyati va tarixi davlat muzeyi fondida saqlanmoqda.

Amir Temur maqbarasi kirish peshtoqida ham yozuvlarni uchratamiz. Mirzo Ulug'bek davrida maqbaraga kirish uchun qurilgan eshikning yoni va tepalari nafis bezatilgan. Ilgari eshik tepasida: «Bu shavkatli Amir Temurning qabri...» deb yozilgan koshinli lavha bo'lgan (bu plita hozir Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanadi). Maqbaraga qator gumbazli galereyadan o'tib kiriladi.

Maqbara kirish peshtoqining tepa qismi kitobasida kufiy xatida Rasululloh (s. a. v.)ning hadislarini yozilgan. (Payg'ambar) alayhissalom: “Beshikdan qabrgacha ilm izlang”, – dedilar.<sup>50</sup>

Bunday mazmundagi da'vatlarni Samarqandning boshqa me'moriy obidalarini peshtoq yozuvlariga ham uchratishimiz mumkin. Ilm olgan kishi hayotda og'ir damlarida ham o'zligini yo'qotmaydi. Yunon faylasufi Suqrotning delfiya ibodatxonasidagi o'gitida ham “O'z-o'zingni anglagin va bilgin” degan o'gitini ko'plab shaxslar o'ziga shior etganlar. Inson o'zligini bilishi uchun avvalanbor ilimli bo'lishi lozim. Chunki ilm chasm gavhari hisoblanib sharq donishmandlarining asosiy qarashlarida aksini topgan.

Maqbara peshtoqida suls xatida oq rangda Qur'oni karimdagi “Oli imron” surasining 3:104-oyati bitilgan. Unda Alloh taborak va taolo dedi: “104. Sizlardan yaxshilikka da'vat etadigan, amri ma'ruf vanahiy ishlarini olib boradigan bir ummat bo'lsin. Aynan o'shalar najot topguvchilardir. Buyuk Alloh to'g'ri so'zlaguvchidir.” Musulmon olamida barchaga ma'lumki, namozdan so'ng amri ma'ruf qilinadi. Bu an'anaviy tadbirga aylangan. Unda namozga yig'ilganlar orqali boshqa jamoa vakillariga ham pand-nasihatlar qilinib, barchani insof, diyonat, or-nomus, ona Vatanga hurmat kabilarga da'vat etiladi. Shuningdek amri ma'ruf asosida razilat, zulm hamda yomon ishlar botqog'idan insoniyatni qaytarib, ularning amallarini to'g'rilikga yo'naltiradilar.

---

<sup>50</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 25-bet





bir guruhi Alloh taoloning amrini ado etishda davom etadi, na o'z hollariga tashlab qo'yib yordam bermaganlar va na qarshi chiqqanlar ularga zarar keltira oladi! Ular Alloh taoloning amri kelganda ham (ya'ni Qiyomat bo'lganda ham) shu yo'sinda kurashayotgan bo'ladi. ” O'rta qismiga Qur'oni karimdagi “Hijr” surasining 15:45- va 15:46-oyatlari, chap tarafiga esa o'xshatma so'zlar yozilgan.<sup>52</sup>

Bu matnlarda aynan nimaga shama qilinayotganligi jumboqlidir. Menimcha bu matn faqat huquqshunos ilmidan boxabar kishiga emas balkim, har qaysi qonun-qoida biluvchi kishiga imkoniyatlar eshigining ochilishi haqida mujda bo'lsa kerak. Bunday shaxslar har qanday holda o'zlari tanlagan yo'llaridan qaytmasliklari ta'kidlanayotgandir. Maqbara kirish ravog'ining ichki qismida yozuvda aynan “Hijr” surasi oyatining keltirishi sababi menimcha osmon, zamin, ma'danlarga to'la tog'lar va shamolning Alloh tomonidan insonga xizmat qilishi keltirilgani, lekin Yaratganning amri bilan “qora loy”dan yaralgan insonga nisbattan shaytonning adovati qiyomatgacha davom etishi ogohlikga da'vat sifatida ota-bobolarimizning bizga nasihatlar hamdir. Har bir insonning bu olam o'tkinchi ekanligi, inson doim to'g'ri yo'ldan borishiga, xatosini barvaqtroq anglab uni qilmasligiga, shaytonga ergashmasligi xitob qilinmoqda. Bu yozuvdagi ibratli so'zlar shu zaminda yashayotgan insoniyat uchun ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishlari uchun maktab vazifasi hamdir.

Maqbara kirish ravoqda shuningdek, to'rtburchak shaklidagi lavhalarda bitiklar mavjud. O'ng va chap tarafdagi lavhalarga kufiy xatida “الملك هلل” – “Mulk – Allohnik”, – jumlasini uch martadan takror yozilgan. O'rtaga esa suls xatida me'morning ismi bitilgan. “(Bu Allohning) zaif bandasi Muhammad ibn Mahmud al-Banno al-Isfahoniyni ishi.”<sup>53</sup>

Maqbaraning tashqi tomoni bunyod qilinganda uning gumbaziga katta ahamiyat berilgan. Gumbaz ostki qismining aylanasi 15 metr, balandligi 12,5 metr

---

<sup>52</sup> Qur'oni karimdagi “Hijr” surasida: Alloh taborak va taolo dedi: 45. Taqvodorlar esa, albatta, (jannatdagi) bog'lar va buloqlardadirlar. 46. “U (yer)ga sog'-salomat, tinch-omon kiringiz” (deyilur). Buyuk Alloh to'g'ri so'zlaguvchidir. ” “Bu – jannat bog'lari. Bas, unga mangu qolguvchi bo'lgan holda kiringlar.” Degan ma'lumotlar keltirilgan.

<sup>53</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 33- bet

bo'lsada, uning og'irligi sezilmaydi. Gumbazning rang-barang qilib ishlanishi katta ahamiyatga ega. Gumbazda havo rang ko'proq ishlatilgani uchun bu rang gumbazning egri chiziqli qobirg'alarida tovlanib, quyoshda charaqlab, guyo osmonga qadalib turadi. Gumbazning usti sirli koshinlar bilan qoplangan. Sharafalarida ham shunday koshinlardan hajmi bir-biriga mos qilib ishlangan chiroyli jimjimalar bor. Maqbaraning tashqi gumbazi yodgorlikning tashqi qiyofasi yanada salobatli bo'lishi uchun uning ustiga ikkinchi gumbaz o'rnatilgan.

Maqbara tashqi devorining tepa qismiga binoning boshidan oxirigacha yozuvlar bitilgan. U joyda kufiy xatida bir necha bor **“مُلْكُ اللَّهِ الْبَقَاءُ لِلَّهِ الشُّكْرُ لِلَّهِ الْعِظَمَةُ لِلَّهِ** – “Mulk – Allohnik”, “ Boqiylik – Allohga xos”, “Allohga shukr”, “Buyuklik – Allohga xos”, – jumalari yozilgan. Bu yozuvlar shu davr mafkuraviy qarashi bo'lishi bilan birga, har bir tirik bandaga takror va takror boylikga berilib o'zligini yo'qotmaslikga hamda bu o'tkinchi davr ekanligi aytilmoqda.

Suls xatida esa, aslida, binoning qurilishiga oid ma'lumotlar yozilgan bo'lgan. Ammo uning juda oz qismi saqlanib qolgan. Ta'mirlash jarayonida o'chirilgan so'zlar o'rniga Qur'oni karimning “Mulk” surasi yozib qo'yilgan.<sup>54</sup> Mulk surasida barcha yeru-osmon egasi Alloh ekanligi, U ko'ruvchi va biluvchi va barcha narsaga qodir ekanligi qayd etilgan. Insoniyat bu dunyoda sinov uchun yaratilganligi va oxiratda bu qilmishlariga javobgarligi belgilangan.

Maqbara ichki ravoq yozuvlarida: “So'zimdan (binoning) chizmasi ta'rixini o'qigilki,...” deb bitilgan. Maqbaraga olib boradigan yo'lakka o'tish eshigi va eshik ustida yozuvlar bor. Eshikning o'ng tomoniga suls xatida Allohni ulug'lovchi kalima bitilgan. **“لَهُالْ جَلْ جَلَالُهُ** - “Alloh uning buyukligi juda buyuk”.<sup>55</sup>

Allohning buyukligi, uning kuch-qudrati, bu dunyoning hech kimga abadiy emasligi, oxiratga nazar tashlab bu dunyo imkoniyatlaridan to'g'ri yo'llarda foydalanish lozimligi binoning mafkuraviy asosi sifatida gavdalangan.

Maqbara ichki ravoq kirish eshigi yuqorisidagi bitikda suls xati bilan matnda: “(Bu) olam sultoni Amir Temur Ko'ragoniy qabrlari, Alloh qabrlarini muattar,

<sup>54</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 37- bet

<sup>55</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 39-40- betlar

joylarini jannat bog'laridan qilsin. Zamon Sultonining ishoralari bilan (qurilgan) ... Eshikning chap yuqori tomonida esa suls xatida “ - رسول هالّل - Muhammad (a.s.v.) – Allohning Rasuli”, – so'zlari yozilgan.” Maqbara ichki ravoq yozuvlarining yuqorisida kufiy xatida “Tamjid” kalimasi yozilgan. Allohning aybu nuqsoni yo'q va hamd – Alloh uchun. Va Allohdan o'zga iloh yo'q va Alloh – buyuk! Mutlaq kuch va quvvat qudratli va buyuk Allohdan o'zgada yo'qdir. Alloh nimaniki xohlasa, bo'ladi, nimaniki xohlamasa, bo'lmaydi”.<sup>56</sup>

Ta'kidlab o'tilgan peshtoq yozuvdan ko'rinib turibdiki, dastlab ushbu bino Amir Temur Kuragon ko'rsatmalari asosida qurilgan. Bu bino tarixiy manbalarda hatto 10 kun davomida qurib bitkazilganligi va keyinchalik kengaytirilib Ulug'bek Mirzo davrida qurilishi tugallanganligi qayd etilgan. Amir Temur 27 mamlakat hududini yagona islom dini mafkurasi bayrog'i asosida birlashtirgan. Allohning yagonaligi va ulug'ligi barchaga singdirilgan. Bu bilan o'zaro urushib qon to'kishlarga chek qo'yilib markazlashtirishni amalga oshirgan.

Go'ri Amir maqbarasi ichki kirish eshigida yozuvda: “Mulk Xudonikidir./ Oqibati xayrli bo'lsin”<sup>57</sup> deb bitilishida ham insoniyatga murojaat yotibti.

O'zaro boylik, obro'-e'tibor talashish noo'rinligi ta'kidlanmoqda. Misol uchun, “Takosur surasi” (Takosur-to'plab ko'paytirishga berilmoq) da ko'p odamlarning to'jonlari chiqib, qabrlariga kirgunlaricha mol-dunyo to'plashga va o'sha arzimasi matolar bilan bir-birlariga maqtanishga mashg'ul bo'lishib, Allohni eslashdan va U zot buyurgan Haq yo'lda yurishdan yuz o'giranlari bayon etilgan va ularga bu qilmishlari oqibati jahannam ekani to'g'risida xabar beriladi<sup>58</sup>.

Darhaqiqat har bir inson ildam qadam tashlab yurarkan o'z ehtiyojini qondirish uchun mehnat qilib risqini topadi. Topgan risqi bilan o'zi, oila a'zolari-ning ehtiyojini qondiradi. Ortiq boylik va mulkga ega bo'lish halokat zinasiga olib borishini o'zbek xalqining: “Ko'z tuproqqa to'yar”, “Olg'irlik ofat keltirar, Bad-nafslik — halokat” degan maqollarida ham asoslangan. Go'ri Amir maqbarasi

---

<sup>56</sup> O'zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar"/albom/ O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi. T-2011.. 41-43 betlar

<sup>57</sup> Ko'rsatilgan adabiyot .109-bet

<sup>58</sup> “Qur'oni Karim” ning o'zbekcha izohli tarjimasidan. T.: Cho'lpon, 1992. “Takosur” surasi. 520-bet

eshigidagi bu so'zlarda insoniyatni insofga chaqiriq deb qarasak mantiqan to'g'ri bo'lardi.

Galereyadan o'tib, Temuriylar maqbarasiga kiriladi. Maqbara ichkarisi va gumbaz tagida yozuvlar bor. Gumbaz o'rami yakun topgan joyda aylana bo'ylab kufiy xatida ” اَكْبَرُ الْمَلِكِ هَالل ” – “Alloh – buyuk”, “Mulk – Allohnik”, – kalimalari bitilgan. Suls xatida bir necha bor tasbeh takror yozilgan. Ushbu yozuvning tag qismida burchaklarga joylashtirilgan to'g'ri burchaklar ichiga esa kufiy xatida to'rt martadan هَالل - “Alloh”, مُحَمَّد - “Muhammad”, عَلِي - “Ali”, – deb yozilgan.<sup>59</sup>

Ichki ravoqning boshlanish joyida ulama to'rtburchak lavhalar ichiga kufiy xatida o'rtada zarhal harflar bilan مُحَمَّد ” – “Muhammad” so'zi ikki marta va atrofida “ الْحَمْدُ هَالل ” – “Hamdu sano – Alloh uchun”, – kalimasi 4 marta yozilgan. Devorning burchaklari va panel qismida o'n ikki burchakli yulduz atrofida va to'g'ri burchakli shakl ichida مُحَمَّد – “Muhammad” ismi takror yozilgan.<sup>60</sup>

Maqbara devorining bel qismida aylanasi yozuvlar bitilgan. Unda suls xatida katta qizil rang bilan Qur'oni karimning “Mulk” surasi to'liq yozilgan. Mulk surasida barcha ishlarga qodir yetti osmonni qabatma-qabat yaratgan Rohmanning yaratganiga kamchilik topib bo'lmasligi qayd etilgan. Alloh barchaga bu dunyoda aqlni ishlatib ish yuritishni, duzaxiylar ichida bo'lmaslikga da'vat etganligi ta'kidlangan. To'g'ri amalda yurib oxiratidan qo'rqqanlarning gunohlarini kechirishi va ulkan ajr-savob borligi aytilgan. Allohning hukmi yeru-osmonda barobar bo'lib, insonlarga eshitish, ko'rish va aqlni berganligi va unga shukrona aytib yashash lozimligiga urg'u berilgan. Alloh yerga insonni yaratib ularni ko'paytirganligi va ulardan doimo rostgo'y bo'lishlarini so'ralgan. Bu surani peshtoqda yozilishidan insoniyatni to'g'riso'z va aqlni ishlatib shukrona yashashga da'vat etilmoqda.

---

<sup>59</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 49- bet

<sup>60</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 53-bet

Kichik hajmda oq rang bilan Qur'oni karimning avval "Fajr", so'ng esa "Mulk" surasi yozilgan.<sup>61</sup> Qur'oni karimning Fajr surasida insoniyat bu dunyoda qilgan har bir ishi uchun mukofot yoki jazo olishi aytilgan. Chunki Alloh kim nima qilayotganini kuzatib borib, ularning qilgan amallariga qarab tug'yonga ketgan, zulm qilganlarning jazosini berilishi ta'kidlangan.

Maqbaraning marmar panellarida ham yozuvlar bor. Bu panellar binoning hamma tomonida o'rnatilgan bo'lib, ularda suls xatida Payg'ambar (a.s.v.)ning bir nechta hadislarini bitilgan. Yozuvning birinchi qatorida kufiy xati bilan ushbu tasbeh takror yozilgan: سبحان الله وبحمده سبحان هالل العظيم – "Allohg'a hamd aytish bilan Uni aybu nuqsonlardan poklab yod etaman. Ulug' Allohni aybu nuqsonlardan poklab yod etaman". Ushbu lavhani ta'mirlash jarayonida ikkita boshqa-boshqa tosh parchalari bir joyga o'rnatilgan.<sup>62</sup>

Maqbara ichki ravoq paneldagi hadisning o'rta va oxirgi qismi o'chib ketgan. O'chgan joyi tiklanib, qizil rang bilan belgilab qo'yilgan. "Va (payg'ambar) alayhissalom: "Jannatda atroflarida minoralari va o'tloqlari bor bir qasr bo'lib, uning besh ming eshigi bor. Unga faqat payg'ambar, siddiq (to'g'rilikni o'ziga kasb etgan kishi), shahid va odil rahbar kiradi (yoki u yerda yashaydi)" – dediyilgan. Bu yozuvdan ko'rinib turibdiki rostgo'y, adolatli kishilar doimo rahat va farog'atda bo'ladilar.

Keyingi marmar lavhadagi yozuvning bosh va oxirgi qismi saqlanmagan. O'rtasida faqat uchta so'z saqlanib qolgan. Ta'mirlash jarayonida yozuvning o'chib ketgan joylari o'rni esa boshqa so'zlar bilan to'ldirilgan. Shunday bo'lsada, bu joyga quyidagi misralar bitilgan degan taxmin qilingan (tiklangan parchalar qizil rangda berilgan): "Ey nafs tavba qil, chunki o'lim bizga yaqinlashib qoldi Va nafsu havoga osiy bo'l zero u bizni doimo "hali yoshsan", – deb (aldab) turdi. O'limga boqmaysanmi, u bizni birma-bir terib olmoqda Va keyingilarimizni oldingilarimizga qo'shmoqda."<sup>63</sup> Bu misralarni tahlil qilishning hojati yoq deb

---

<sup>61</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" uchinchi kitob Toshkent — 2012.55-bet

<sup>62</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 57-bet

<sup>63</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 58-59 betlar

o'ylayman, chunki misra aniq va tushunarli bayon etilgan. Nafs va dimog'balandlik, kibru-havo insoniyatni jaholatga boshlaydi. Qay payt bo'lishidan qat'iy nazar insoniyatni bu yo'ldan qaytib tavba qilishi kerakligi da'vat etilmoqda. Zero inson doimo hali barvaqt, qalban yoshligini pesh qilib o'zini ovitib yashaydi, lekin vaqt o'tib ketayotganini tushunmay qoladi.

Maqbara ichki ravoq so'nggi panellarda hadislar keltirilgan<sup>64</sup>. Bu rivoyatlarning har biri insoniyatni komil shaxs sifatida shakllanishlari uchun da'vat etilgan. Zero qilingan amallari bilan shaxsning nomi eslanadi, ulug'lanadi va kelajak avlodlarga yetkaziladi. Allohning 93 xil mag'firati borligi, ulardan biror bittasiga ega bo'lgan kishi jannatda bo'lishi insoniyatni ushoqdek bo'lsa ham yaxshilik qilishga undovchi panddir.

Gumbaz osti devorida ham هال، محمد، علي – “Alloh”, “Muhammad”, “Ali” so'zlari kufiy xatida takror naqsh qilingan. Maqbara gumbazida kufiy xati bilan yozilgan bitiklarda: (Kichik hajmda): الحمد هال – (“Allohga hamd”) (Katta hajm-da): البقاء هال – (“Boqiylik – Allohga xos”)<sup>65</sup> yozuv berilgan. Bu jumlar insoniyatga shukrona aytib yurishga da'vatdir.

<sup>64</sup> “Va (Payg'ambar) alayhissalom: “O'lim ham bir yaxshi narsaki, u do'stni Do'stga yaqinlashtiradi va o'lim – mo'min kishi uchun rohat”, – dedilar.” (Payg'ambar) alayhissalom: “Qiyomat kunida Allohga insonlarning eng yaxshisi va unga yaqin o'rinda bo'ladigani – odil podshoh va insonlarning Alloh taolaga eng yoqmaydigani va undan uzoq joyda bo'ladigani – zolim podshoh”, – dedilar.”

Payg'ambar alayhissalom: “Odil va kamtarin voliy (hokim) uchun har kuni oltmishta siddiq (“o'ta xudojo'y”) amali barobaricha savob (darajasiga) ko'tarilur. Ularning har biri obid (ibodat qiluvchi), o'z nafsiga mujtahid (nafsini yengan)dir”, – dedilar.” Payg'ambar (s.a.v.): “Nasihat (qilish) uchun o'limning o'zi kifoyadir”, – dedilar.” Va Payg'ambar alayhissalom: “O'lim kelmasidan burun unga tayyorgarligingni ko'rib qo'y”, – dedilar.” Rasululloh (u kishiga salovatlarining afzali va salomlarning komili bo'lsin): “Hukm chiqarishda (hokimlikda) bir soat odil bo'lish – oltmish yillik ibodatdan yaxshi”, – dedilar.” (64bet) Payg'ambar alayhissalom: “Biror qavm Allohning uyalaridan biri (masjid)da Allohning kitobini tilovat qilib, birgalashib o'rganishsa, albatta ularga Allohning rahmati tushadi va (ularni) farishtalar o'rab olishadi, hamda Alloh ularni o'zining huzuridagilar (farishtalar) qatorida eslaydi”, – dedilar.” Payg'ambar alayhissalom: “Podshoh bamisoli Allohning yerdagi soyasidir. Kimki uni izzat-ikrom qilsa. Alloh uni izzat-ikrom qiladi, kimki uni xorlasa, Alloh uni xor qiladi”, – dedilar.” (Payg'ambar) alayhissalom: “Odillik qiluvchi kishilar Allohning huzurida nurdan bo'lgan minbarlar ustida, aziz va ulug' bo'lgan Rahmonning o'ng tarafida bo'lurlar, vaholonki, Uning (Allohning) ikki tarafi hamo'ng tomon hisoblanadi. (Bunday martabaga erishganlar) shunday kishilarki, ular hukm chiqarayotganda, ahli baytlariga va qo'l ostidagilarga odillik qiladilar” – dedilar.” Allohning 93 xil mag'firati bor. Shundan biri jannatda – Allohning huzuridadir.” Va (Payg'ambar) alayhissalom: “Dunyodan o'tib ketganlaringizning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlarini zikr etishdan o'zlaringizni tiyinglar”, – dedilar.” Va (Payg'ambar) alayhissalom: “Qaysi bir kishi vafot etadigan bo'lsa albatta pushaymon qiladi”, – dedilar. Sahobalar: “Nima uchun pushaymon qiladi, ey Rasululloh?” – deb so'radilar. Shunda u zot: “Agar yaxshilik qilib yurgan bo'lsa, uni ko'proq qilmaganiga afsus chekadi va agar yomon ishlar qilib yurgan bo'lsa, bu yomonliklardan ertaroq xalos bo'lmagani uchun pushaymon qiladi”, – dedilar.” “Va (Payg'ambar) alayhissalom: “Marhumlarni ziyorat qiluvchi tiriklarning tuhfasi...”, – dedilar.”

<sup>65</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 73-bet

Hovlidagi minoraning tanasiga katta hajmda kufiy xati bilan هال – “Alloh” va اللى ه اكبر – “Alloh – buyuk”, – so’zlari bitilgan. Minoraning yuqori qismida esa oq rangda suls xati bilan Qur’oni karimdagi “Yusuf” surasining 12:101-oyati yozilgan. “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman). 101. "Ey, Rabbim! Menga podshohlik ato etding, yana barcha gap (tush)larning ta’vil (ta’bir)laridan ta’lim berding. Ey osmonlar va Yerni ijod etgan zot! Dunyoyu oxiratda O’zing egamdirsan. (Ajalim yetganida) musulmon holimda vafot ettir va meni solihlar (qatoriga) qo’shgin”. ”<sup>66</sup>

Maqbaraning sharq tomonidagi ravoqda pastga tushadigan zina bor. Bu zinadan maqbaraning ostki qavatidagi dahmaga tushiladi. Amir Temur maqbarasida Sohibqiron Amir Temur hazratlarining qabr toshidan boshqa yana sakkiz dona qabr toshi mavjud. Ostki qavatdagi binoning shipi o’n ikki qirrali gumbaz qilib qiya ishlangan, ichki bezaklari juda sodda. Temuriylarga qo’yilgan sag’analar yuqori qavatda qanday tartibda bo’lsa, bu yerda ham shu tartibda. Har qaysi qabr usti marmartosh bilan qoplangan.

Me’moriy majmuada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbuslari bilan 1991- 1996 yillarda ta’mir ishlari olib borildi. Ushbu maqbara hozirgi avlod uchun ma’naviy va ruhiy kuch timsoli ham hisoblanadi.

Go’ri Amir maqbarasi peshtoq yozuvlarida asosiy e’tibor Nafs va dimog’balandlik, kibru-havodan saqlanishni, chunki u insoniyatni jaholatga boshlashi mumkinligi ta’kidlangan. Qay payt bo’lishidan qat’iy nazar insoniyatni bu yo’ldan qaytib tavba qilishi kerakligi da’vat etilgani turmush falsafasi talqin etilganiga yorqin dalildir. Shuni ta’kidlash lozimki maqbara devor va peshtoqlarida Qur’oni karimning “Mulk” surasidan o’gitlar keltirilib, Alloh barchaga bu dunyoda aqlni ishlatib ish yuritishni, duzaxiylar ichida bo’lmaslikga da’vat etganligi ta’kidlanganligida ham jamiyatda shaxsning adolat mezonlariga rioya qilishga chaqirgan.

---

<sup>66</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 75-bet

## **2.2. Amir Temur (Bibixonim) jome' masjid va maqbarasi peshtoq yozuvlari mohiyati**

Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha bu inshootni Amir Temur Hindistondan 1399 yil qaytgach boshlab, besh yildan keyin qurib tugallatgan. Bu masjid shahar ichida, uning shimol tomonida Shoh (Dari ohanin) darvozasining yaqinida barpo etilgan. Ibn Arabsho jome' qurilishi haqida quyidagilarni ta'kidlab yozgan: "Temur Hindnstanda kunglini quvnatib, ko'nglini yashnatadigan bir jome' ko'rgan edi. U jome'ning arshi qurilishi bag'oyat husndor bo'lib, naqshi o'ziga yoyilgan to'shagi kabi ok marmardan edi. Jome' shakli Temurga yoqib solib, o'ziga Samarqandda xuddi shuning misolida jome' bunyod qilishni iroda etdi. Natijada, shu maqsad uchun bir makon ajratib, o'sha (jome') tarzida bir jome' qurishlariga va bu jome' uchun qattiq marmardan toshlar kesishlariga farmon berdi. Jome' ishini o'zining yordamchilaridan va devoni boshliqlaridan biri bo'lgan Muhammad Jald degan shaxsga topshirdi. Muxammad Jald jome' binosi va uning rukunlarini pishiqlashda jiddiy jahd ko'rsatib, jome'ning asosi tarkibi, tartibi va ziynatiga husn berishda kamoli harakatini sarfladi." <sup>67</sup>

Masjidning asosiy (mehrobli) binosi Amir Temur zamonasining me'moriy uslublari haqida to'liq tasavvur beradi. Masjid mehrobining tepasida g'arbiy peshtoqning ravog' ichdagi kirish eshigi tepasiga suls xatida binoning qurilishiga oid muhim ma'lumotlar yozilgan va ular to'liq saqlanib qolgan. Bu yozuvning tarjimasi: Bu oily, muborak jomeni qurishga din va dunyo qutbi Amir Temur Kuragon ibn Amir Tarag'ay ibn Burkul ibn Ijl ibn Ilangir ibn Amir Qarojor No'yon amr etdi. Allo taolo uning saltanatini abadiy qilsin. Sakkiz yuz birinchi tarix sanasi (milodiy 1398) <sup>68</sup>.

Jome masjidi kirish bosh portalining ravog'i o'ng tomonida pastdan yuqoriga boshlangan yozuv aylanib ravog'ning chap tomoniga kelib tugaydi. Unda kufiy xatida: "Boqiylik – Allohga xos. (Yozuvning boshi va oxirida to'g'ri qilib yozilgan) Allohning aybu nuqsoni yo'q va Alloh –maqtovga loyiq Allohgadir.

---

<sup>67</sup> Ibn Arabsho "Ajoyib al maqdur fi tarixi Temur" T-1992. 314 bet

<sup>9</sup>" O'zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar"/albom/ O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi. T-2011. 101-bet



Allohdan o'zga sig'iniladigan (iloh) yo'q! Alloh – buyuk.”<sup>69</sup> –deb tasbeh takror yozilgan.

Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asarida “Oliy hazratning Samarqand dorulmulkida bino qilgan jome’ masjidi” bayonida: “Bir mavzeni tanlab, muborak ramazon oyining to’rtinchisida (1399 yil 10 may) mohir ustalar, binokor muhandislarga buyurdi, toki ular u muborak imoratning tarhini tuzgaylar....”- deb ta’kidlagan.<sup>70</sup>

Masjidning bir-biri bilan bog’langan 6 ta me’moriy bo’laklari saqlanib qolgan. Bular hovlining to’rida mehrobli va baland peshtoqli bino, ikki yonida uning kichik nusxasi, poyida masjidning ikkiga bo’lingan peshtoqi va shimoliy-g’arb tomonda minoradir.

Masjiddagi ko’p qirrali yulduzlar, 3 qavatli xatlar o’yilgan lavhalar jajji muqarnaslar bilan bezalgan, hoshiyalar oq toshdan yo’nilgan. Tarixnavis Ibn Arabshohning shahodat berishicha, Jome masjidi mahobatidan hayratga kelgan zamondoshlari «Obidalarimiz avlodlarga bizning kimligimizdan darak beradi», deb g’urur bilan jar solishgan ekan.

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy masjidga ta’rif berar ekan; "Agarda osmon gumbazi uning takrori bo’lmaganda uning gumbazi yagona bo’lur edi, agarda Somon yo’li uning o’xshashi bo’lmaganida, uning peshtog’i tanho bo’lur edi" - deb yozgan edi.

Jome masjidi kirish bosh portalning o’ng va chap taraflaridagi ravoqli uch xil kitobalar ichiga kufiy xati bilan har xil jumlar bitilgan. “Ey nabiy!” “Rahmli, mehribon.”

Jome masjidi bosh portali kungiralarida: “Ey mehribon! Ey rahmli!” “Alloh – buyuk.” “Alloh – buyuk, mehribon, rahmli” <sup>71</sup> yozuvi o’z ifodasini topgan. Jome masjidi bosh portali kungiralarida katta hajmdagi yozuvda: “Payg’ambar (a. s. v.): “Bu dunyo – bir lahza. Uni toat-ibodat bilan o’tkaz”, – deb aytdilar.”- deb qayd

---

<sup>69</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 123 bet

<sup>70</sup> Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”, T, “O’zbekiston” 1996. 276-277 betlar

<sup>71</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 127-bet

etilgan. Darhaqiqat erta, erta deb vaqtimiz qanday o'tganini bilmay qolamiz. Agar har bir o'tayotgan vaqtimizni unumli ishlarga sarf etmasak hayot mazmunini yo'qotadi. Insoniyat umri zavolga yuz tutadi.

Jome masjidi bosh portali kungiralarida kichik hajmdagi yozuvda: "Payg'ambar alayhissalom: "Namoz – dinning ustuni", - dedilar. Allohning Rasuli to'g'ri so'zladi." - deb qayd etilgan. Bosh portal ravoqning yon devori va o'rtada kufiy xatida: "Allohdan o'zga Iloh yo'q va Muhammad-Allohning Rasuli.", "Alloh -buyuk, Alloh – ulug'." "Ey ulug' Alloh, ey karamli Alloh. Muhammad."<sup>72</sup> – kalimlari yozilgan. Bu davr mafkurasida islom dinining o'rni va ahamiyati juda qadrlanganligi bois barcha ishning boshlanishi "bismilloh" bilan bo'lgan. Jome masjidning kirish eshigida ham xuddi shu holat guvohi bo'lamiz : "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman)."

Jome masjidiga kirish eshigida bosh ravoq paneli ustidagi tosh bitiklarda suls xatida Payg'ambar (a. s. v.)ning bir necha hadisi yozilgan. Shu yozuvlarning tepasida esa kufiy xati bilan: - الملك هلل، البقاء هلل، الشكر هلل، العظمة هلل – "Mulk – Allohniki", "Boqiylik – Allohga xos", "Allohga shukr", "Buyuklik – Allohga xos"- tasbeh takror yozilgan. Kirish eshigi tashbeh pastida matn keltirilib, unda: „Olimu dono podshohining elchisi makkalik Muhammad – u zotga va oilasiga Allohning salavot va salomlari bo'lsin – dedilar: "Quyosh porlagan eng yaxshi kun – juma kuni. Odam (a. s.) shu kuni yaratildi, shu kuni jannatga kiritildi va shu kuni jannatdan chiqarildi. Soat (qiyomat) ham faqat shu kuni bo'ladi"<sup>73</sup>. Abu Hurayra (r. a.)dan rivoyat qilinadi: "(Payg'ambar) alayhissalom: "Agar sizlardan birovingiz masjidga kirsiz: "Allohumma iftahliy abvaba rohmatic" ("Ey Alloh, menga rahmating eshiklarini och"), – deb aytsin. Chiqqanida esa: "Allohumma inniy as'aluka min fazlik" ("Ey Alloh, Sening fazlingni so'rayman"), – desin", dedilar.

Jome masjidiga kirish eshigida yana bir hadis: "U kishiga salovatlar bo'lsin: "Juma kuni farishtalar masjid eshigi oldida birinchi bo'lib kelganlarni birinchi deb,

---

<sup>72</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" uchinchi kitob Toshkent — 2012. 129-135 betlar

<sup>73</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 138 bet

ikkinchi bo'lib kelganlarni ikkinchi deb yozib turishadi", dedilar." Kirish eshigi bosh portalning g'arbiy tomonidagi marmar toshlarda suls xatida Payg'ambar (s.a.v.) ning hadisi va (kufiy xatida) tasbeh yozilgan. Unda: "Mulq – Allohnik", "Boqiylik – Allohga xos", "Allohga hamd", "Quvvat – Allohnik", Azizlik – Allohga xos", "Ulug'lik – Allohga xos", "Kuch-qudrat – Allohnik"- deb bitilgan. "Payg'ambar alayhissalom: "Qalbida iymoni xolis bo'lgan, qalbi sog'lom, tili to'g'ri so'z, nafs xotirjam, xulqi to'g'ri, qulog'i (yaxshilikni) tinglaydigan va ko'zi (yaxshilikni) ko'radigan kishi najot topibdi", - dedilar. Payg'ambar alayhissalom yana: "Imon va amal bir-biriga yaqin narsalar. Ular birga bo'lganidagina kuchli bo'ladi", – deb aytdilar"<sup>74</sup>.

Jome masjidiga kirish eshigi ichki katta ravoqning eng yuqorisida (ular 1999 – 2001 yillari tiklangan) suls xati bilan ikki qator yozuv ("Baqara" surasining 127 – 130-oyatlari) mavjud.<sup>75</sup>

Jome masjidiga kirish eshigi ravoqning besh qirrali minorasimon ikki burchagida ushbu hadis 12 joyda kufiy xatida takror yozilgan: "Payg'ambar alayhissalom: "Bu dunyo bir lahzadir. Uni toat-ibodat bilan o'tkaz", – deb aytdilar"<sup>76</sup> Ushbu da'vat nafaqat namozga balki to'g'ri amallarni amalga oshirish uchun hamdir. Yuqorida Jome masjidi bosh portal kungiralarida ham ushbu so'zlar bitilgani guvohi bo'luvdi. Bu so'zlarni bora-bora takrorlanishidan maqsad bu o'tkinchi dunyoda har bir shaxs o'zidan yaxshi nom qoldirishi uchun da'vat ham bo'lsa kerak.

<sup>74</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" uchinchi kitob Toshkent — 2012. 139-141 betlar

<sup>75</sup> "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman) 127. Eslang: Ibrohim (o'z o'g'li) Ismoil bilan birgalikda Uy(Ka'ba)ning poydevorini ko'targanlarida, (shunday duo qildilar): "Ey, Rabbimiz, bizdan (ushbu ishimizni) qabul et. Albatta, Sen eshituvchi va donodirsan! 128. Ey Rabbimiz, ikkimizni O'zingga bo'y sunuvchi va zurriyotlarimizdan ham Senga itoat qiladigan ummat (chiqargin)! Yana, bizga (hajga doir) ibodatlarimizni ko'rsatib ber va tavbalarimizni qabul et! Albatta, Sen Tavvob (tavbani qabul etuvchi) va Rahmlidirsan. 129. Ey Rabbimiz, ularga (kelajak ummatlarga) o'zlaridan (chiqqan), ularga oyatlaringni tilovat qilib beradigan, kitob va hikmat (Qur'on va Hadis)ni o'rgatadigan va ularni (kufr va gunohlardan) poklaydigan bir payg'ambar yuborgin! Albatta, Sen Aziz (qudratli) va Hakim (hikmat sohibidir) san". 130. Ibrohimning dinidan faqat o'z qadrini bilmaydigan kishilargina yuz o'giradi. Biz uni dunyoda (payg'ambarlik uchun) tanlab oldik va u oxirtda (ham), albatta, solih(banda)lardan bo'lur." Jome masjidiga kirish eshigi portalning o'ng va chap taraflaridagi ravoqli to'rt xil lavhalar ichiga kufiy xati bilan takbir hamda ularning yuqori tomonida to'g'ri qilib, Qur'oni karimdagi "Niso" surasi 25-oyatining bir qismi yozilgan. "Alloh subhanahu va taolo: "(Sizlardan kimda-kim ozod, mo'mina ayollarga uylanish imkoniyatiga ega bo'lmasa,) qo'l ostingizdagi mo'mina joriyalardan biriga (uylanaversin)", – dedi.

<sup>76</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" uchinchi kitob Toshkent — 2012. 149 bet

Jome masjidiga kirish eshigi portalning kitoba qismi yuqorisida kufiy xatida tasbeh va suls xatida Payg'ambar (s. a. v.)ning bir necha hadisi bitilgan.<sup>77</sup> Bu rivoyatlarda asosan dunyoning egasi faqat Alloh bo'lib, Kuch-qudrat, Mulk, Quvvat kabi qolgan barcha uchun o'tkinchi ekanligi da'vat qilingan. Chunki inson bu dunyoda ustun bo'la olmasligi, har bir kishining bu olamga kelib ketishi yana bir ta'kidlanib o'tilgan. O'zbek xalqi orasidagi: "O'lim shoh-u gadoga barobar", "O'limdan qochib bo'lmas" maqollarida ham teran falsafiy mazmun o'z aksini topgan. Gumbazidagi yozuvda jamiyatda insonga shukrona qilib yashash kerakligi da'vat qilinmoqda.

Shuningdek portal kitobalarida bitilgan:- Payg'ambar (u zotga, oilasiga va sahobalariga Allohning salavat va salomlari bo'lsin): "Ulamolar payg'ambarlarining merosxo'rlari", – dedilar," "Kishining qirqta hadis yodlab, uni xotirasida saqlashi – qirq ming dinor sadaqa qilishidan yaxshi", – dedilar." Insoniyatning eng yaxshisi Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallam: "Kishining sharafiga ega bo'lishi imoni, ilmi va odobi bilan, asli (kelib chiqishi) va nasabi bilan emas", – dedilar. Ushbu peshtoqdagi yozuvlardan ko'rinib turibniki kishi teran tafakkur va ilmiy salohiyatni egallashi kerak. Bu insoniyat hayotida asosiy quroli bo'lib, jamiyatda o'z o'rnini topishda shon-sharaf beradi. Insonning imoni pok, ilmi mustahkam, odobli bo'lsagina shaxsni komilligi garovi ekanligi ta'kidlanmoqda.

Payg'ambar alayhissalom: "Kim ilm talabida bir dirham sarflasa, go'yoki u Alloh yo'lida bir dinor sarflagandek bo'ladi", – deb aytdilar.<sup>78</sup> Bunda ilm izlab qilingan har qanday xarj kelajakda o'z mevasini berishiga urg'u berilmoqda. Hukumat va xususiy ishlab chiqaruvchilar korxona ishchi va xizmatchilarining yuqori

---

<sup>77</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" da: "Mulk – Allohniki", "Quvvat – Allohniki", "Boqiylik – Allohga xos", "Kuch-qudrat – Allohniki", "Allohga shukr", "Buyuklik – Allohga xos", "Sultonlik – Allohga xos", "Allohga shukr". "Rasululloh (u zotga, oilasiga va sahobalariga Allohning salavat va salomlari bo'lsin): "Quyosh porlagan eng yaxshi kun – juma kuni. Odam (a. s.) ul kunda yaratildi, ul kunda jannatga kiritildi va ul kunda jannatdan chiqarildi. Soat (qiyomat) ham faqat shu kuni bo'ladi." Rasululloh (u zotga, oilasiga va sahobalariga Allohning salavat va salomlari bo'lsin): "Kim masjidni supursa yoki tozalasa (amallari yozilgan) kitobi o'ng tomonidan beriladi va qiyomat kuni qabridan jasadi buzilmagan holda chiqib keladi", – dedilar. Allohning Rasuli to'g'ri so'zladi." Abu Hurayra(r. a.)dan rivoyat qilinadi: (Payg'ambar) alayhissalom: "Agar sizlardan birovigiz masjidga kirsiz: "Allohumma iftah li-abvabi rohmatik" ("Ey Alloh, menga rahmating eshiklarini och"), – deb aytsin. Chiqqanida esa: "Allohumma inni as'aluka min fazlik" ("Ey Alloh, Sening fazlingni so'rayman"), – desin deb ma'lumot keltirilgan.(152-153 betlar)

<sup>78</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" uchinchi kitob Toshkent — 2012. 155 bet.

malakalarini saqlab qolishdan eng ko'p darajada manfaatdordirlar. Misol uchun hozirgi bir taraqqiyot zamonida AQShda ishchiga ta'lim berishga sarflanadigan har 35 ming dollar 965 ming dollar foyda ham keltirayotgani hammaga ma'lum. Yuqoridagi rivoyatning jamiyatda va hayotimizda qo'llasak nechog'lik foydali ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Jome'ning qator peshtoq yozuvlarida asosan insoniyatni toat ibodatda yurishlari, namozni kanda qilmasliklari bora-bora qayd etilgan. Jumladan quyidagilarni qayd etibo'tish o'rinlidir:- "Payg'ambar (u zotga , oilasiga va sahobalariga Allohning salavot va salomi bo'lsin): "Kim namozni qasddan tark qilsa, do'zaxda sakson ming yil qolib ketadi" – dedilar." "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kimki beparvolik qilib juma(namozi)ni uch marta tark etsa, Alloh uning qalbiga shuni muhrlab qo'yadi", – dedilar." Payg'ambar alayhissalom: "Qaysi biringiz masjidga kirsangiz, ikki rak'at namoz o'qimay o'tirmasin", dedilar. Payg'ambar (a.s.) to'g'ri so'zlaydi."<sup>79</sup>

Peshtoqning yana bir qator rivoyatlarida: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Albatta, Alloh taolo ulamolardan kechirmagan amallarni avomlardan kechiradi", – dedilar. Payg'ambar (a.s.) to'g'ri so'zlaydi."(Payg'ambar) alayhissalom: "Kim ilm talabida bo'lsa, jannat ham uning talabida bo'ladi", – deb aytdilar. Payg'ambar (s. a. v.) to'g'ri so'zlaydi. "Olimu dono Podshoh, (Allohning) elchisi makkalik Muhammad (u zotga va oilasiga Allohning salavot va salomi bo'lsin): "Olimning obiddan ustunligi xuddi Oyning to'lin bo'lgan kechasidagi boshqa yulduzlardan ustunligiga o'xshaydi", – dedi. Payg'ambar (a.s.) to'g'ri so'zlaydi."

Asosiy binoning old tomonida peshtoq, markazida ravoq va burchaklarida ikkita ko'p qirrali minora bor. Peshtoq orqasidagi xona oddiy, ammo salobatli handasiy shakllar yig'indisi (kubsimon prizma, xonaning sakkiz qirrali qismi ustiga tushgan poygumbaz va gumbaz)dan iborat. Kubsimon prizma binoning asosiy hajmi bo'lib, tomonlari 14,6 m ga teng. Uning ustida xona devorlari bo'ylab

---

<sup>79</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" uchinchi kitob Toshkent — 2012. 157-158 betlar

o'tuvchi ravoqlardan iborat 8 qirrali prizma bor. Gumbazning doirali asosiga poygumbaz tutashtirilgan. Poygumbaz sirtiga Qur'on oyatlari bitilib, usti feruza koshinlar bilan pardozlangan gumbaz bilan berkitilgan (qoldig'i ko'rinib turib-di). Uning kirish tomonlari ham bosh peshtoq kabi rang-barang koshinlar bilan qoplangan, sopol g'ishtchalar yotiq, sirlangan rangli g'ishtchalar tik terilgan. Asosiy naqsh shakllari tiniq, lojuvard g'ishtchalardan terilib, ularning oralig'i zangori g'ishtchalar, oq toshlar bilan tuldirilgan. Oddiy handasiy shakllar va pechak kabi chirmashib ketgan yozuvlar bino bezagining tarkibiy qismini tashkil etadi. Mehrobli binoning baland minoralari sathi 4 burchakli kichik namoyonlarga bo'lingan. Handasiy shakl va islamiy naqshlar (turli ranglarda) namoyonlarni bezagan. Ular koshinkorlik uslubida ishlangan.

Jome masjidiga kirish eshigi ustunning yuqorisi va pastida: الملك هلى – “Mulk – Allohnik”; “Boqiylik – Allohga xos”, “Mulk – Allohnik,” “Mening tavfiqim faqat Alloh tomonidan va rahmat – Allohga xos.” degan yozuv bor.<sup>80</sup> Qur'onning “Takosur surasi” (Takosur-to'plab ko'paytirishga berilmoq)da ko'p odamlarning to jonlari chiqib, qabrlariga kirgunlaricha mol-dunyo to'plashga va o'sha arzimas matolar bilan bir-birlariga maqtanishga mashg'ul bo'lishib, Allohni eslashdan va U zot buyurgan Haq yo'lda yurishdan yuz o'g'irganlari bayon etilgan va ularga bu qilmishlari oqibati jahannam ekani to'g'risida xabar beriladi<sup>81</sup>. Darhaqiqat har bir inson ildam qadam tashlab yurarkan o'z ehtiyojini qondirish uchun mehnat qilib risqini topadi. Topgan risqi bilan o'zi, oila a'zolarining ehtiyojini qondiradi. Ortiq boylik va mulkga ega bo'lish halokat zinasiga olib borishini o'zbek xalqining: “Ko'z tuproqqa to'yar”, “Olg'irlik ofat keltirar, Badnafsluk — halokat” degan maqollarida ham asoslangan. Go'ri Amir maqbarasi eshigidagi bu so'zlarda insoniyatni insofga chaqiriq deb qarasak mantiqan to'g'ri bo'lardi.

G'arbiy peshtoqning ravoq ichdagi yozuvlarda Qur'oni karimning “Jum'a” surasi suls xatida yozilgan.<sup>82</sup>

---

<sup>80</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 159-163-bet

<sup>81</sup> “Qur'oni Karim” ning o'zbekcha izohli tarjimasidan. T.: Cho'lpon, 1992. “Takosur” surasi. 520-bet

<sup>82</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” kitobida: Suraning bosh qismi katta oq rangda yozilib, davomi ikkinchi qatorda sariq rangda kichik harflar bilan:

G'arbiy peshtoq kirish eshigining o'ng va chap tomonidagi yozuvlarda "Alloh", محمد – "Muhammad" so'zlari va choryorlarning ismlari bitilgan. Pastki qismida Qur'oni karimdan parcha bitilgan. Unda ixlos surasini o'qishimiz mumkin: "Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan (boshlayman). 1. (Ey, Muhammad!) Ayting: "U Alloh yagonadir. 2. Alloh Samad (ehtiyosiz, hojatbardor)dir. 3. U tug'magan va tug'ilmagan ham. 4. Shuningdek, Uning hyech bir tengi yo'qdir."

G'arbiy peshtoq gumbazning tagida kichik hajmdagi yozuvlarga avval sariq rangli kufiy xatida Qur'oni karimdagi "Oli Imron" surasining 3:96-oyati: Albatta, odamlar (ibodati) uchun qurilgan birinchi Uy – Bakka (Makka)dagi muborak va olamlar uchun hidoyat (manbai) bo'lmish (Ka'ba),- yozilgan. Suls xatida esa oq rang bilan Qur'oni karimning "Baqara" surasi 2:115-oyatining bir qismi: Mashriq ham, Mag'rib ham – Allohnik. Bas, qaysi tarafga yuzingizni qaratsangiz, o'sha tomonda Allohning yuzi mavjud." -bir necha bor takror yozilgan.

G'arbiy peshtoq gumbaz silindrida kufiy xati bilan ikki qator yozuv bitilgan. Dastlabkisida ko'k rangda kichikroq hajmda: القدرة لل – "Kuch-qudrat – Allohnikidir", – deb, katta hajmda oq rang bilan esa البقاء هلى – "Boqiylik – Allohga xos", – deb bir necha bor takror yozilgan. G'arbiy peshtoq g'arbiy ravoqning orqa tomonlarida ham yozuvlar bor. Devorning tana qismiga kufiy xatida الله - "Alloh" محمد - - "Muhammad" – deb yozilgan. Yuqorida katta hajmda suls xati bilan Qur'oni karimning "An'om" surasi 59-oyati yozilgan. Oyati kufiy xatidagi ushbu

---

"Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan (boshlayman). 1. Osmonlardagi va Yerdagi (bor) narsa (mutlaq) Podshoh, (nuqsonlardan) Pok, Qudratli va hikmatli bo'lmish Allohga tasbeh ayting. 2. U (Alloh) omilar (savodsiz kishilar) orasiga o'zlarida bo'lgan, ularga Kitob (Qur'on) va hikmat (Hadis)ni o'rgatadigan (bir) payg'ambar (Muhammad) yuborgan zotdir. Haqiqatan, (ular payg'ambar kelishdan) ilgari aniq zalolatda edilar. 3. (Alloh uni) yana ulardan boshqalarga – ularga yetisha olmaganlarga (dunyoga keyin keladigan insonlarga) ham (yubordi). U Aziz (Qudratli va Hakim (hikmatli) dir. 4. Bu Allohning fazlidirki, uni O'zi xohlagan kishilarga berur. Alloh ulug' fazl sohibidir. 5. Tavrot yuklatilgan (berilgan), so'ngra uni ko'tarmagan (unga amal qilmagan) kimsalarning misoli xuddi kitoblarni ortib ketayotgan eshakka o'xshaydi. Allohning oyatlarini inkor etgan kishilarning misoli naqadar yomondir. Alloh zolimlar qavmini hidoyat qilmas! 6. (Ey Muhammad!) Ayting: «Ey yahudiy bo'lganlar! Agar sizlar (boshqa) odamlarni emas, faqat o'zlaringizni Allohning do'stlari deb da'vo qilsangizlar – agar (shu da'volaringizda) rostgo'y bo'lsangiz – o'limni orzu qilingiz-chi! 7. Qo'llari (bilan) qilib qo'ygan ishlari (Tavrotga xilof qilmishlari) sababli hyech qachon (o'limni) orzu qila olmaslar. Alloh zolim kimsalarni bilguvchidir. 8. Ayting: «Sizlar qochayotgan o'lim, albatta, sizlarga yo'liquvchidir! So'ngra sizlar yashirin va oshkora narsalarni biluvchi (Alloh)ga qaytarilursiz. Bas, (U) sizlarga qilib o'tgan amallaringizning xabarini berur!» 9. Ey, imon keltirganlar! Qachonki, juma kunidagi namozga (azon) chaqirilsa, darhol Allohning zikri sari (imom xutbasini tinglash uchun) harakatga tushingiz va savdo-sotiqni tark qilingiz! Agar biladigan bo'lsangiz mana shu (ish) o'zlaringiz uchun yaxshidir. 10. Bas, qachonki, namoz ado qilingach, yerda tarqalib, Allohning fazli (rizqi)dan istayveringiz. Allohni ko'p yod etingiz! Shoyad (shunda) najot topsangiz. 11. Qachon ular biror tijoratni yoki behuda ishni ko'rib qolsalar, ko'rsatilgan tomonga tarqalib ketib, Sizni (minbarda) tik turgan holingizda tark qilurlar. Ayting: «Alloh huzuridagi narsa (mukofotlar) behuda ishdan ham, tijoratdan ham yaxshiroqdir! Alloh rizq berguvchilarning yaxshisidir! »-bitilgan.

yozuvdan keyin boshlangan: قال الله وتعالى - Ulug' va oily zot Alloh dedi: "59. G'ayb (yashirin ishlar) kalitlari Uning huzuridadir. Ularni Undan o'zga bilmas. Yana, quruqlik va dengizdagi narsalarni (ham) bilur. Biror yaproq (uzilib) tushsa (ham) uni bilur. Yer zulmatlari (qa'ri)dagi urug' bo'lmasin, ho'lu quruq bo'lmasin, (hammasi) aniq Kitob (Lavhul-Mahfuz)da (yozilgan)dir."<sup>83</sup>

G'arbiy peshtoq gumbazlarning ichki tarafida ham yozuvlar bo'lgan. O'tgan davrlardagi qarovsizlik oqibatida ular butunlay yo'q bo'lib ketishiga yaqin qolgan. Shunday bo'lsada, yozuvlarning izidan ("Kahf" surasining 18: 1 – 6-oyatlarini) o'qishning imkoni bo'lgan.<sup>84</sup>

Amir Temur jome masjidining shimoliy ya'ni Siyob dehqon bozori tomonida joylashgan peshtoq ravoqining ichki tomonidagi yozuvlar yo'q bo'lib ketgan. Ravoq ustiga o'rnatilgan gumbaz belbog'ida dastlab kichik hajmda kufiy xati bilan ikki qator qilib ushbu tasbeh bir necha bor takror yozilgan: الملك والملوك 1 Ulug'vorlik egasi bo'lmish... aybu nuqsonlardan poklayman... Mulk va mulklarning egasi bo'lgan Zotni aybu nuqsonlardan poklayman. Katta hajmda esa Qur'oni karimdagi "Niso" surasining 4:103-oyati yozilgan. "Alloh taborak va taolo dedi:. ...Zero namoz mo'minlarga vaqti tayin etilgan va (farz etib) bitilgan. Buyuk Alloh to'g'ri so'zladi."<sup>85</sup>

Masjidning sharqiy tomonidagi ravoqlarida ham yozuvlar mavjud. Ularda Allohni ulug'lovchi jumlar hamda hadis bitilgan. Bu matnlar masjidining shimoliy va janubiy tomonlaridagi qo'shimcha eshiklar va ravoqlarida takrorlanadi. Xadis matni: "Payg'ambar alayhissalom: "Qorong'i kechalarda masjidga boruvchilarga qiyomat kuni to'liq nur berilishining xabarini bering", – deb aytdilar." Ushbu ravoqning orqa tomonidagi panjara ustida (suls va kufiy

<sup>83</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" uchinchi kitob Toshkent — 2012. 175-179 betlar.

<sup>84</sup> Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman). 1-2-3. (O'z) bandasi (Muhammad)ga Kitob (Qur'on) ni nozil qilgan zot (Alloh)ga - hamd!. Uni (Qur'onni ma'no va mazmunda) qing'ir qilmadi, (balki, u) to'g'ri (haq va rost)dir. Huzuridan (keluvchi) qattiq azob bilan ogohlantirish va ezgu ishlarni qiladigan mo'minlarga yaxshi mukofot (jannat) xushxabarini berish, (darvoqe, ular) u yer (jannat)da mangu qoluvchilardir, shuningdek, "Allohning farzandi bor" deganlarni ogohlantirish uchun (Kitobni nozil qildi). (Mushriklar) zotan, uni (farzand mohiyatini) o'zlari ham, ota-bobolari ham (yaxshi) bilmaslar. Og'izlaridan chiquvchi (bu) so'z og'irdir. 6. (Ular) faqat yolg'onni so'zlaydilar. (Ey Muhammad!) Ular ushbu So'zga (Qur'onga) imon keltirmasalar, ehtimol, Siz ularning ortidan, afsuslik bilan o'zingizni halok qiluvchidirsiz?!"

<sup>85</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar "Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar" uchinchi kitob Toshkent — 2012. 184-185 betlar.



xatida) yozuvda: “ Payg’ambar alayhissalom: "Ilm o’rganish – har bir musulimga farz", – deb aytdilar.” Ya’ni har bir er kishi bilimli bo’lishi shartligi ta’kidlanmoqda. Oila boshlig’i to’g’ri qaror qabul qilishi uchun ham aqlan kuchli bilimga ega bo’lishi darkor. Chunki har bir qabul qilingan qaror oila, jamiyat uchun foydali va mustahkam poydevor bo’lmog’i zarur.

Masjidining janubiy tomonida joylashgan namozxona ustiga o’rnatilgan gumbaz belbog’ida kufiy va suls xati bilan ikki qator qilib tasbeh (bir necha bor takrorlanib<sup>86</sup>) va hadis yozilgan. “ Payg’ambar alayhissalom: “Vaqti o’tmasdan oldin namozni o’qishga, o’lmasdan oldin tavba qilishga shoshiling”, – deb aytdilar.”<sup>87</sup>

Masjid burchaklarida xushbichim minolar qad roslagan bo’lib, hozirda faqat shimoli – g’arbiy balandligi 18,2 metr bo’lgan minoraning pastki qismigina saqlanib qolgan. Ularning peshtoqlariga 360 ta oyat bitilgan. Masjid minoralarining yuqori qismiga kufiy xatida: الملك هلال، البقاء هلال الحمد هلال، العظمة هلال – “Mulk – Allohnik”, – “Boqiylik –Allohga xos”, “Allohga shukr”, “Buyuklik – Allohga xos”, – deb yozilgan. Pastki qismida suls xatida qur’oni karimdagi “G’ofir” surasining 40:64-oyati yozilgan: “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman:) Alloh sizlar uchun Yerni qarorgoh, osmonni tom qilib qo’ygan va sizlarga surat (shakl) berib, suratlaringizni go’zal qilgan hamda sizlarni pok narsalardan rizqlantirgan zot. Mana shu Alloh – Parvardigoringiz. Bas, (barcha) olamlarning Parvardigori bo’lmish Alloh barakotli.”

Masjid minoraning tana qismiga katta hajmda kufiy xati bilan: يا سلطان – “Ey Sulton”, – deb yozilgan.

Bu jozibador binoning ichki devorlari manzarali lavhalar bilan bezalgan. Devorda kufiy xatida Qur’oni karimning “Ixlos” surasi yozilgan (112 sura)<sup>88</sup>.

<sup>86</sup> Tasbeh matnlari va tarjimalarini yuqorida jome masjidining shimoliy tomonida joylashgan peshok e’zuvarlari takrorlaydi (xatolari ham shu tarzda takrorlangan).

<sup>87</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 191-bet.

<sup>88</sup> O’zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar”/albom/ O’zbekiston madaniyati va san’ati forumi jamg’armasi. T-2011. 99-bet

Bu yozuvning tarjimasi: 1. (Ey Muhammad), ayting: “U-Alloh Birdir. (Ya’ni uning hech qanday sherigi yo’qdir. U yakka-yu yolg’izdir). 2. Alloh (barcha hojatlar bilan) ko’zlanguvchidir (ya’ni barcha hojatlar Undan so’raladi, ammo U hech kimga muhtoj emasdir). 3. U tug’magan va tug’ilmagandir (ya’ni, Allohning o’g’il-qizi ham, ota-onasi ham yo’qdir. U azaliy va abadiy zotdir). 4. Va hech kim U zotga teng emasdir”<sup>89</sup>.

Masjid peshtoqida yozuv bo’lgan. Ammo bu tarixiy yozuv saqlanmagan. Uni Samarqand davlat muzeyi – qo’riqxonada fondida saqlanayotgan fotosurat asosida o’qilgan: “Bu jomening qurilishini bitirish ulug’ sulton, din va dunyo qutbi Amir Temur Ko’ragon ibn Amir Tarag’ay ibn Burgul ibn Ijil ibn Ilangir ibn Amir Qarochor No’yonga muvaffaq bo’ldi. Alloh taolo uning saltanatini abadiy qilsin. Sakkiz yuz oltinchi [milodiy 1403] sana.”<sup>90</sup>

Xulosa qilib shuni ta’kidlamochimanki, me’moriy inshootlarda turli shakl va uslubdagi yozuvlarga duch kelar ekanmiz, asosan Jome masjidi yozuvlarida kishilarni iymon-e’tiqodli bo’lishga da’vat etilganini ko’ramiz. Misol, kirish eshigida-“bu dunyo bir lahzadir. Uni toat-ibodat bilan o’tkaz” iborasida adolatga ham chaqirilayotgani guvohi bo’lamiz. Masjidning sharqiy tomonidagi panjara ustidagi “Ilm o’rganish – har bir musulimga farz”, -kelajak avlod uchun hayot maktabi vazifasi ham o’tashi aniq. Xattotlar yozuvni yodgorlik bezagiga aylantirishga intilgan. Shuning uchun bu bitiklarni o’qish murakkabroq. Ushbu maqbara hozirgi avlod uchun ma’naviy va ruhiy kuch timsoli bo’lib, Vatan ravnaqi yo’lida irodasi mustahkam xalqimizni birlashtiruvchi maskan ramzi bo’lib qoladi.

### **III-BOB. SAMARQAND REGISTON MAYDONI ME’MORIY OBIDALARI PESHTOQ YOZUVLARI**

#### **3.1. Ulug’bek madrasasi**

---

<sup>89</sup> Qur’oni Karim, Ixlos surasi-112 (o’zbekcha izohli tarjima Alouddin Mansur, T. Cho’lpon, 1992) 530-bet

<sup>90</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” uchinchi kitob Toshkent — 2012. 209-bet

Registon maydonida qad rostlab turgan Ulug'bek madrasasi (bal. 16,5 m), uning 2 yonida guldastalar (bal. 32 m) bor. Ichki qismida hovli, 54 hujra va to'rt burchagida katta darsxonalar va ayvonlardan iborat bo'lgan. Ushbu binoning me'mori Qavomiddin Sheroziy.

Tarixdan bizga ma'lumki XV asr barcha me'moriy obidalarida Alloh, uning rasuli Muhammad madh etilib borilgan. Bu bitiklarni Mirzo Ulug'bek madrasasi kirish peshtoqining ichki ravoq kitobasi tepa qismida ham kuzatishimiz mumkin. Misol, kufiy xatidagi –“Buyuklik Xudoga xos”, “Kuch-qudrat Xudonikidir”, – kalimalari, pastida suls xatida bitilgan:“Yolg'iz Allohdan o'zga Iloh yo'q, uning sherigi yo'q. Butun mulk va hamd U uchundir. U zot tiriltiradi (hayot beradi) va o'ldiradi, va u zot doimiy tirikdir, o'lmaydi. Yaxshilik Uning qo'lidadir va U har bir narsaga qodirdir<sup>91</sup>” -“Tavhid” kalimalarida bunga guvoh bo'lishimiz mumkin. Madrasa peshtoqdagi katta kufiy harflar bilan bitilgan yozuvdan:“Bu yer u bilan bezalgan va ko'k uning uchun egilgan binodir. ...Baland bino osmondadir. Uning qurilishini ... (?) siyosat va hukmda eng yaxshisi, saltanat va millatni jam qilgan .. Alloh uning Yer yuzidagi xalifaligi va asarlarini abadiy aylasin! Uning baxtli bobosi ... (?) sakkiz yuz yigirma uchinchi yillarda (1420)..”<sup>92</sup> - qurib bitkazilgan hijriy sanasi binoning tarixiy davri haqida bizga ma'lumot beradi.

Madrasa peshtoqning ichki katta ravog'ining ichki qismida kitobaning pastki qismida suls xatida Qur'oni karimdagi “Oli Imron” surasi (3:1–8-oyatlari), tepasida esa kufiy xatida Allohning 99 go'zal ismidan ayrimlari bitilgan:„U – Alloh, shunday zotdirki, Undan o'zga Iloh yo'qdir. (U) mehribon, rahmli, podshoh, (barcha aybnuqsonlardan) pok, (bandalariga) omonlik beruvchi, kuzatib turuvchi, qudrat sohibi, bo'yin sundiruvchi va kibr egasidir. U Alloh yaratuvchi, (yo'qdan) bor qiluvchi, barcha narsaga surat va (shakl) beruvchi, gunohlarni kechiruvchi, qahr qiluvchi, ne'mat beruvchi, rizq ulashuvchi, zafar quchuvchi, barcha narsani biluvchi zotdir”<sup>93</sup>. Oli Imron surasida shuningdek ilm fanni o'rganish bilan sobit

---

<sup>91</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 25 bet

<sup>92</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 27-bet

<sup>93</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 29-bet

bo'lganlar iymon keltirishlari bitilgan. Qur'onda „mushtaboh“ so'zida o'xshash, birini-biridan ajratish qiyin, bir necha ma'nolarni anglatadigan degan ma'nolarni kelib chiqishidan xulosa chiqarsak bunda peshtoqdagi yozuvning axloqiy me'yorlarga, ya'ni o'qish, bilim olishga ham doimiy ravishda urg'u berilmoqda.

Madrasada shuningdek davlat ravnaqi uning mavqei va shon shuhrati ilm-fanga bog'liqligi ham madh etilgan. Buni peshtoqning katta ravog'idagi sariq harf bilan yozilgan: “Dunyo manzillarini yuqori ko'tarishga asos solishning afzali va oxirat maydoni, qurilishi mustahkamligiga erishishning eng mukammal yo'li — hidoyat va ilm qoidalarini tuzish, shariat va fatvo maskanlarini bunyod etish, xususan, olimlar makon qiladigan oily maqomlarni bino qilish” –gaplarida anglashimiz mumkin.

Madrasaning tarixiy o'rne, qurilishi boshlanishi, kimning buyrug'i va homiyligida bino qilingani haqidagi ma'lumot peshtoq tepa qismida oq harfda yozuvda o'z aksini topgan. “Binoning sha'niga: “Ushbu (oyatlar) odamlar uchun dil ko'zgularidir va aniq ishonadigan kishilar uchun hidoyat va rahmat (manbai)dir” (Qur'oni karimning “Josiya” surasi, 20-oyat),-deb aytilishi loyiq. Ilm va ehson binolarining bunyodkori, dunyo va din amallariga yordam beruvchi Sulton ibn Sulton ibn Sulton Ulug'bek Ko'ragon ushbu nurli madrasani qurishga muvaffaq bo'ldi. Alloh taolo uning saltanatining qasrlari qurilishini mustahkam va mamlakati taxtining asosini yuqori va bu baland madrasa hujralarida yashashimiz uchun bizga umr ato qilsin. Bu baland madrasa ushbu “Bob (al-) qutton”ga (ya'ni: “Miskinlar darvozasi”. “Bob ul-qutton” — Registon joylashgan maydoning eski nomi) o'rnatildi. “Sizlarga salom! Xush keldingiz! Bas, unga mangu qoluvchi bo'lgan holingizda kiringiz” (Qur'oni karimning “Zumar” surasi, 39:73-oyat). Sakkiz yuz yigirmanchi (hijriy) sanada [1417].”<sup>94</sup> Zumar surasining mazmunidan kelib chiqib xulosa qilsak, ushbu madrasa jannat dargohi darajasiga o'xshatib, abadiylikga eltuvchi maskan darajasiga o'xshatilgan.

Peshtoqning katta ravog'ida:“Ilm foniy bo'lmaydigan xazinadir.” Ilm bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu

---

<sup>94</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 31-bet

niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi. Ilmli shaxs doimo davlat va jamiyatga o'zining intellektual salohiyati bilan adolat yo'lida xizmat qiladi.

Madrasa peshtoqning ikkala ustunida ravoqlar ichida katta kufiy harflari bilan : “Alloh ulug’”,– “Ey abadiy tirik (Zot)” zikr etilgan kalimalar takroran bitilgan. Katta ravoqning tashqi perimetrida o'ralgan (bovliq shaklda yasalgan) bezak ikkala tagida suls xatida kalimalar bitilgan. “ “Muvaffaqiyatim faqat Allohdan”, “Minnatdorchilik Xudoga”.” Shu yozuvning tepasida kufiy xatida اكبر – هال “Alloh ulug’”, – so'zlari bitilgan. Bu so'zlarning ustunga yozilishida menimcha Alloh nigohiga bo'lish uchun faqat yuqoriga intilish, ya'ni bilimlarni egallash asosida amalga oshirish mumkinligidir. Chunki inson qancha ko'p ma'lumotlarga erishsa uning dunyoqarashi shu darajada yuksalaverishi barchaga ayon.

Ulujbek madrasasi shimoli-sharqiy minorasida: “Alloh sizlar uchun Yerni qarorgoh, osmonni tom qilib qo'ygan va sizlarga surat (shakl) berib, suratlaringizni go'zal qilgan hamda sizlarni pok narsalardan rizqlantirgan zotdir. Mana shu Alloh – Parvardigoringizdir. Bas, (barcha) olamlarning Parvardigori bo'lmish Alloh barakotlidir“<sup>95</sup> – deb yozilgan. Bu joydagi yozuvdan insonga berilgan imkoniyatlardan to'g'ri maqsad yo'lida foydalanishlariga urg'u berilmoqda. Madrasa minorasiga yozilishidan kelib chiqsak, bu maskanga kelib o'qishlari va ilm olishga da'vat etilmoqda. Ilmli kishi pok narsalarni, ya'ni halolni haromdan farqiga bora olishi shu davr mumkin.

Madrasa ikkala minorasining tanalarida kufiy xatida– “Ey Alloh”, “Ey abadiy tirik va qoim (Zot)”, “Boqiylik Allohga xos”, – kalimalari takrorlangan. Minoralarning tag qismlarida kufiy xatida Rasululloh (s. a. v.) ning hadislarini: „Rasululloh (s. a. v.): “Dunyo bir soatdir. Uni toat bilan o'tkaz”, – deb yozilgan”.<sup>96</sup> Bu joyda insoniyatni insofga chaqirib, odob-axloqli bo'lishga chaqir-moqda. Darhaqiqat Hadisdagi „Dunyo bir soat“ iborasida keng ma'no yashiringan. Insoniyat necha yil umr ko'rmasin, shunchalik tez o'tganligini ma'l-um yoshga

---

<sup>95</sup> “Qur'oni Karim” ning o'zbekcha izohli tarjimasidan. T.: Cho'lpon, 1992. “G'ofir” surasi 40:64-oyat

<sup>96</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011.. 49-bet

yetganida ham anglaydi va nimalargadir erisholmaganini tushunadi. Shuning uchun bu iboralarga har bir o'tayotgan va o'tkazayotgan vaqtdan oqilona foydalanish kerakligiga da'vatdir.

Peshtoqning marmar panellarida ham bitiklar mavjud. Uning tepa qismlarida kufiy xatida: الملك لل ۋ، البقاء لل ۋ، الشكر لل ۋ، العظمة لل ۋ – “Mulk Xudoni-kidir”, “Boqiylik Xudoga xos”, “Shukr – Xudoga”, “Buyuklik Xudoga xos”; Pastida esa suls xatida Rasululloh (s. a. v.)ning hadislari: “Rasululloh (s. a. v.): “Olim bo'l yoki ta'lim oluvchi bo'l, eshituvchi bo'l yo (ilmni) sevuvchi bo'l. (Beshinchi toifadan, ya'ni ilmga befarqlardan bo'lmaki, halok bo'lasan)”, – deb o'yib yozilgan. (Payg'ambar) alayhissalom yana: “Kim olimni ulug'lasa, bas, meni ulug'lagan bo'ladi”, – dedilar. Rasululloh to'g'ri aytdilar.”<sup>97</sup> Bu marmar panellarining balandligi odam bo'yi ekanligini nazarga olsak insoniyat uni ko'rishi va o'qishi juda qulay joyda bitilgan. Bunda doimo bu so'zlarga nigohi tushib, doimo shukrona qilishlari va to'g'ri amallarga qo'l uzatishlariga shama etilmoqda. Hadislardan keltirilgan iboralardagi ta'lim oluvchi, eshituvchilarga befarqlikdan asranishlariga da'vati bu Vatan tinchligi va ravnaqiga katta urg'u berilmoqda. Befarqlik jamiyatning tanazzuli mahsulidir. Misol uchun, 1999- yilning 16- fevralida Toshkentda yuz bergan qo'poruvchilik harakati barchamizni sergak bo'lishga, mustaqilligimizni himoya qilishga tayyor turishimizni ko'rsatdi. 1999-yil 16-fevral kunidagi mazkur fojiali voqealardan 2 soat keyin Vazirlar Mahkamasining yig'ili-shida Prezidentimiz Islom Karimov yana bir bor xalqimizga quyidagi so'zlar bilan murojaat etdi: „Men, ey odamzod, ogoh bo'linglar, ogoh bo'linglar, ogoh bo'linglar, deb kuyib-yonib da'vat etaman. Bu gap ehtimol ba'zi birovlar uchun ortiqchaday tuyular. Lekin men ogohlik, ogoh bo'lish haqida gapirganimda bugungiga olxshash voqealarni nazarda tutaman”.<sup>98</sup>

Mirzo Ulug'bek madrasasi hujra eshiklari ustidagi yozuvlarda ham pand-nasihat tariqasida yoshlarni tartib-intizom va adolatga chorlovchi bitiklarning guvohi bo'lamiz. Bu yozuvlarda quyidagi o'gitlar bitilgan: “Albatta, Alloh

<sup>97</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 50-51-betlar

<sup>98</sup> Islom Karimov. Asariar, 8-jild, 7, 8- betlar.

bandaning tavbasini, agar u g'arg'ara holiga borib qolmagan bo'lsa, qabul qiladi; Hech bir ota farzandiga go'zal tarbiya va yaxshi odobdan ortiq bir tuhfa in'om etolmaydi; Olim bo'l yoki ta'lim oluvchi bo'l, eshituvchi bo'l yo (ilmni) sevuvchi bo'l. (Beshinchi toifadan- ya'ni ilmga befarqlardan bo'lmaki, halok bo'lasan); Ilm – ibodatdan afzal. Dinning asosi vara'(taqvo)dir; Dinningni xolis qil, (shunda) amalning ozi ham senga kifoya qiladi; Yaxshilik qilish yomon falokatdan (o'limdan) saqlaydi; Sizlarning eng yaxshilaringiz Qur'onni o'rganib, uni boshqalarga o'rgatganlarin-gizdir; Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih qilib qo'yadi; O'zingga ravo ko'rgan narsani birovlariga ham ravo ko'r; Amal qilaveringlar! Zero barchaga o'zi uchun yaratilgan amal oson qilingan; Ilmni yozish bilan bog'lang (mustahkam qiling!); Biron narsani qarzga berish – uni sadaqa qilishdan yaxshi;

Halol (rizq) talab qilish – har bir musulmonga vojib; Yaxshilikka boshlovchi kishi yaxshilik qilgan bilan teng savobga ega bo'ladi; Kishining qiymati uning aqli bilan o'lchanadi. Aqli yo'q odamning dini yo'q; Xulqingni to'g'rila, insonlarga yaxshilik qil<sup>99</sup>; Ilm o'rganish – har bir muslimga farz; Va'daga chiroyli vafo – imondan; Albatta, ilm tolibiga barcha narsa, hatto, suvdagi kitlar ham istig'for aytadi; Alloh-dan foydali ilm so'rang. Undan foydasiz ilmdan asarshini tilang; Olimning obiddan ustunligi xuddi Oyning boshqa yulduzlardan ustunligiga o'xshaydi; Kim yaxshilikka mushtiq bo'lsa, yaxshilik qilishga shoshiladi; Ilm – dunyoda izzat va oxiratda sharaf keltiradi; Ilmni man qilish (o'rgatmaslik) halol emas. Payg'ambar to'g'ri aytdilar; Kim ilm izlab chiqsa, to qaytgunicha Allohning yo'lida bo'ladi; Ilmning ofati – unutish va ilm ahlidan boshqalarga gapirish ilmni zoye qilish bo'ladi; Insonlarning yomoni – insonlar orasidagi soxta olimlar; Ilm – dunyoda izzat va oxiratda sharaf keltiradi.<sup>100</sup>; Bir soat (o'zaro) ilm o'rganish – kechani (nafl ibodati bilan) bedor o'tkazgandan yaxshi; Ilm talab qilish – amallarning afzali. Payg'ambar to'g'ri aytdilar.” –degan o'gitlar o'z aksini topgan.<sup>101</sup>

---

<sup>99</sup> Hadis kitoblarida: – “To'g'ri bo'l va va xulqingni chiroyli qil”, – tarzida ham keltiriladi.

<sup>100</sup> Mazkur hadis hazrat Ali hikmatlarida – “Ilm tolibi uchun dunyoda azizlik va oxiratda najot bordir” shaklida keladi.

<sup>101</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 62-105-betlar

Bu o'g'itlardan "Hech bir ota farzandiga go'zal tarbiya va yaxshi odobdan ortiq bir tuhfa in'om etolmaydi" so'zida kelajak avlodga nafs balosiga uchrab otalaridan meros, boylik, mulk kabilarga ruju qo'yib talablar qo'ymasligiga da'vat etilmoqda. Hammaga ma'lumki meros talashish aka-ukalarni bir-birlaridan uzoqlashtirgan. Yoki, ilm o'rganish bobidagi o'gitlariga to'xtalsak. Misol: "Ilm – ibodatdan afzal. Dinning asosi vara'(taqvo)dir; Ilmni yozish bilan bog'lang; Ilm o'rganish – har bir muslimga farz; Ilm – dunyoda izzat va oxiratda sharaf keltiradi; Ilmning ofati – unutish va ilm ahlidan boshqalarga gapirish ilmni zoye qilish bo'ladi; Ilm talab qilish – amallarning afzali"-iboralari pand-nasihat tariqasida yoshlarga doimo bilimli bo'lishlariga da'vat etilmoqda.

Madrasa hovlisining peshtog'i bosh kitobasida suls xatida "Nur" surasining 23: 36–37-oyatlari yozilgan. Tepasida kufiy xatida "Ixlos" surasi bitilgan. Madrasa hovlisining peshtoq atrofidagi yozuvning aksariyat qismi ta'mirlangan. Pastgi qismida suls xatida Qur'oni karimning "Nozi'ot" surasi (79) yozilgan. Tepasida kufiy xatida Qur'oni karimning "Toriq" surasi (86) bitilgan. Madrasasi hovlisining kitobalarning ikki yon tomonlarida kufiy xatida Rasululloh (s. a. v.)ning hadislarini keltirilgan. "Rasululloh (s. a. v.) aytdilar: "Ilm – dunyoda izzat va oxiratda sharaf keltiradi", – deb aytdilar."<sup>102</sup> Qur'onning "Nozi'ot" surasi asl mazmuniga nazar tashlasak unda insonlarni nafs balosidan asranishlari va havolanib ketmasliklariga da'vat etilmoqda. Keltirilgan Hadis ham shu mazmundan kelib chiqib, ilm olgan kishi ma'lum vaqt davomidan boshlab shon-sharafga erishishiga yetaklamokda. Nur surasining 36-37 oyatining mazmunidan kelib chiqsak, unda Alloh insoniyatga o'z nomlarini abadiyatga yozib qoldirishga izm berganligi qayd etilgan. Qay bir ish bilan shug'ullanishlaridan qat'iy nazar, namozni kanda qilmasliklari aytilmoqda. Namoz bilan o'z ishlariga berilib Alloh yo'l (to'g'ri amallar) idan o'g'ishmasliklarini eslatmoqda. Madrasa ilm maskani va u barchaga izzat va sharaf keltirishini hovli kitobasida yozilishi har bir kirib uni o'qigan kimsani shu sifatlarga erishishiga xitobdir.

---

<sup>102</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 111-113-betlar



Guldastalarning tag qismida kufiy xatida **السلطان** – “Podshohlik Xudo uchundir”, – kalimasi va **محمد** – “Muhammad” ismi yozilgan.

Madrasasi hovlisining peshtoqning ravog'idagi yozuv qisman ta'mirlangan. Bu yerda suls xatida Rasululloh(s. a. v.)ning hadislari bitilgan. Unda:“ Payg'ambar (s. a. v): “Ilm talab qilish har bir muslim va muslimaga farzdir” – deb aytdilar. Payg'ambar (s. a. v): “Ilmni, garchi Xitoydan bo'lsa ham, egallanglar!” – deb aytdilar. Payg'ambar (s.a. v): “Olimning obiddan afzalligi xuddi mening sizning eng kichigingizdan afzalligimga o'xshaydi”, – deb aytdilar. Alloh taoloning payg'ambari rost so'zladi.”<sup>103</sup> Hovlining peshtoq ravog'idagi bu yozuvlarni tolibi ilm vakillari har bir qadamlari va qarashlarida o'qib bu o'gitlarning mazmunini chaqib oladilar. Bu o'gitlar hozirda ham o'z jilosini yanada boyitmoqda. Ilm yo'lida izlangan ota-bobolarimiz biz uchun qoldirgan o'gitlari va ularning amalga oshirgan ishlari mana yillar o'tgan bo'lsada jahon xalqlari tomonidan izzat etib kelinmoqda.

Madrasasining hovlisidagi g'arbiy peshtog'idagi kitobalarning ikki yon tomonlarida kufiy xatida Rasululloh (s. a. v.)ning hadislari keltirilgan. To'rtburchak ichidagi kartushda kufiy xatida: “Allohning rasuli (unga Allohning solati va salomi bo'lsin): “Ilm – dunyoda izzat va oxiratda sharaf keltiradi”, – dedi.” Darhaqiqat har bir ilm-ma'naviy boylikga ega bo'lgan shaxs o'zining olgan bilimi asosida boshqalarga ko'rsatgan yo'l-yo'rig'i bilan izzat topib ezozda bo'ladi. Sharq olamida mahallada bunday kishilarsiz o'z maraka va tadbirlarini o'tkazmasliklarini barcha biladi.

Madrasasining hovlisidagi g'arbiy peshtog'i tepa qismida oq harflar bilan davom ettirib: “...Tangri xoqonlarning izzatlisi, (buyuk davlatni) ilm-ma'rifat tarqatish bilan qo'shib boshqaruvchi, boshqa podshohlardan hay'at ilmlarining xususiyatlari bilan imtiyozlangan, din, millat, adolat va to'g'ri ishlarning homiysi, sulton Ulug'bek ibn Amir ShohruxAmiri Kabir Temur Ko'ragon o'g'lining saltanatini bardavom ettirsin, ishlarini ikki dunyoning yuksak martabalariga

---

<sup>103</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011.. 116-117-betlar

ko'tarsin va olam ahliga marhamat va yaxshiligini ziyoda aylasin. Hijriy hiloliy 822 (1420) yil. ”<sup>104</sup>-deb yozilgan. Manbalarda qayd etilishicha, barcha olimlar bilan Ulug'bekning o'zi bevosita suhbat o'tkazgan va ilmi mukammalligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, mudarrislikga ruxsat bergan.

Madrasasining hovlisidagi g'arbiy peshtog'i ichki ravoqning o'ng va chap devorida oq rangda kufiy xatida: “Mulk Xudonikidir”, “Xudoga shukr”, – kalmialari yozilgan. Pastida suls xatida yashil rangda Rasululloh(s. a. v.)ning hadislari bitilgan. “Payg'ambar alayhissalom aytdilar: “Oliyhimmatlilik – imondan.” Iymone'tiqodli inson o'zligini hech qachon yo'qotmasligiga tarix guvoh. Ma'nan boy xislatlarga ega kishi himmati cheksiz bo'lishi sharq hukumdor va rahbarlariga xos xislat bo'lgan va bo'lib kelmoqda.

Madrasasining hovlisidagi g'arbiy peshtog'i ichidagi sakkiz qirrali kitoba (kartush) ichida yozuvda: “Tavahhud, Alloh, Muhammad, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali” – degan so'zlar 8 marta takror yozilgan.

Ichki ravoqning o'ng va chap devorida joylashgan ikki kitobada oq rangda kufiy xatida – اللّٰه الشّكر -Xudoyi taologa shukr”, – kalimalari yozilgan. Pastida suls xatida tilla rangda Rasululloh(s. a. v.)ning: “Ilm qalblar obodligi va amal gunohlar kafforati hisoblanadi”<sup>105</sup>-degan hadislari bitilgan.

Ichki ravoqning o'ng va chap devorida joylashgan kitobada oq rangda kufiy xatida – “Haqiqiy ochiq-oydin podshoh bo'lmish Allohdan o'zga Iloh yo'q”, – kalimasi yozilgan. Pastida suls xatida tilla rangda: – “Allohdan o'zga iloh yo'q va faqat Ungagina ibodat qilamiz”, – degan duo bitilgan. Ravoqning ichki devorida kufiy xatida محمد نبى – “Muhammad payg'ambardir”, – kalimasi yozilgan.”<sup>106</sup> Darhaqiqat bu yozuvdan qay maqsad ko'zlangan degan savol keladi inson tafakkurida. Barcha tarixiy bosqichlarda diniy qarashlar ne-ne urush va fojialarni keltirganini barcha eshitib, o'qib joyi kelsa ko'rib yurmoqda. Bu yozuvlarda ham ayni shu holatlarning oldini olish ko'zlangandir. Yolg'iz Allohga etiqod qilish

<sup>104</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 131-bet

<sup>105</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 133-137-bet

<sup>106</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 139-141 betlar.

insoniyatni falokatdan asraydi, madrasaga kelgan talabalarni bir-biriga qadrli do'st bo'lishlariga chorlagan bo'lsa shubhadan xoli.

Madrasasining hovlisidagi g'arbiy peshtog'ining kungirasida oq harflarda kufiy xatida محمد – “Muhammad” ismi 8 marta takroriy tarzda yozilgan.

Madrasasi hovlisidagi janubiy peshtog'ning katta kitobasida kufiy va suls xatida Qur'oni karimdan parchalar bitilgan. Unda: “.... Insonlarning yaxshisi (Muhammad payg'ambar s . a. v.): “Ilm — qalblar obodligi va johillik ayblarni ochuvchidir” — deb aytdilar. “Kim ilm talab qilsa, o'tgan narsalarga kafforat bo'ladi”. Olimlar payg'ambarlardan keyin xalq o'rtasida tinchlik saqlovchilardir”. Payg'ambar alayhissalom: “Dunyoda amallarning eng afzali ilm va [ilmda] tirishqoqlikdir”, — deb to'g'ri aytdilar. ” <sup>107</sup> Bu yozuvdagi mazmun-mohiyatini barcha o'z salohiyati bilan tahlil eta olishi aniq. Hovlisidagi bu g'oyalar ilm izlaganlar tarixdan xabardor bo'lishlari va bu bilimni yetkazayotgan olimlarni ezozlashlarini nasihat qilib yozilmoqda.

Madrasasi hovlisidagi janubiy peshtog' ravoq ichining tepa qismida joylashgan bezaklar o'rtasida to'rtburchak pano atrofida – محمد “Muhammad” ismi ikki marta yozilgan.

Madrasasi hovlisidagi sharqiy peshtog' ravoqlarining ikki old qismi pastida oq rangda kufiy xatida Rasululloh(s. a. v.)ning hadislari yozilgan. “Rasululloh (s. a. v.) : “Ilm dunyoda azizlik va oxiratda sharaf keltiradi”, – deb aytdilar. Ravoqining ichida (ikkala tomonida) joylashgan ko'k manzarali kitoba ichida kufiy xatida:“Yolg'iz Allohning o'zidan boshqa Iloh yo'q.” “Uning sherigi yo'q. Mulk Unikidir.” - kalimasi yozilgan.

Madrasasi kirish darvozasidagi kitobada suls xatida الحمد لله على دين الإسلام – “Islom dinini (berganiga) Xudoga shukr”, – kalimasi bitilgan. Tepasida kufiy xatida الملك هـ لشكر الله – “Xudoga shukr”, “Mulk Xudonikidir”, – kalimalari qayd etilgan. Darvozada yozilgan bu iboralarni madrasadrasaga kirgan har bir tolibi ilm nigohi tushib, o'tayotgan kuniga, qilgan va qilayotgan ishlariga va har bir qadamiga shukrona aytishiga bir nasihatnomadir.

---

<sup>107</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 147-149 betlar

Madrasasi kirish darvoza o'grahasining tepa qismida sana bitilgan. “1327/1909 yil.” Kirish darvozaning tepasida o'n ikki burchakli yulduzsimon gireh ichida kufiy xatida tasbeh kalimasi va Rasululloh (s. a. v.)ning: “Podshohlik va qudrat egasi – Allohga tasbeh aytamiz. Ilmni, garchi Xitoyda<sup>108</sup> bo'lsa ham, izlanglar!”<sup>109</sup>- degan hadislari bitilgan.

Xulosa qilib aytganda Samarqanddagi XV asrda qurilgan Mirzo Ulug'bek madrasasi sharq me'morchiligining eng nodir yodgorliklaridan bo'lib, haqli ravishda o'rta asr musulmon arxitekturasining noyob durdonasi deb hisoblanadi. Ulug'bek madrasasi me'moriy shakli, tuzilishi jihatidan O'rta Osiyo me'morligida shu turdagi binolar orasida eng mukammal yuksak san'at namunasi. Madrasa peshtoq yozuvlarida komil inson tarbiyasiga e'tibor yaqqol ko'zga tashlanadi. Har bir shaxs, kishining qiymati, tafakkuri mahsuli bo'lmish aql, odob, ilmi bilan o'lchanishini o'z amali deb qabul qilsa, uning ishi barakali bo'ladi. Zamonaviy ilmga, dunyoqarashga, milliy o'zlikni anglashiga, Vatanga sadoqat, tarixiy xotiraga ega bo'lish- hukumatimiz yuritayotgan odil siyosatining inikosidir.

### **3.2. Sherdor madrasasi**

XVII asrda Registon maydoni buyuk siyosiy arbob Yalangto'sh Bahodir farmoni bilan to'liq ta'mirdan chiqarildi. XV asr binolari o'rniga bu yerda Sherdor madrasasi va Tillakori masjidi qad rostladi. Sherdor madrasasi 1619—1636 yillar oralig'ida bunyod etilgan. U ikki asr oldin qurilgan diametri 15 metr bo'lgan katta gumbazli Ulug'bek xonaqohi o'rniga qad rostladi. Sherdor madrasasi tuzilishiga

---

<sup>108</sup> Ilk musulmonlar tasavvurida Xitoyga dunyoni chegarasi sifatida qaralgan. Demak hadis: “Ilmni, hatto, dunyoning chekkasida ham izlanglar”, – degan ma'noda tushunish lozim.

<sup>109</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011.. 173-175 betlar

ko'ra Ulug'bek madrasasiga o'xshaydi. Sherdor madrasasining kattaligi Ulug'bek madrasasi bilan deyarli bir xil. Madrasa ravog'idagi yozuvlarida binoning me'mori Abdujabbor va bezak ishlariga mas'ul Muhammad Avazi Samarqandiyning ismlari bitilgan.

Sherdor madrasasi bosh peshtoqi yon atrofida kufiy xatida tasbeh (Allohn ulug'lovchi kalimalar) bitilgan. "Alloh – barcha aybu nuqsonlardan pok, Allohga hamd bo'lsin va Allohdan o'zga Iloh yo'q. Alloh – buyuk. Kuch-quvvat faqat buyuk va oliy Allohdir."<sup>110</sup> Bu matndan bu o'tkinchi dunyoda insoniyatni gunohkor bandaligi va faqat yagona Alloh bundan mustasno ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Mazkur matn asosida o'sha davr mafkurasida chuqur iz olgan yagona Allohga e'tiqod o'z aksini topgan. Bunday baland binolarni qura olish imkoniga ega bo'lsakda, Alloh kuch-qudrati oldida ojizliklariga shama' qilinmoqda.

O'sha davr Buxoro taxtida o'tirgan ashtarxoniylar sulolasi vakili Imomqulixon boshqaruvi va uning hukmi asosida bu bino qurilgani yana bir bor tasdiqlanib o'tilgan. Madrasa peshtoqida "Bu oliy ilm madrasasi yalovbardor podshoh, buyuk xoqon zamonida bunyod etildi. Alloh taolo ulug' Kitobida: "Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyurar (Qur'oni karimning "Nahl" surasi, 90-oyat), -deydi. Alloh taolo to'g'ri aytdi. Va u (xoqon) Imomquli Muhammadxon (bu binoni qurishga) harakat qildi va bu binoning quruvchisi buyuk amir Yalangt'ysh Bahodir yaxshilik maskanlari (ya'ni, ushbu ilm dargohlari)ga asos solishga qiziqishi bo'lgani uchun sa'y va tashabbus qildi. Binoning qurilishi va ziynatlanishining tugallanishi 1042 (1632) sanaga muvofiq keladi."

Ulkan peshtoq ravog'i tepasidagi timpan diqqatga sazovordir. Qizg'ish zarhal sher, oq ohuni quvib ketmoqda. Quyosh bodomqovoq, kiyik ko'zli doira shaklida tasvirlangan. Uning yuzi esa zarhal yog'du bilan hoshiyalangan. Butun kompozitsiyasi zangori asosda bo'lib, firuza va zarhal bo'yoqlar bilan tasvirlangan, hamda bir - biriga chirmashib ketgan navdalar, ochilib yotgan oq gullardan iborat.

---

<sup>110</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 185 bet

«Sherlarga ega bo'lgan» mumtoz musulmon astronomiyasida quyoshning Asad burjida, ya'ni Sher ustida bo'lishi sa'd zamon, ya'ni baxtiyor zamonga ishoradir. Bundan ushbu binoni Abjad hisobida Yalangto'sh – 816, Bahodir – 212 jami 1028 hijriy hisobi, melodiy hisobda 1619 yil kelib chiqadi. Bu bilan Sherdor madrasa-sining qurilishi 1619 yilda boshlanganligini shoir tomonidan nazmda ishora etilgan deb olimlar isbotlamoqdalar. Bundan tashqari, musulmon astronomiyasida Quyoshning Asad burjida bo'lishi "Sa'di zamon", ya'ni baxtli zamonga ishoradir. Bu tasvirlar Saljuqiylar, Elxoniylar sulolalari hukmdorlari davrida hamda XVI-XVII asrlarda Eronda ham keng qo'llanilib, tangalar va bayroqlarda aks ettirilgan. Hatto Amir Temur ham Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga Sher va Quyoshni aks ettirishni buyurgan.

Xalq orasida yana turli rivoyatlarda Quyosh- haqiqat, yorug'lik; Sher-nafs; Kiyik –iroda mazmunini aks etishi aytiladi. Bunda Inson nafs balosiga berilib irodasini jilovlolmay haqiqat yo'liga adashishi mumkinligiga shama hamdir. Chunki, me'moriy yodgorlik peshtoq-devorlardagi yozuvlarda mol-mulkga ruju' qo'ymaslik ko'plab marotaba ta'kidlanib o'tilgan. Misol: Kufiy xatida peshtoqdagi matnda: “Buyuklik-Xudoga xos! Mulk Xudonikidir” degan yozuv bitilgan<sup>111</sup>.

XVII asr mafkuraviy qarashda ham dinning o'rni alohida ekanligini bu yozuvlardan ham bilsa bo'ladi. Chunki, bu yozuv binoning ko'plab marta yozilgan. Katta ravoqning marmar panellarida-„Amirlar faxri Yalangto'sh saxovati bilan bu imorat bitkazildi. U ko'kka qadar harakat qilib, baxtli yulduz sari ilk qadam qo'ydi. Madrasaning to'rt toqi dunyoning to'rt ustuniga o'xshaydi...”<sup>112</sup>- deb yozuv naqshlangan. Bu yozuvdan Samarqandda bu paytda otaliq vazifasida ish olib borgan Yalangtush Bahodir nafaqat siyosiy arbob, balkim keyingi avlod uchun o'sha davr me'morchilik an'anasini keyingi avlodga qoldirishga bosh bo'lgan tarixiy shaxs sifatida o'rni alohidadir. Chunki qurilish o'sha davr mohir san'at durdonasi sifatida bizning davrimizgacha yetib kelgan.

---

<sup>111</sup> O'zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar"/albom/ O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi. T-2011yil.

<sup>112</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 189 bet

Sherdor madrasasida ko'pincha Allohga hamdu-sano aytilganligi ko'pgina devoriy yozuvlarda o'z aksini topgan. Misol, bosh ravog'i ichida kufiy xatida: "Alloh ulug'! Alloh ulug'! Allohdan o'zga Iloh yo'q! Alloh ulug'! Alloh ulug'! Hamd Alloh uchun!"-deb yozilgan bitiklarda ham kuzatamiz.

Madrasa hovlisining dekorativ bezlishi ham uning fasadi singari boy va xilma-xildir. Ravoqning yon devorlarida Alloh الله – "Alloh" yozuvi teskari yozilgan, atrofida to'rt bor مُحَمَّدٌ – "Muhammad" nomi bitilgan. Shuningdek, "قندسمر عوض محمد عمل اين", -Bu Muhammad Avaz Samarqandiyning ishi- degan yozuvni qayd etib qoldirilgan<sup>113</sup>. Bu yozuvlardan bizga o'sha ish muallifi Muhammad Avaz Samarqandiy ekanligidan dalolatdir. Bu qaydlar bizga tarixiy manbashunoslik sohasidagi qimmatli ma'lumot sifatida keyingi avlod uchun meros sifatida qolajak.

Madrasa hovlisiining kichik peshtoqida suls xatida Qur'oni karimning "An'om" surasi 115–117 oyatlari yozilgan. Tepasida kufiy xatida– "Mulk Xudonikidir", "Buyuklik Xudoga xos", "Kuch-qudrat Xudonikidir", "Quvvat Xudonikidir", "Xudoga shukr", – kalimalari bitilgan.

Sherdor madrasasi bosh ravog'i ichida- مِعْمَارُ الْجِبَارِ عَبْدُ مَلَا اسْتَاذُ بَصْنَعِ الْعِمَارَةِ هَذَا -Bu imorat ustoz, mullo Abduljabbor me'mor tomonidan qurilgan"-deb yozuv bitilgan. Me'morchilik an'anasi 17 asrda garchi rivojlangan bo'lmasa ham davom etib borayotgani ham katta o'ringa ega.

Peshtoqning kirish qismida kichik ravoq ichida muqarnas bezaklari past qismida ravoqchalar ichida bitiklar mavjud. Kufiy xatida هَالل – "Alloh" deb yozilgan. Va ba'zi ravoqchalarda nasta'liq xatida – خَيْرِيَاد عَاقِبَت – "Oqibat xayrli bo'lsin" deb yozilgan. Bunda albatta barchaga ayonki, boshlagan ishning oxiri xayirli bo'lishini yod etib duoga qo'l ochadilar. Bu joyda ham shubha yo'qki shu maqsadni ko'zlagan bo'lsalar.

Mazkur ravoqning o'ng va chap tomonlarida ikkita to'rtburchak kitoba mavjud. Ularning tepasida kufiy xatida– "Kuch-qudrat Xudonikidir", "Boqiylik Xudoga xos" – kalimasi bitilgan. Tepalarida suls xatida Rasululloh (s. a. v.)ning

---

113. Полупанов С.Н. «Архитектурный памятники Самарканд» Москва. 1948.

hadislari yozilgan. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Dunyo bir soatdir. Uni toat bilan o'tkaz". Peshtoqning ikki ustun devoridagi ravoqli tokchalar ichida – "Alloh – buyuk", "Ey tirik zot", – kalimalari naqsh etilgan. Madrasaning bosh fasadi o'ng qanotidagi devorlarda – هاللى اكبر "Alloh – buyuk", – kalimasi naqsh etilgan.<sup>114</sup> Barchaga ma'lumki musulmon olamida azon aytish chog'ida balandroq joyda chiqadilar. Va barchani ibodatga chorlaydilar. Inson qancha yuqoriga chiqsa ham Alloh undan yuqori va boqiy sanalishi guvohi bo'lishiga shama' tarzida quyidagi bitiklar yozilgandir.

Madrasa minorasidagi bu yozuvni yana bir bor esda olaylik. Darhaqiqat insoniyat doimo izlanishda va oldinga ildam qadam qo'yib boradi. Agar biron-bir ishni o'z vaqtida bajarmay ortga qoldirsa, boshqa yana bir muammoga duch keladi. Shuning uchun berilgan vaqtimizdan oqilona foydalanishimiz lozimligi eslatilmoqda. O'tgan damlarni ortga qaytarib bo'lmas.

Sherdor madrasasining gumbazlari tag qismlaridagi yozuvlarda suls xatida Qur'oni karimning "Baqara" surasi, 255-oyati – "Oyat ul-kursiy" yozilgan. Gumbaz tepasida kufiy xatida – "Kuch-qudrat Xudonikidir", "Mulk Xudonikidir", – kalimalari bitilgan. Mazkur yozuvning pastrog'ida yirik va mayda kufiy xatda– "Mulk Xudonikidir" va "Xudoga hamdu sanolar bo'lsin", – kalimalari takroriy tarzda yozilgan. Ushbu yozuvlar bilan bu binoda ham insoniyatga boriga shukrona aytish bora-bora ogohlantirishdek ta'kidlanib yozilgan. Kitobasida esa Rasululloh (s. a. v.) hadislari oq rang bilan suls xatida yozilgan. Tepasida sariq rangda kufiy xatida „Payg'ambar alayhissalom aytdilar, –Kim Alloh uchun bir masjid qursa, Alloh jannatda u uchun bir uyni bino qiladi"- kalimasi yozilgan.<sup>115</sup> Bu hadisni tahlillashga hojat bo'lmasa kerak. Chunki Alloh uchun degan shama bu insoniyat uchun qilingan savob ish nazarga tutilgan. Insoniyat yaxshi amallar uchun qilgan barcha ishlari taqdirlanishi eslatib o'tilmoqda.

---

<sup>114</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi" birinchi kitob Toshkent — 2011. 203-205 betlar

<sup>115</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi" birinchi kitob Toshkent — 2011. 213-215 betlar



Sherdor madrasasi ichki hovlisi qarbiy peshtoqida suls xatida Qur'oni karimning "Al-Fajr" va "Al-Qadr" surasi yozilgan. Tepasida kufiy xatida Qur'oni karimning "Balad" va "Masad" suralari bitilgan. Ikki yon tomonida kufiy xatida sariq rangda Rasululloh (s. a. v.)ning hadislarini keltirilgan. Rasululloh (s. a. v.): "Ilm dunyoda azizlik va oxiratda sharaf keltiradi", – deb aytdilar. Dovyurak, odil Yalangto'sh keldi. Uning kamoloti madhiga zo'r til durlarga to'ldi. U Yer yuzida shunday bir madrasa qurdi, bu bilan faxrlanishni falakka qadar yetkazdi. Dono harifning tafakkur kamandi necha qarnlar harakat qilsada, madrasa minoraning ma'nosiga yetolmas. Me'mor uning toqlari egilishini shunday quribdiki, falak bu yangi Oyni ko'rib, ko'kdagi Oyga nisbatan chiroyliligidan barmog'ini tishlab qoldi. Uni bino etgan Yalangto'sh Bahodir bo'lgani uchun ham qurilgan yilini abjad hisobida "Yalangto'sh Bahodur" 1028 (1618) deb bilingiz.<sup>116</sup> Dastlabki so'zni tahlillash o'rinli deb bilaman. Chunki, haqiqatdan ham har bir komillikga intilgan shaxs avvalambor chuqur ilm sohibi bo'lmog'i darkor. Chalasavodli shaxs nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham falaj bo'lishi uchun sharoit hozirlaydi. Islom Karimov o'zlarining asarlarida: Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'alarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi<sup>117</sup>- deb ta'kidlab o'tganlar. Shu peshtoqning ravog'i pastida suls xatida Qur'oni karimning "Al-Layl" surasi va tepasida kufiy xatida "Inshiroh " suralari bitilgan.

---

<sup>116</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 219-221 betlar

<sup>117</sup> I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T-2008 yil 9-bet.

Peshtoqning ichki qismida chap tomonida suls xatida -«Rasululloh (s. a. v.) dedilar:». Tepasida kufiy xatida – “ Xudoga shukr ”, “Mulk Xudonikidir”- kalimalari bitilgan. Peshtoqning ichki qismida o'ng tomonida suls xatida– “Odamlarning yaxshisi odamlarga nafi tekkan kishidir”. Tepasida kufiy xatida, – “Buyuklik Xudoga xos”, “Mulk Xudonikidir”, “Kuch-qudrat Xudonikidir”, “Boqiylik Xudoga xos”– kalimalari bitilgan. Shu ravoqning yon devorlarida kufiy xatida–“Muhammad Allohning payg'ambaridir”, – kalimasi hamda – “Alloh”, “Muhammad”, “Abu Bakr”, “Umar”, “Usmon”, “Ali” ismlari bitilgan.

Ravoqning yon devrlaridagi kitobaning o'ng tarafda tepasida kufiy xatida – “Alloh taborak va taolo aytdi” kalimasi bitilgan. Pastida Qur'oni karimning “Nur” surasining 24:35-oyatining boshi yozilgan (xati suls): “Alloh osmonlar va Yerning “nuri”dir. Nurining misoli... ” Chap tarafdagi kitobada kufiy va suls xatida duolar bitilgan. Kufiy xatida –“Allohdan boshqa iloh yo'q va faqat Ungagina ibodat qilamiz”. Suls xatida shu duoning davomi yozilgan: Allohdan o'zga iloh yo'q va faqat Ungagina ibodat qilamiz.<sup>118</sup> Bunda barchani yagona Allohga e'tiqod qilishga da'vat siyosiy maqsad sifatida ko'zlanganini ham tushunish lozim. Turli diniy qarashlar davlatchilik tarixiga yakun yasashini barcha juda yaxshi biladi. Bu da'vatlar ayni shu holatlarning oldini olish uchun ogohlik kalitidir.

Madrasa ichkarisida o'rnatilgan marmar toshdagi yozuvda:“ Amirlar faxri Yalangto'sh saxovati bilan bu imorat bitkazildi, u ko'kka qadar harakat qilib, baxtli yulduz sari ilk qadam qo'ydi. Madrasaning to'rt toqi, dunyoning to'rt ustuni kabi, ulug'ligi bilan jahonni asrab turadi. Bu yuksak, oliyqadr imorat olimlar va mashoyixlarning anjuman joyidir. Sayyidi ittimom (butkul) hazrati eshon Xoja Hoshim inoyatlari bilan bu imorat bitdi. Ul shahsuvor tinchlik posbonining chehrasidan bayram ayyomlaridagidek nur yog'iladi. U shaxs saroydagi bir guldirdi, atrofga xushbuy hid taratadi. Uning karomatlaridan hamma — bahramand. U Muhammad Valiyga: "Yerdagi go'zal qayrilma toshni olib, imomning royahasiga, kamalak kabi jilvador toshni olib, madrasa ravog'ining yoniga qo'y", — deb buyurdi. Aql egalari

---

<sup>118</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 235-237 betlar

uning ta'rixini: "Bu toshni peshtoq ravoqiga qo'ygin", — deb xabar berdi. Dahbediylarning xoki poyi bo'lmish faqir Hasan Bek-be(g)i Samarqandiy."<sup>119</sup> Bu bitikdan Sherdor madrasasi anjuman o'tkazish uchun ham bino qilingani ma'lum bo'ladi. Shu davrga oid muhim siyosiy, madaniy, ijtimoiy ahvol masalasida bo'lib o'tadigan anjumanni o'tkazishda Xoja Hoshim ham katta rol o'ynagani ma'lum bo'lib turmoqda.

Sherdor madrasasi hovlisining sharqiy ravoqida yozuvlar hamalohida maqtovlarga loyiq. Peshtoqning aylanasiidagi yozuvda kufiy xatida Qur'oni karimdagi "Muzzammil" (73) surasi bitilgan<sup>120</sup>. Bunda insoniyatni toat ibodatda bo'lishga da'vat etilib, bo'ysunmaslarga oily jazo borligi ogohlantirib o'tilgan. Suls xatida Qur'oni karimning "Naba'" (78) surasi keltirilgan<sup>121</sup>.

---

<sup>119</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 239 bet

<sup>120</sup> Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman). 1. Ey, (kiyimlariga) o'ralib olgan kishi (Muhammad), 2. tunda (bedor bo'lib, namozga) turing! Faqat ozgina (uxlashga vaqt qolsin). 3. Ya'ni yarimi (qolsin) yoki yarmidan ham bir oz kamaytiring. 4. Yoxud unga (bir oz) ziyoda qiling (yarmidan ko'prog'ida uxlang) va Qur'onni tartib bilan (dona-dona qilib) tilovat qiling! 5. Zero Biz Sizga og'ir So'zni (Qur'onni) tushirajakmiz. 6. Albatga, kechasi (ibodat uchun bedor bo'lib) turish faoliyat jihatidan og'irroqdir, (lekin) so'z (so'zlash, qiroat qilish) jihatidan to'g'ri keladiganroqdir. 7. Albatta, Siz uchun kunduzi davomli mashg'ulot bor. 8. Rabbingizning nomini (mudom) yod eting va Unga butunlay ajraling! 9. (U) mashriq va mag'ribning Parvardigori. Undan o'zga Iloh yo'qdir. Bas, Unigana vakil (homiy) qilib oling! 10. Ular (mushriklar) aytayotgan so'zlarga (ozorlariga) sabr qiling hamda ularni chiroyli tarzda tark eting! 11. (Sizni) inkor etuvchi (o'sha) ne'mat ahlini Menga qo'yib bering va ularga ozgina muhlat bering! 12. Haqiqatan, Bizning huzurimizda kishanlar va do'zax bor. 13. Yana (tomoqdan) yaxshi o'tmaydigan (yiring va qon kabi) "taom" hamda alamli azob bor. 14. U Kunda Yer va tog'lar larzaga kelar va tog'lar tuzib ketuvchi qumtepalarga aylanib qolur! 15. (Ey, Makka ahli,) Biz sizlarga xuddi Fir'avnga payg'ambar yuborganimiz kabi sizlarga guvohlik beruvchi payg'ambarni (Muhammadni) yubordik. 16. (O'shanda) Fir'avn (Muso) payg'ambarga itoatsizlik qilgach, Biz uni qattiq ushlab bilan ushladik. 17. Bas, agar sizlar kofir bo'lsangizlar, (o'z dahshati bilan) bolalarni qaritib, oqsochlarga aylantarib qo'yadigan Kun(ning azobi)dan qanday saqlanursizlar?! 18. U (dahshat) sababli osmon ham yoriluvchi, (Allohning) va'dasi amalga oshuvchidir. 19. Albatga, ushbu (oyatlar) eslatmadir. Bas, kim xohlasa, (u sababli) Parvardigori sari yo'l tutar

<sup>121</sup> "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman) 1. (Mushriklar) bir-birlaridan nima haqida so'rashmoqda?! 2. Ulug' xabar haqida. 3. Qaysiki, u haqda ular (doimo) tortishuvchidirlar. 4. Yo'q, (ularning gumonlari behudadir). Ular yaqinda (bu xabarning haq ekanini) bilib olajaklar. 5. So'ngra yana yo'q! Bilib olajaklar! 6. Biz Yerni to'shak qilib qo'ymadikmi?! 7. Tog'larni esa (Yerni tutib turuvchi) qoziqlar qilib qo'ymadikmi?! 8. Biz sizlarni juft-juft qilib yaratdik. 9. Uyqularingizni (badan va asablarigiz uchun) orom qildik. 10. Kechani (barcha narsani yashirib turadigan) libos qildik. 11. Kunduzni esa, tirikchilik (vaqti) qildik. 12. Tepalaringizda yetti (qavat) mustahkam (osmonni) bino qildik. 13. Yana charaqlab turuvchi chiroqni (Quyoshni paydo) qildik. 14. Yana Biz siqib chiqaruvchi (bulut)lardan duv-duv suv (yomg'ir) yog'dirdik. 15. Toki, u sababli don va nabotot (undirib) chiqarurmiz. 16. Shuningdek, qalin bog'larni ham. 17. Albatta, ajrim kuni (hisob-kitob uchun) belgilangan vaqtdir. 18. U Kunda sur chalinur, bas, sizlar to'p-to'p bo'lib (mahshargohga) kelursizlar. 19. Osmon ham ochilib, (farishtalar uchun) darvozalarga aylanib qolur. 20. Tog'lar ham (joylaridan) jildirilur. Bas, u sarobga aylanib qolur. 21. Albatta, jahannam poylovchi, 22. haddan oshganlar uchun qaytish joyidir. 23. (Ular) u joyda uzoq zamonlar (abad ul-abad) qoluvchidirlar. 24. U joyda sovuqlik va ichimlikni totmaslar. 25. Faqat qaynoq suv va yiringnigina (toturlar). 26. (Mana shu qilmishlariga) loyiq jazodir. 27. Chunki ular (Qiyomatdagi) hisob-kitobdan umid qilmas edilar. 28. Oyatlarimizni butunlay inkor etar edilar. 29. Holbuki, Biz barcha narsani hisob-kitob qilib, (yozib) qo'yganmiz. 30. Bas, (ey kofirlar, azobimizni) totib ko'ringlar! Endi sizlarga faqat azobnigina ziyoda qilurmiz. 31. Albatta, taqvodor zotlar uchun (jannatda) yutuq bor. 32. Ya'ni bog'lar va uzumlar, 33. (yosh va husnda) tengqur, bo'liq siynali (hur qiz)lar 34. va (sharob) to'la qadahlar bor. 35. Ular u joyda biror behuda va yolg'on so'z eshitmaslar. 36. (Bu) Rabbingiz (tomoni)dan bo'lmish mukofot va hisob(-kitob)dir. 37. (U) osmonlar va Yerning

Ravoqning yon tomonlardagi devorlarida: هاللى اكبر – “Alloh ulug’” kali-masi takrorlanadi. Ravoqning kitobasida suls xatida Qur’oni karimdagi “Shams” surasi bitilgan. Tepasida kufiy xatida “Baqara” surasi, ya’ni “Oyat ul-kursiy” (2:255) yozilgan. “ Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan (boshlayman). Alloh – Undan o’zga Iloh yo’q. (U hamisha) tirik va abadiy turuvchi. Uni na mudroq tutar va na uyqu bosar. Osmonlar va Yerdagi (barcha) narsalar Unikidir. Uning huzurida hyech kim (hyech kimni) Uning ruxsatisizshafolat qilmas. (U) ular (odamlar)dan oldingi (bo’lgan) va keyingi (bo’ladigan) narsani bilur. (Odamlar) Uning ilmidan faqat (U) istaganicha o’zlashtirurlar. Uning Kursisi osmonlar va Yerdan (ham) kenglik qilur. U ikkisining hifzi (tutib turishi) Uni toliqtirmas. U oliy va buyuk zot. ” Ravoqning ichidagi old tomon devorda naqshlar orasida ikkita kitoba ichra ikki kalima bitilgan. “Kuch-qudrat Xudonikidir! Mulk Xudoniki-dir!”<sup>122</sup>

Sherdor madrasasi hovilisidagi shimoliy peshtoqi kitobasida suls xatida Qur’oni karimning “Naziat” (79) surasi to’liq yozilgan. Naziat lug’atda sug’urib oluvchi ma’nosida kelgan. Bu yerda jonni sug’urib olinishiga nisbat berilgan bo’lib ogohlantirish sifatida bitilgan. Tepasida kufiy xatida Qur’oni karimning “Takvir” (81) surasi bitilgan. Bunda oxiratga barcha ruh va jon birga so’roqqa olinishi keltirilgan.

Shu yozuvning ikki yon tomonida kufiy xatida sariq rangda Rasululloh (s.a.v.) ning hadisleri bitilgan. “Rasululloh (s. a. v.): “Ilm – dunyoda izzat va oxiratda sharaf keltiradi”, – deb aytdilar.” Mazkur hadis hazrat Ali hikmatlarida – “Ilm tolibi uchun dunyoda azizlik va oxiratda najot bor”, – shaklida keladi.

Peshtoqning ravog’i ichidagi kitobada suls va kufiy xatlarida Qur’oni karimning “Zuho” (93) va “Inshiqoq” (84) suralari bitilgan.<sup>123</sup> Inshiqoqda qiyomat

---

hamda ularning o’rtasidagi (bor) narsaning Parvardigori mehribon zotdir. Undan (izn bo’lmaguncha) so’zlashuvga ega bo’lmaslar. 38. Ruh (Jabroil) va (barcha) farishtalar saf tortib turadigan Kunda (odamlar) gapirmaslar, faqat mehribon zot izn bergan kishigina (so’zlar) va (faqat) rost so’zlar. 39. Bu haq (va rost) Kundir. Bas, kim xohlasa, Parvardigori tomon qaytadigan yo’lni tutar. 40. (Ey, Makka kofirlari,) darhaqiqat, Biz sizlarni yaqin(da voqye bo’ladigan) azobdan ogohlantirdik. U Kunda (har bir) kishi o’zi qilib o’tgan narsani (ya’ni barcha yaxshi-yomon amallarini) ko’rar va kofir kimsa: “Eh, koshki edi tuproq bo’lsam”, – der. ”

<sup>122</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me’moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 251-253 betlar

<sup>123</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me’moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 257-259 betlar

kuni osmon yorilishi haqida soʻz yuritilgan. Zuho surasida insoniyat uchun oxirati xayrli boʻlishi bitilgan.

Ravoqning yon va tepa qismlarida kufiy xatida – “Muhammad – Allohning paygʻambari” va-“Ey Alloh” kalimalari naqshlangan. Ravoq ichidagi kitobaning tepasida kufiy xatida sariq rangda – “Mulk Xudonikidir”, “Xudoga shukr” kalimalari bitilgan. Pastida suls xatida oq rangda Rasululloh (s. a. v.)ning hadislari yozilgan. “Paygʻambar alayhissalom: “Albatta, Alloh avval yaratgan narsa – qalam”, – deb aytdilar.”

Bosh peshtoq gumbaz ostidagi darsxona devorlarida nastaʼliq xatida sheʼr bitilgan. “Dovyurak, odil Yalangtoʻsh keldi. Uning kamoloti madhiga zoʻr til durlarga toʻldi. U Yer yuzida shunday bir madrasa qurdiki, bu bilan faxrlanishni falakka qadar yetkazdi. Dono harifning tafakkur kamandi necha qarnlar harakat qilsada, madrasa minoraning maʼnosiga yetolmas. Meʼmor uning toqlari egilishini shunday quribdiki, falak bu yangi Oyni koʻrib, koʻkdagi Oyga nisbatan chiroyli-ligidan barmogʻini tishlab qoldi. Uni bino etgan Yalangtoʻsh Bahodir boʻlgani uchun ham qurilgan yilini abjad hisobida “Yalangtoʻsh Bahodur” 1028 (1618) deb bilingiz.”<sup>124</sup> Q. Xasanov “Registon ansambli” nomli kitoblarida - “Dovyurak odil Yalangtoʻsh keldi soʻzlarini: “Dushman saflarini buzuvchi odil Yalangtoʻsh keldi”<sup>125</sup> deb yozib oʻtganlar. Bu yozilgan soʻzlar shariy qitʼa boʻlib, samarqandlik shoir Mir Hoji Samarqandiy qalamiga mansubdir.

Shimoli-gʻarbiy darsxonadagi yozuvlar orasida xattot nomi keltiriladi: - “Buni Muhammad Darvesh Samarqandiy yozgan”. Madrasa gumbazining qovurgʻali ravoqlarida suls xatida Qurʼoni karimning “Baqara” surasi 255-oyati – “Oyat ul-kursiy” bitilgan.

Madrasaning qovurgʻali gumbaz ostidagi darsxonasi devorlarida keltirilgan yozuvlar asl holatida turibdi. Suls xatida bitilgan hadislarning aksariyati bir-necha marta takror keltirilgan. Takrorlanmagan hadislar ham bor. Quyida bu kitobalar (oʻngdan chapga) tarzida keltirilmoqda. Anʼanaga koʻra, tepasida kufiy xatida

---

<sup>124</sup> Koʻrsatilgan adabiyot. . 265 bet

<sup>125</sup> Xasanov Q. “Registon ansambli”. Samarqand-2007.11-bet.

“Kuch-qudrat Xudonikidir”, –kalimasi yozilgan. Rasululloh (s. a. v.): “Dunyo bir soatdir. Uni toat bilan o’tkaz”, – deb aytdilar. Odam farzandlari uchun ming xil balo qila olmagan ishni bir soatlik ochlik qila olur. Yana bir soatlik turlik qila olgan ishni shayton ham qila olmas-degan iboralar ham yuradi. Zamon va makonda yashayotgan har bir shaxs o’z vaqtini behuda o’tkazmaslikga da’vat etilmoqda.

Madrasa darsxonasi ichki qismidagi gumbaz osti tasmasida nasta’liq xatida Qur’oni karimning “Muzzammil” surasi yozilgan. Tepasida kufiy xatida “Mulk Xudonikidir”, “Buyuklik Xudoga xos”, “Kuch-qudrat Xudonikidir”, “Quvvat Xudonikidir”, “Xudoga shukr”, – kalimalari bitilgan. Tasmaning oxirida suls xatida “Tavhid” kalimasi va “Choryorlar” ismlari yozilgan. “Allohdan o’zga Iloh yo’q, Muhammad Allohning Rasulidir! // Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali.”

Sherdor madrasasi eshik usti yozuvlarida an’anaga ko’ra, kitobaning tepa kismida tilla rangda kufiy xatida-“Payg’ambar alayhissalom aytdilar”, – deb yozilgan. Pastida suls xatida oq rangda hadis matni keltirilgan. Ushbu matnlarda: “Kim ilm izlab chiqsa, to qaytgunicha Allohning yo’lida bo’ladi; Ummatimning olimlari Bani Isroilning payg’ambarlari kabidir; “Ilmni man qilish (o’rgatmaslik) halol emas. Uning payg’ambari va elchisi to’g’ri so’zladi; Olimning obiddan ustunligi xuddi Oyning boshqa yulduzlardan ustunligiga o’xshaydi. (Termiziy rivoyati); Yaxshilikni chehrasi chiroyli kishilardan qidiringlar; Kim ilm izlab chiqsa, to qaytgunicha Allohning yo’lida bo’ladi. (Termiziy rivoyati); Ilmning ofati – unutish. Ilm ahlidan boshqalarga gapirish ilmni zoye qilish bo’ladi. (Dorimiy rivoyati); Bir faqih shayton uchun ming obiddan ham ashaddiyroq (dushman)dir; Kechasi bir soat ilm o’rganish kechani (nafl ibodati bilan) bedor o’tkazgandan yaxshidir; Kimki odamlarga tashakkur aytmasa, Allohga ham shukr qilmaydi; Kimdan bir ilmdan savol so’ralsa-yu, u haqiqiy javobni yashirsa, qiyomat kuni Alloh uni olovdan bo’lgan yugan bilan jilovlaydi.”-deb yozib naqshlangan.<sup>126</sup>

---

<sup>126</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me’moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 281-295 betlar.

Sherdor madrasasidagi marmar pannolarda kufiy xatida: – “Buyuklik Xudo uchundir”, “Kuch-qudrat Xudonikidir”, – kalimalari bitilgan. Pastida suls xatida Rasululloh (s. a. v.)ning hadislarini o‘yib yozilgan. Ularda: “Qurashiy (qabilasidan bo‘lgan) payg‘ambar aytdilar: “Mo‘minning qalbiga xursandchilik kiritish – eng og‘ir ibodatdan yaxshi”. Payg‘ambar alayhissalom: “Insonlarning yaxshisi – odamlarga nafi tegadigan kishi”, – deb aytdilar.” (Payg‘ambar) alayhissalom: “Kim ilm talabida bo‘lsa, jannat ham uning talabida bo‘ladi”, – dedilar. Rasululloh (ul zotga, oilalariga va sahobalariga Allohning saloti va salomi bo‘lsin): “Kim ilmni va ulamolarni yaxshi ko‘rsa, toki tirik ekan, uning gunohlari yozilmaydi”, dedilar. Yana (u zotga Allohning saloti va salomi bo‘lsin): “Ilm – dunyoda izzat va oxiratda sharaf keltiradi”, – dedilar.”<sup>127</sup> Ushbu Hadislardan keltirilgan matnlardan ma‘lum bo‘lmoqdaki, madrasa marmar pannolarda ham jami insoniyatni komillikka, adolat va insofga chaqirilmoqda.

Sherdor madrasasi kirish darvoza halqasida ustaning nomi bitilgan. “ Usto Abdulqodir Buxoriy” Eshikda yozuv bor. Tepasida kufiy xatida – “Xudoga shukr”, “Mulk Xudonikidir”, – kalimalari yozilgan. Darvozada suls xatida: – “U o‘lmaydigan abadiy zot”, – deb bitilgan.<sup>128</sup>

Xulosa qilib shuni ta’kidlamochimanki Sherdor madrasasidagi yozuvlarning ko‘pchilik qismida Ulug‘bek madrasasi yozuvlari takrorlangan bo‘lsada ayrim qarashlarda farqi mavjud. Misol uchun, madrasasidagi marmar pannolardagi: Mo‘minning qalbiga xursandchilik kiritish – eng og‘ir ibodatdan yaxshi, insonlarning yaxshisi – odamlarga nafi tegadigan kishi va boshqa shu kabi o‘gitlar bu binoga ilk bor tilga olingan. Shuningdek hayvon va tabiat rasmlari bilan bu binonig boyitilgani, undagi ma’no-mazmunida yangiliklar baxsh etadi.

### **3.3. Tillokori madrasasi**

Tariximiz ravnaqiga Registon maydonining shimoliy tomonida Mirzo Ulug‘bek davrida qurilgan va deyarli vayrona bo‘lgan "Karvonsaroyi Mirzoyi" o‘rniga qad rostlagan Tillakori madrasasi XVII asrda Yalangto‘sh Bahodir

---

<sup>127</sup> Ko‘rsatilgan adabiyot. 297-301 betlar

<sup>128</sup> Ko‘rsatilgan adabiyot. 311-313 betlar

farmoniga ko'ra, madrasa va juma namozi o'qiladigan bino sifatida barpo etilgan. Binoni qurish ishlari deyarli o'n besh yil, ya'ni 1646—1660 yillar davom etganligi hozirda ko'pchilikka ma'lum. Tillakorining me'morchiligida ko'proq uning boshqa binolarga o'xshamasligiga katta e'tibor berilgan. Tillakori interyerida ko'proq kundal, har xil ranglar, koshin va xatlarida tilla suvi yugurtirilgan. Mehrob yonida katta minbar joylashgan, unda juma namozlari o'qilgan. Imoratlarni qurishda o'sha davrda qo'llanilgan me'moriy qoida-qonunlardan chekinishga to'g'ri kelgan. To'rt tomoni tutashdek tasavvur bo'lishi uchun madrasa fasadini juda uzun qilishga to'g'ri kelgan. Albatta masalani shunday hal qilish g'oyasini, mahoratli me'morgina taklif etgani ko'rinib turibdi.

Madrasa masjidning umumiy kompozitsiyasida masjid markazi o'rin egallashi lozim edi. Biroq, me'mor simmetrik maydonda yana bir markaz bo'lishini lozim ko'rmagan, bu esa me'morning yana bir muvaffaqiyati bo'lgan. Tillakori madrasasi fasad qismining arxitekturasini, ikkita bir xil madrasaga mos tushgan. Masjid asosiy o'qdan chetda, bir qavatli hujralar bilan o'ralgan katta hovlining g'arb tomonidadir.

Fasadning ikki qavatli qilib ishlanganligi ulkan va hashamatli Mirzo Ulug'bek va Sherdor madrasalarini mahobatlilikiga bexos e'tibor berdiradi. Peshtoq maydonga qaratilgan bo'lib, uning besh qirrali ravog'idagi ikkita eshikdan, bir qavatli hujralar bilan o'ralgan hovliga kiriladi. Hovlining ichki kompozitsiyasida simmetriya bo'lishi uchun har bir fasadning qoq o'rtasida, shinam peshtoq qilingan. Kiraverishda chap tomonda, g'arbiy fasad bo'ylab katta masjid bor, asosiy eshikdan masjidning katta xonasiga kiriladi. Ikki yon tomondagi ravoqli gumbazlar gallereyasi tufayli katta xona sahni ancha keng ko'rinadi. Masjidning to'rida odatdagiday marmar mehrob bo'lib va uning o'ng tarafida esa marmar zinali baland minbarga joy berilgan. Masjidning asosiy xonasi, hatto marmar ozorasi ham bo'rtma naqshlar va zarhal berib bezatilgan. Shunday qilib, bu zeb-ziynat, hamda boylik kishini hayratga solib mahliyo qilishga qaratilganligini ko'rsatadi.



Endi Tillakori madrasasi bosh peshtoqiga nigohimizni qaratsak. Peshtoqning bosh kitobasida kufiy xatida – “Mulk Xudonikidir”, “Boqiylik Xudoga xos”, “Xudoga shukr”, – kalimalari bitilgan. Iboralarda bu oʻtkinchi dunyo ekanligi, hech kim unda ustun boʻlmasligi shama qilinmoqda. Ravoq kitobasining tepa qismida ham xuddi shu soʻzlarni kufiy xatida الملك هلل، البقاء هلل، الحمد هلل – “Mulk Xudonikidir”, “Boqiylik Xudoga xos”, “Xudoga shukr”, – kalimalari takroriy tarzda bitilgan. Soʻzlarning tagida suls xatida Qurʼoni karimning “Tavba” surasi 18–22-oyatlari yozilgan <sup>129</sup>. Bu oyatga insoniyatga masjidni faqat Allohga iymon keltiruvchi, zakotini beruvchi, namozni ado etuvchilarga Alloh dargohida mukofoti borligi qayd etilgan.

Tillokori madrasasi ichki hovlisi ravogʻida kufiy va suls xatlarida bitilgan yozuvlarda ham: “Mulk Xudonikidir! Azizlik Allohnikidir! Mulk va mulklarning egasini (Allohni) barcha nuqsonlardan poklayman! Izzat, buyuklik, qudrat, haybat, ulugʻlik, goʻzallik, kamolot, nozu neʼmat, kattalik va gʻoliblik egasi (Alloh)ga tasbeh aytamiz. ”<sup>130</sup>-degan jummalarni oʻqish mumkin. Koʻrinib turibiki bu dargohga kelgan har bir moʻmin-musulmon oʻzi yashayotgan borliqda kim ekanligini yana bir bora his etadi. Turli-tuman qilmishlardan oʻzini tiyadi. Insoniyat hayotda bir marotaba keladi va unda munosib ravishda yashashiga undaydi.

Ravoqning yon devorlaridagi kitobalarda suls xatida tasbeh kalimalari yozilgan. “Alloh barcha aybu nuqsondan pokdir, Unga hamd boʻlsin, Allohdan oʻzga iloh yoʻq. Alloh – buyuk. Kuch-quvvat -faqat buyuk Allohdan. Bizga yolgʻiz Allohning oʻzi kifoya. U zot eng yaxshi ishonchli vakildir.” Peshtoqning oʻng va chap ustunlarida “Tavhid” kalimasi takrorlanadi. “Allohdan oʻzga iloh yoʻq va Muhammad Allohning Rasulidir.”<sup>131</sup>

---

<sup>129</sup> 1978-1980 yillarda taʼmirlangan. Xattot – Habibulloh Solih. Madrasa monumental yozuvlarining aksariyati shu xattot tomonidan tiklangan.

<sup>130</sup> Oʻzbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon meʼmoriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 323-325 betlar

<sup>131</sup> Oʻzbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon meʼmoriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 327-329 betlar

Ravoq ichidagi ikkinchi qavat eshiklari tepalarida kitobalar bitilgan (quyida ularning matnlari o'ng tarafdagi hujradan chap tarafga qarab keltirildi). Kitobalar tepa qismlarida kufiy xatida قال النبي عليه السلام – “Payg'ambar alayhissalom aytdilar”, – deb yozilgan. Pastgi qismlarda esa suls xatida sariq rangda hadis matnlari keltirilgan. “Ummatimning olimlari bani Isroilning payg'ambarlari kabidir.” Kim ilm talabida bo'lsa, jannat ham uning talabida bo'ladi. Kitobaning tepa qismida kufiy xatida الملك هل – “Mulk Xudonikidir”, – kalimasi yozilgan. Pastida suls xatida oq rangda Rasululloh (s. a. v.) hadislarini bitilgan. “Payg'ambar alayhissalom: “Inson va ilm o'sib borayotgan daraxtga o'xshaydi”, – dedilar.” Katta ravoq ichidagi yon devorlarning kitobalarida yozuvlarda: “Oxiri baxayr bo'lsin!” Shunga o'xshash muqaddas jumlar (Subhonalloh, Mulk Xudonikidir va b.) va chahoryorlar ismlari kirish peshtoqning kungiralarida ham bitilgan.<sup>132</sup> Bu iboralardan Insonni va ilmni yagona bir o'sayotgan daraxtga o'xshatilishining o'zida chuqur falsafiy mazmun yashiringan. Bunda biz dastlab ularning har biriga parvarish kerakligini anglab olamiz. Agar ularni to'g'ri yo'naltirilmasa boshqa yo'lga kirib ketishini tushunamiz.

Gumbaz atrofida suls xatida Qur'oni karimning “Jin” surasi 72:18-oyati bitilgan. Tepasida kufiy xatida – “Mulk Xudonikidir”, “Boqiylik Xudoga xos”, – kalimalari yozilgan. Alloh taolo: “Albatta, (barcha) masjidlar Allohnikidir. Bas, (masjidlarda) Allohga qo'shib yana biror kimsaga duo (ibodat) qilmanglar!”, – deb aytdi. Tillokori madrasasi janubi-g'arbiy gumbazida "Oyat ul-kursi" (Qur'oni karimning “Baqara” surasi, 2:255-oyat) yozilgan.<sup>133</sup> Jin surasining 18-oyatida masjidlarni faqat Allohga ibodat qilish uchun bino qilingani, shuning uchun boshqaga u yerda duo o'qimang deb murojaat qilingan.

Tillokori madrasasi hovlisining janubiy peshtoqi yon atrofdagi yozuvlarda ham: “Boqiylik Xudoga xos, Xudoga shukr.”-kalimalarini o'qishimiz mumkin. Peshtoq bosh kitobasining tepa qismida kufiy xatida– “Shukr Xudoga”, “Mulk Xudonikidir” – kalimalari takroriy tarzda yozilgan. Pastida suls xatida Qur'oni

<sup>132</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 331-335 betlar

<sup>133</sup> Ko'rsatilgan adabiyot. 337-343 betlar

karimning “Nur” surasi 24:37-oyati bitilgan. “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman). Kishilar bordir. Ularni na tijorat va na savdo (ishlari) Allohning zikridan, namozni mukammal ado etishdan va zakot berishdan chalg’ita olmas. Ular dillar va ko’zlar iztirobga tushib qoladigan kun (qiyomat)dan qo’rqurlar. Ravoqning ikki yon devorlaridagi kitobalarda suls xatida “Tavhid” kalimasi yozilgan. “Allohdan o’zga Iloh yo’q va Muhammad Allohning Rasulidir.”<sup>134</sup> Nur surasini bu joyda keltirishida o’zi zohir bo’lib, o’zgalarni ham zohir etuvchi vujudga nisbatan ishlatilgan. Insoniyat o’zga narsalar bilan chalg’imasligi va faqat Alloh yo’lida fidoiy bo’lishiga da’vat etilgan.

Tillokori madrasasi hovlisining shimoliy peshtoqi bosh kitobasining tepa qismida kufiy xatida الملك هلل – Mulk Xudonikidir”, – kalimasi takroriy tarzda yozilgan. Pastida suls xatida hovlining janubiy peshtoqidagi kabi holat takroriy yozib qoldirilgan.

Tillakori madrasasi hovlisining sharqiy peshtoqi ravoqning yon atroflaridagi bitikda–“Boqiylik Xudoga xos” va “Xudoga hamdu sanolar”, – so’zlari takrorlangan. Peshtoq kitobasining tepa qismida– “Mulk Xudonikidir”, – kalimasi sariq rangda takroriy tarzda bitilgan. Pastida suls xatida oq rangda Qur’oni karimning “Nur” surasi 24:38-oyati yozilgan. “ Ular qilgan ezgu amallari sababli Allohning mukofotlashi va yana ularga o’z fazli bilan ziyoda (savoblar ato) qilishi uchun (ibodat qilurlar). Alloh (o’zi) xohlagan kishilarga behisob rizq berur.”<sup>135</sup>

Tillakori madrasasi hovlisidagi g’arbiy peshtoqining tepasida kufiy xatida الملك هلل – “Mulk Xudonikidir”, – kalimasi takroriy tarzda bitilgan. Pastida suls xatida oq rangda Qur’oni karimning “Nur” surasi 24:35-oyati yozilgan. Unda quyidagilarni o’qiymiz:-“Alloh osmonlar va Yerning “nuri”dir. Nurining misoli xuddi bir tokcha ichidagi chiroq, bu chiroq bir shisha ichida, u shisha go’yo bir durdan yaralgan yulduzga o’xshaydi. U (chiroq) na sharqiy va na g’arbiy bo’lgan muborak zaytun daraxti (moyi)dan yoqilur. Uning moyi (shunday musaffoki), garchi unga olov tegmasada, (atrofni) yoritib yuborgudek. (Bularning bari birlashsa), nur ustiga nur

<sup>134</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me’moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 349-351 betlar

<sup>135</sup> Ko’rsatilgan adabiyot. 359-361 betlar

(bo'lur). Alloh o'zining (bu) nuriga o'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur. Alloh odamlar (ibrat olishlari) uchun (mana shunday) masallarni keltirur."

Ravoq tagidagi ko'zachaning yozuvida: "Sultonlik Xudoga xos". Ravoq ichida yozuvlarning tepasida kufiy xatida – "Xudoga shukr", "Alloh ulug'", kalimalari, pastida esa Qur'oni karimning "Jum'a" surasi 62:9–10-oyati suls xatida oq rangda: "Alloh taolo aytdi: "Ey, imon keltirganlar, qachonki, (azon aytib) jum'a kunidagi namozga chaqirilsa, darhol Allohning zikri sari harakatga tushingizlar va savdo-sotiqni tark qilinglar! Agar biladigan bo'lsangizlar, mana shu (ish) – o'zlaringiz uchun yaxshi. Bas, namozni ado etib bo'lganingizdan keyin tarqalib, Allohning fazli (rizqi)dan istayveringizlar! Allohni ko'p yod etingizlar, shoyad (shunda) najot topursizlar". Buyuk Alloh rost so'zladi"<sup>136</sup>- deb yozilgan. Peshtoqning chap va o'ng ustunlaridagi dekorativ ravoqlar ichida kufiy xatida – "Alloh – buyuk" "Ey Mehribon", "Ey Rahmli", "Alloh", "Muhammad", "Kuch-qudrat Xudonikidir", – ilohiy kalimalar va ismlar bitilgan.

Tillakori madrasasi masjidining yozuvlaridan doira ichida kufiy xatida نبي محمد – "Muhammad payg'ambar" ismi to'rt marta takroriy tarzda yozilgan.

Tepasida kufiy xatida – "Mulk Xudonikidir", "Kuch-qudrat Xudoga xos", – kalimalari bitilgan. Kitoba atrofida suls xatida oq va tilla ranglarda – "Allohni hamd aytish va ulug'lash bilan ulug'layman" – kalimasi yozilgan.

Kitoba ichida suls xatida tilla rangda Rasululloh (s. a. v.)ning hadislaridan: "Rasululloh (s.a.v.) masjid – Alloh taolo suygan eng yaxshi makon" – deb yozilgan. Masjidning frizida suls xatida tilla rangda Qur'oni karimning "Fath" surasi 48:1–16-oyatlari, tepasida esa kufiy xatida oq rangda shu suraning qolgan – 17–25-oyatlari yozilgan. Bu suraning mohiyatida barchani yagona Allohga e'tiqod qilish uchun kurash olib borilgani, hamda osmon va yer Allohniki ekanligi qayd etilgan.

Tillokori masjidi mehrobida kufiy va suls xatlarida: "Payg'ambar alayhis-salom: "Masjidlar Allohning uylaridir va masjidlarning ahli esa Allohning suyak-

---

<sup>136</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 365-369 betlar

lilaridir”,- dedilar. To’rtburchak ichida kufiy xatida tilla rangda “Tavhid” kalimasi bitilgan. “Allohdan o’zga Iloh yo’q va Muhammad Allohning Rasulidir.”<sup>137</sup>

To’rtburchak atrofida tilla rang kitobalar ichida suls xatida Qur’oni karimning “Oli Imron” surasi 3:37–38-oyatlari bitilgan. Unda: “Bas, Parvardigori uni (Maryamni nazrlikka) husni qabul etib, yaxshi parvarish qildi va Zakariyo qaramog’iga topshirdi. Har gal Zakariyo (Maryamning) oldiga – mehrobga kirganida, oldida rizq (muhayyo) turganini ko’rar edi. U: “Ey, Maryam, bu narsalar senga qayoqdan keldi?” – deb so’rsa, (Maryam): “Bular Alloh huzuridan. Albatta, Alloh o’zi xohlagan kishilariga behisob rizq berur”, – deb javob berar edi. O’sha joyda Zakariyo Rabbiga iltijo qildi: “Rabbim, menga (ham) o’z huzuringdan pok zurriyot ato et! Darhaqiqat, Sen duoni eshituvchidirsan”.<sup>138</sup>

Mehrob atrofida suls xatida tilla rangda Qur’oni karimning “Isro” surasi 17:1–6-oyatlari bitilgan. Bu oyatlarda quyidagilarni o’qiymiz: “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlaman). (O’z) bandasi (Muhammad)ni unga mo’jizalarimizdan ko’rsatish uchun tunda (Makkadagi) Masjid ul-Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofni barakotli qilib qo’ygan Masjid ul-Aqsoga sayr qildirgan zotga tasbeh aytishga (loyiqdir). Darhaqiqat, U eshituvchi va ko’ruvchidir. 2. (Biz) Musoga Kitob (Tavrot)ni ato etdik va uni Isroil avlodi uchun hidoyat qilib): “Mendan o’zgani vakil qilib olmanglar!” – dedik. 3. “(Ey,) Biz (g’arq bo’lishdan qutqarib) Nuh bilan birga (kemada) ko’tarib, najot bergan kishilarning zurriyotlari! Albatta, u ko’p shukr qiluvchi banda edi”. 4. Shuningdek, Biz Isroil avlodiga Kitobda: “Sizlar, albatta, (Shomdek) zaminda ikki marta buzg’unchilik qilursizlar va katga tug’yonga ketursizlar”, - deb xabar berdik. 5. Bas, qachonki, u (buzg’unchilik)lardan avvalgisining belgilangan vaqti kelganida, sizlarning ustingizga (jazolash uchun) kuch-quvvatga ega bo’lgan bandalarimizni yubordik. Ular hovlima-hovli kezishdi. (Bu va’da) ado etiluvchi va’da edi. 6. So’ngra (tavba qilganlaringizdan keyin) ularning (Bobil hukmdorining) ustidan g’alabani sizlarga

---

<sup>137</sup> O’zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me’moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 375-381 betlar

<sup>138</sup> Ko’rsatilgan adabiyot. 383 bet

qaytardik va sizlarga mol-dunyo va farzandlar bilan madad berib, adadingizni ko'paytirdik<sup>139</sup>.

Mehrobning katta ravog'ining qoburg'alarida ulkan yozuv mavjud. Bularda suls xatida tilla rangda Qur'oni karimning "Infitor" (82) surasi bitilgan.<sup>140</sup> Masjidning marmar lavhlaridagi yozuvlar tilla rangga bo'yalgan. Tepasida kufiy xatida– "Mangulik Xudoga xos", "Mulk Xudonikdir", "Buyuklik Xudoga xos", "Kuch-qudrat Xudoga xos", "Quvvat Xudoga xos", "Shukr Xudoga", – kalimalari takroriy tarzda yozilgan. Pastida suls xatida arab tilida Allohni zikr etuvchi duolar bitilgan.

Tillakori madrasasidagi marmar lavhlarining tepasida kufiy xatida– "Mulk Xudonikidir", "Buyuklik Xudoga xos", "Xudoga shukr", "Mangulik Xudoga xos", – kalimalari bitilgan. Shuningdek, suls xatida bitilgan Rasululloh (s. a. v.)ning hadislari ham yozilgan. "Rasululloh (u zotga, oilalariga va sahobalariga Allohning salavot va va salomi bo'lsin) : "Quyosh chiqqan kunning yaxshisi – juma kuni. Shu kuni Odam (alayhissalom) yaratilganlar, shu kuni jannatga kiritilganlar va shu kunda o'sha yerdan chiqarilganlar. Qiyomat ham juma kuni qoim bo'ladi", – dedilar. (Payg'ambar) alayhissalom: "Kim Alloh uchun masjid bino qilsa, Alloh taolo unga jannatda yetmish ming qasr bino qiladi", – dedilar. Rasululloh (u zotga, oilalariga va sahobalariga Allohning salavot va va salomi bo'lsin): "Kim masjidni supursa yoki tozalasa, uning nomayi a'moli o'ng tomonidan beriladi va qiyomat kuni qabridan (bemalol) chiqadi", – dedilar. Allohning elchisi haq gapirdi. Rasululloh (u zotga, oilalariga va sahobalariga Allohning salavot va va salomi bo'lsin): "Agar sizlardan birov masjidga kirsas, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga salom aytib, so'ng: "Allohummaftah liy abvaba rohmatik" ("Ey Alloh, menga rahmating eshiklarini och"), deb aytsin. Chiqqanida esa: "Allohumma inniy as'aluka min fazlik" ("Ey Alloh, Sening fazlingni so'rayman"), desin. Rasululloh (s. a. v.) to'g'ri aytdilar.<sup>141</sup>

---

<sup>139</sup> "Qur'oni Karim" ning o'zbekcha izohli tarjimasidan. T.: Cho'lpon, 1992. "Isro" surasi

<sup>140</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 385-387 betlar

<sup>141</sup> O'zbekiston obidalaridagi bitiklar „Samarqand Registon me'moriy majmuasi“ birinchi kitob Toshkent — 2011. 393-395 betlar

Tillakori madrasasining kirish eshigi tepasida kufiy xatida – “Xudoga shukr”, “Mulk Xudonikidir”, – kalimalari o’yilgan. Suls xatida– “U o’lmaydigan abadiy (Zot)” ilohiy kalimasi bitilgan. Darvoza ustiga – “1325 (1907) yil”, – deb bitib qo’yilgan. Albatta bu ta’mirlangan sanasini bildiradi.

Xulosa qilib shuni alohida ta’kidlash lozimki Tillakori madrasasida har bir mo’min o’zining Alloh yo’lida to’g’ri deb topilgan amallarni, ya’ni namoz o’qish uchun ibodatga kelganlar. Bu maskan nafaqat namoz joyi, balkim fikr almashish, mashvarat, muammolardan xoli bo’lish va insoniyatni insof, adolat va komillikga yetaklovchi joy sifatida qadrlangan. Zero tarixiy yodgorliklar haqidagi ma’lumotlarning mazmunini ochish asosida bizning xotiramiz charxlanib-irodamiz mustahkamlanadi. Biz o’z o’tmishini yaxshi bilsak, o’z yo’limizni to’g’ri tanlasak, har xil aqidalar ta’siriga tushmaymiz. O’tmish avlodlarimizning tarixiy yodgorliklarda yozdirib qoldirgan matnlari bizni hushyorlikka o’rgatadi.

### **Xulosa**

Dunyoviy ilmlardan bebahra inson dunyo kishisi bo’la olmaydi. Buyuk ajdodlarimiz dunyoviy ilmlari ila dunyoni zabt etganlar. 1991 yil 31 avgustda ozbek xalqi uzoq vaqtlardan beri orziqib kutgan Istiqlolga erishdi. Mustaqillik yillarida yurtimiz qadim o’tmishini haqqoniy va tarixiy manbalarga yaratishining

asosiy maqsadi: "...Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odati va na'analarini hayotiy qadriyatlardan ayrim hollarda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"<sup>142</sup>. Shu o'rinda mamlakatimizdagi tarixiy obidalarining qayta tiklanishi va ta'mirlanishi, aziz bobolarimiz qabrlari joylashgan maqbaralar muqaddas qadamjolarga aylantirilishi, tarixiy obidalarimiz obodligi yo'lida olib borilgan say-harakatlarni alohida ta'kidlab o'tmoq joiz.

Tarixiy obidalarimizning g'oyat aniqlik va murakkab geometrik hisob – kitoblar asosida qad ko'targani, undagi nafis bezaklar va naqshlarning o'zaro uyg'unlashuvi, ham go'zal, ham mahobatli, mustahkam va muhtasham barpo etilgani hali hanuz kishilarni hayratga solib kelmoqda. O'zbekiston O'rta Osiyo mintaqasida o'z epigrafik yodgorliklari miqdori va noyoblighi bilan yetakchi bo'lgani holda, bu borada nashr qilingan manbalar yetarlicha tahlil qilinib o'rganilmagan. O'zbekiston hududida asrlar davomida tabiat sinovlariga bardosh berib kelayotgan, shaharlarimiz ko'rkiga chiroy qo'shib turgan ushbu tarixiy obidalarimizning dunyo miqyosidagi ahamiyatini YUNESKO ro'yxatiga 4000 dan ziyod tarixiy obidalarining kiritilganligida yaqqol ko'rish mumkin. Bu obidalar ro'yxatidan joy olgan Samarqand me'moriy yodgorliklari alohida o'rniga ega.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ochiq tabiat qo'ynidagi me'moriy obidalarimiz ta'mirlanishiga ham katta e'tibor berildi. Yurtimiz istiqloli sharofati bilan biz – bugungi avlod dunyoni o'z ko'zimiz bilan ko'rar ekanmiz, jahon uzra nomlari mashhur bobokalonlarimizning qoldirgan merosini qaytadan kashf etayapmiz. Vatanimiz tarixini mukammal o'rganish va ilmiy konsepsisiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida yurtboshimiz Islom Karimov "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz!"<sup>143</sup> – degan g'oyatda muhim fikrni ilgari suradilar.

---

<sup>142</sup> I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T. «Manaviyat». 2008 y. 29-30 – betlar.

<sup>143</sup> Islom Karimov, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", Toshkent, «O'zbekiston». 1998-yil, 49-bet



Samarqand qadimiy tarixi va me'moriy obidalarini bilan jahon madaniyatida o'z o'rniga ega o'lka hisoblanadi. Uning tarixi qancha varaqlansa, shuncha yangiliklar chashmalari aksini beraveradi. Ilm-ma'rifat, ma'naviyat misoli nurdir. Quyosh barchaga barobar bo'lgani kabi bu nur jahon uzra birdek taralaveradi. U chegara bilmaydi, davlat yo millat tanlamaydi. Azaldan dunyo bilmdonlari, ma'rifatparvarlari ana shu ziyo orqali yaqin aloqada bo'lganlar. Bu ziyo ular uchun bamisoli oltin ko'priklar vazifasini o'tagan.

Turkiy xalqining o'rta asrlardagi buyuk madaniy merosi tasviriy naqshlarda o'z ifodasini topgan. Amir Temur davrida qurilgan me'moriy obidalarining ko'rinishi mazmuniga shu qadar katta ahamiyat qaratilganki, ularning har biri katta san'at asari bo'lib, ko'rgan kishining e'tibori va havasini o'ziga tortmasdan qolmaydi. Ulug' bobosidagi xislatlar Mirzo Ulug'bekka ham ko'chib, uning qurdirgan Samarqanddagi madrasasi o'zida uning samoviy qiziqishlarini aks ettiradi.

Taraqqiyot tarixiga Sharq va G'arb xalqlari navbatma-navbat hissa qo'shib kelganlar. Jahon xalqlari orasidagi iqtisodiy va madaniy aloqa tobora rivojlana borgan va u hozirgi paytda yangi kuch bilan mustahkamlanmoqda. Dunyo xalqlari o'rtasidagi turfa aloqa, munosabatlar azaldan tabiiy ravishda shakllanib, ravnaq topib kelgan bo'lsa, endi u zamona zayli bilan yangicha shakl-u shamoyilda ilmiy, nazariy poydevoriga ega bo'lgan.

Shu kunlarda dunyoning siyosiy-jo'g'rofiy xaritasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, masalan, Ispaniya, Lotin Amerikasi kabi bir qancha mamlakatlar ham arab sivilizatsiyasi ta'sirida o'zlarining milliy adabiyotini barpo etishgan. Ma'lum darajada hozir ham ularda Sharq adabiyotining ta'siri bor.

Inson dunyoga bir marta keladi. Uning tomonidan yaratilgan meros va qoldirgan yaxshilik bir umr yoddan chiqmaydi. Chunki ezgulik abadiydir. Zero, shunday ekan, biz ham o'z ajdodlarimiz kabi kelajak avlodga munosib voris bo'lmog'imiz darkor. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Farzandlarimiz kelajak avlodlar bizdan shu o'lkani, shu muqaddas zaminni yana ham boy, kuchli va qudratli holatda qabul qilib olishlari uchun, biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan

qanday minnatdorchilik tuyg'ularini his etayotgan bo'lsak, o'g'il-qizlarimiz, kelajak avlod ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini his etishlari uchun lozim bo'lgan hamma ishni qilish-bizning fuqarolik burchimizdir".

Me'moriy obidalaridagi bitiklar va yozuv mazmunlarini axborotlash va Internet tizimida ma'lumotlar bazasini yaratish tomoshabinning me'moriy obidalar bilan tanishishda o'zaro muloqot ko'rinishini beradi. Tarixiy obidalar to'g'risida to'liq ma'lumot berish va o'zaro muloqot yangicha zamonaviy-madaniy vaziyatni yaratadi. Mamlakatimizda tarixiy obidalar haqida veb-sahifalar tashkil qilish bo'yicha ishlar boshlagan, mazkur ezgu ishlar kelgusida memoriy obidalar haqidagi tushunchalarni mustahkamlab, bilimlarimizni takomillashtirishga hissa qo'shadi.

Eng odil xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Samarqand me'moriy yodgorliklari o'zining rang-barang koshinlari, betakror bezaklari, naqshlari, ulkan gumbazlari bilan O'rta Osiyo me'morchiligining noyob yodgorligi bo'lib, asrlar davomida insonlar ongi va qalbida madaniyat, ilm-ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltiruvchi, tarbiyalovchi beshik vazifasini o'tab kelgan va shunday bo'lib qoladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi, 5-jild. Toshkent. O'zbekiston. 1997 y.

2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O'zbekiston. 1997.
3. Karimov. I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. //Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qo'ramiz. -Toshkent 1999.
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Abu Toxirxoja “Samariya” «Kamalak»T. 1991.
6. Sh.S. G'afforov, M.A. Yunusov, S.I. Sharipov, M.M. Saidov “O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi” Samarqand-2011.
7. N. B. Nemsova, Y. Z. Shvab “Ансабл Шах-и Зинда”. «G'.Gulom» T. 1979.
8. M. E. Masson “Мавзолей гур-Эмир”. Samarqand. 1929.
9. M.E. Masson “Регистан и его медресе” T. 1926.
10. G.A. Pugachenkova “Temurning memoriy me'rosi” T. 1996.
11. A. Berdimurodov «Go'ri Amir maqbarasi» «Meros»,T.1996.
12. I. Suvonqulov “Samarqand qadamjolari” T. “Fan” 2007.
13. M.M. Abramov. “Samarqand qabristonlari”. Samarqand. 1991.
14. 11. A. Berdimurodov “Amir Temur maqbarasi 1941-yilning 16-24 iyun kunlarida” T. “Yangi asr avlodi” 2010.
15. O. Bo'riyev “Sohibqiron Amir Temur”. T. «O'zbekiston» 2011.
16. A. Muhammadjonov, Q. Rajabov “Amir Temur” T. “O'zbekiston” 2013.
17. Q. Xasanov “Registon ansambli”. Samarqand-2007.
18. Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi. “Bibixonim jome' masjidi” «Zarafshon» nashri, Samarqand -2008.
19. “O'zbekiston islom obidalari” T.2012.
20. A. Muhammadjonov “Samarqand -jahon jamoli” //Moziydan sado. 4-son.
21. Ibn Arabsho “Ajoyib al maqdur fi tarixi Temur” T-1992.
22. «O'rta Osiyoning muqaddas qadamjolari tarixi» maxsus kursidan- O'quv uslubiy majmuasi(3- kurs talabalari uchun). Samarqand – 2010.
23. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”. T-1996.

24. Полупанов С.Н. «Архетектурний памятники Самарканда» Москва. 1948.
25. Sh. Jo`rayeva “O‘zbekistonninig tarixiy obidalarini” Samarqand – 2011.
26. O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand registon me‘moriy majmuasi” I kitob Toshkent — 2011. 400 b.
27. O‘zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar”/albom/ O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi jamg‘armasi. T-2011.
28. O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar “Samarqand Amir Temur va temuriylar davridagi majmua va ziyoratgohlar” III kitob Toshkent — 2012. 296 b.
29. Qur’oni Karim, (o‘zbekcha izohli tarjima) Alouddin Mansur, T. Cho’lpon, 1992
30. “Tarixiy Samarqand”. T. “Sanat jurnali” nashri 2007.
31. “O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar. Samarqand Shohi Zinda me‘moriy majmuasi” 3-kitob. T-2012. 552 b. “Tarixiy Samarqand”. T. “Sanat jurnali” nashri 2007.
32. «O‘rta Osiyoning muqaddas qadamjolari tarixi» maxsus kursidan- O‘quv uslubiy majmuasi (3- kurs talabalari uchun). Samarqand – 2010 yil.

#### **INTERNETdan**

1. [www.tarih.uz](http://www.tarih.uz)
2. <http://mavorounnaxr.blogspot.com/>
3. [http://fikir.uz/posts/memoriy\\_yodgorliklar/3566.html](http://fikir.uz/posts/memoriy_yodgorliklar/3566.html)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
5. <http://arx.novosibdom.ru/> neufert.